Mashhur tadqiqotchi olimlar Cornelius P. Cotter and John F. Bibby “Partiyalarning institutsional rivojlanishi va partiya tanazzuli” deb nomlangan tezislarda siyosiy partiyalarni tugatish tartibi haqida fikr bildirishgan, unga ko‘ra, siyosiy partiyalarni tugatishda noqonuniy, byurokratik xatti-harakat bo‘lmasligi kerak. Bu jarayon ochiq va shaffof, qonunda belgilangan talablar asosida amalga oshishi kerak. Aks holda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi nufuziga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi va demokratik prinsiplar qat’iy buzilishi mumkin [20].

Finlyandiya Respublikasida siyosiy partiyaning tugatish tugatilayotgan siyosiy partiya qurultoyi yig‘ilish qarori va Oliy sud qarori bilan amalga oshiriladi va jamiyat uning faoliyati qonuniy to‘xtatiladi [21].

Yana bir barcha sohada rivojlanishda peshqadam davlat siflatida rivojlanayotgan Filippinda “Filippin siyosiy partiya tizimini isloh qilish g‘oyalar va tashabbuslar, munozaralar va dinamika” nomli kitobda, siyosiy partiya tizimini isloh qilishda muhim g‘oyalar ilgari surilgan. Masalan, siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, xususan, siyosiy partiyaning tugatish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan holda, dastlab uning huquqiy asoslarining mavjud emasligi va undan keyin bu borada muammolar vujudga kelganligi hamda undan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda

siyosiy partiyalarni tugatishning huquqiy asoslarining yaratilishi siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi o‘rnini yanada mustahkamladi deb ta’kidlangan [22].

Tadqiqotchilar fikricha, Afrikaning Mozambik, Botsvanna, Namibiya, Zambiya, Lesoto kabi davlatlarda siyosiy partiyalar global miqyosda tanazzulni boshdan kechirmoqda. Bu muammo har xil shakllarda bo‘lmoqda. Birinchidan, siyosiy partiya a’zolar sonining kamayishi va saylovchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

### 1-jadval

#### Demokratiyaning global holati indeksi ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Tavsif / savol	To‘plan- gan ma’lu- motlar natijasi
1.3.1	Partiya taqiqi	Ekspert so‘rovi: har qanday siyosiy partiyalar faoliyati taqiqlanganmi?	-
1.3.2	Partiyalar uchun to‘siqlar	Ekspertlar so‘rovi: partiya tuzishdagi to‘siqlar qanchalik cheklovchi?	-
1.3.3	Muxolifat partiyalarining avtonomiyasi	Ekspertlar so‘rovi: muxolifat partiyalari hukmron rejimdan mustaqil va avtonommi?	-
1.3.4	Ko‘ppartiyaviylik saylovlari	Ekspertlar so‘rovi: bu milliy saylov ko‘ppartiyaviylik edimi?	-
1.3.5	Ishtirok etishning raqobatbardoshligi	Ishtirok etishning raqobatbardoshligi siyosat va yetakchilik uchun muqobil imtiyozlarni siyosiy maydonda qay darajada qo‘llash mumkinligini anglatadi.	-
1.3.6	Ko‘ppartiyaviy saylovlar	Qonun chiqaruvchi organing quyi palatasi (yoki bir palatali palatasi) (hech bo‘lmaganda qisman) bir nechta tanlovga duch kelgan saylovchilar tomonidan saylanadi. Xususan, partiyalar taqiqlanmagan va bir nechta partiyalar raqobatlasha oladi yoki saylovlar partiyasiz (ya’ni, barcha nomzodlar partiya belgilarisiz qatnashadi).	-

Siyosiy partiyalar o'z a'zolarini safarbar etishda jiddiy muammolarni boshdan kechirmoqda va a'zolik odatda pasayib bormoqda. Ushbu tendensiya siyosiy partiyalar haqidagi jamoatchilik fikrini o'zgartirayotgan bo'lsa, ikkinchidan, siyosiy partiyalarning tanazzulga uchrashining yana bir ko'rinish huquqiy asoslarning takomillashmaganligi, turli byurokratik ta'sirlar orqali siyosiy partiyalarga tashqi ta'sirlarning oshib borayotganligidir [23].

The Global State of Democracy Indices (Demokratiyaning global holati indeksleri) 1975–2020-yillardagi demokratiyaning turli atributlari bo'yicha mamlakat, mintaqaviy va global darajadagi demokratik tendensiyalarni o'lchaydi. Xususan, erkin siyosiy partiyalar masalasi ham muayyan atributlar bilan barcha demokratik davlatlarda siyosiy partiyalar tashkil etish, tugatish va siyosiy lavozimlar uchun saylovoldi tashviqoti erkinligi darajasi aniqlanadi. Bu jarayonda quyidagi oltita ko'rsatkich va qisman ekspert so'rovlariga asoslangan holda siyosiy partiyalar qanchalik erkinligini o'rganish uchun ishlatiladi [24].

Bu xalqaro Demokratiyaning global holati indeksi tadqiqotlari orqali demokratik davlatlarda siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi o'rni va ularning faoliyatidagi yutuq va muammolarini aniqlashimiz mumkin. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda demokratiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida, Buyuk Britaniyaning The Economist Intelligence Unit kompaniyasining 2020-yildagi tadqiqot natijasiga ko'ra, O'zbekiston Demokratiya indeksida 167 ta mamlakat ichida, anchagina past natija ya'ni 155 o'rinni qayd etdi [25].

O'zbekiston Demokratiya indeksida 155 o'rinni qayd etish holatiga baho berar ekanmiz, to'g'ri bu ijobiy holat deb bo'lmaydi, lekin mamlakatimizda oxirgi yillarda demokratik islohotlar jarayonida, xususan, siyosiy partiyalar faoliyatidagi islohotlar bu jarayonda ijobiy o'zgarishlarga erishishimizga yordam beradi va bu borada islohotlarni izchil davom etirish zarurligini anglatadi;

#### Xulosalar

Siyosiy partiya faoliyatini tugatishning nazariy-huquqiy asoslari va bu boradagi milliy va xorijiy qonunchilik tajriba tahlili yuzasidan quyidagi amaliy taklif va ilmiy xulosalarni taklif qilamiz:

*birinchidan*, Siyosiy partiyalarni tugatishning nazariy-huquqiy asoslarini milliy va xorijiy davlatlar tajribasi asosida tahlil qilar ekanmiz, siyosiy partiyalarni tugatish tartibi turli davlatlarda muayyan huquqiy asoslarga ega ekanligini va ulardagi farqlarni quyidagi 18 davlat misolida ko'rib o'tishimiz va xulosa chiqarishimiz mumkin.

#### 2-jadval

##### Siyosiy partiyalarni tugatish tartibi

№	Davlatlar	1-guruh Oliy sud va siyosiy partiya Quril- toyi qarori asosida tugati- lishi	№	Davlatlar	2-guruh Konsti- tutsi- yaviy sud qarori va siyosiy partiya Quriltoyi qarori asosida tugati- lishi
1	O'zbekiston Respublikasi	+	13	Makedoniya Respublikasi	+
2	Rossiya Federatsiyasi	+	14	Koreya Res- publikasi	+
3	Moldaviya Respublikasi	+	15	Ozarbajon Respublikasi	+
4	Tojikiston Respublikasi	+	16	Turkiya Res- publikasi	+
5	Turkmanis- ton Respub- likasi	+	17	Germaniya Federativ Respublikasi	+
6	Qirg'iziston Respublikasi	+	18	Gruziya Res- publikasi	+
7	Belarus Respublikasi	+			
8	Ukraina Respublikasi	+			
9	Latviya	+			
10	Litva	+			
11	Qozog'iston Respublikasi	+			
12	Finlyandiya Respublikasi	+			

*ikkinchidan*, siyosiy partiya faoliyatini tugatishning nazariy-huquqiy asoslari chuqur o'rganish va bu boradagi milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda uni amaliyotda keng joriy etish, turli byurokratik to'siqlarning

vujudga kelmasligi mamlakatimizdagi siyosiy partiyalarning izchil rivojlanishiga yordam beradi; *uchinchidan*, siyosiy partiya faoliyatini tugatish vakolatini Oliy sud va Partiya qurultoyi yig'ilishi qarori bilan bir qatorda Konstitutsiyaviy sudga berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tajriba rivojlangan davlatlar GFR, Turkiya, Gruziya kabi davlatlar tajribasida ijobiy natija berib kelmoqda;

*to'rtinchidan*, bugungi kunda jamoatchilik nazorati davlatlarda yaxshigina rivojlanganligi va bu mexanizmning yurtimizda kuchaytirish nuqtayi nazardan siyosiy partiyalarni tugatish jarayonida Oliy sud va Partiya qurultoyi yig'ilishi qarorlari qatoriga jamoatchilik ovozig qo'yilishi orqali tugatish mexanizmlarini yaratish bu borada ijobiy natija berishi mumkin;

*beshinchida*, siyosiy partiya o'z ustaviga muvofiq qurultoy qarori bilan tarqalib ketishida, uning qarorini bevosita partiya a'zolarining (elektorat) a'zolariga ovozig qo'yish mexanizmlarini

yaratish, shuningdek partiya oliy organi tugatishi haqidagi qarorni uch kunlik muddat ichida emas 10 kunlik muddatda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga xabar qilish mexanizmini yaratish kerak. Bu tugatish to'g'risidagi qarorning puxta qabul qilinishida, uni chuqur tahlil qilishga yordam beradi;

*oltinchidan*, tugatilayotgan partiya belgilangan qoidalarini buzgani uchun o'z faoliyati to'xtatib qo'yilganidan so'ng bir yil muddat ichida o'sha xatti-harakatlarni takror sodir etgan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining qarori bilan tugatiladi. Ushbu muddatni bir yil emas, 6 oy sifatida belgilash o'rinli. Sababi siyosiy partiya bu borada muddatning kam bo'lishi, unga faoliyat jarayonida mas'uliyat yuklaydi va samarali faoliyatini ta'minlaydi.

## REFERENCES

1. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi [Speech of the newly elected President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the joint session of the Oliy Majlis of the Oliy Majlis dedicated to the inauguration ceremony]. Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/4743/>.
2. Bekov I.R Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc) [Improving the organizational and legal framework for the participation of political parties in the activities of representative bodies of state power]. Tashkent, 2021, p. 3.
3. "O'zbekiston Respublikasi Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Law of the Republic of Uzbekistan on Political Parties. National Legislative Database]. 21.04.2021, no. 03/21/683/0375, 15.10.2021, no. 03/21/722/0960.
4. Zakon Belarussii o politicheskikh partiyah [Law of Belarus on Political Parties]. Available at: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=v19403266/>.
5. Zakon Gruzii o politicheskikh partiyah [Law of Georgia on Political Parties]. Available at: <http://www.matsne.gov.ge/>; <http://www.matsne.gov.ge/>.
6. Law on political parties of the Republic of Macedonia. Available at: <https://www.legislationonline.org/documents/id/5661/>.
7. Zakon Respubliki Moldova o politicheskikh partiyah [Law of the Republic of Moldova on Political Parties]. Available at: <http://www.vspmr.org/legislation/laws/zakonodatelnie-akti-pridnestrovskoy-moldavskoy-respubliki-v-sfere-obrazovaniya-kuljturi-sporta-molodejnoj-politiki-sredstv-massovoy-informatsii-a-takje-v-sfere-realizatsii-politicheskikh-prav-i-svobod-grajdan/zakon-pridnestrovskoy-moldavskoy-respubliki-o-politicheskikh-partiyah.html/>.
8. Zakon Respubliki Azerbajzhan o politicheskikh partiyah [Law of the Republic of Azerbaijan on Political Parties]. Available at: <https://rg.ru/2001/07/11/partii-dok.html/>.
9. Zakon Kirgizskoj Respubliki o politicheskikh partiyah [Law of the Kyrgyz Republic on Political Parties]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/215?cl=ru-ru/>.
10. Zakon Respubliki Kazahstan o politicheskikh partiyah [Law of the Republic of Kazakhstan on political parties]. Available at: [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=1032141/](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1032141/).

11. Federalnij Zakon Rossijskoj Federacii o politicheskix partijah [Federal Law of the Russian Federation on Political Parties]. Available at: <https://rg.ru/2001/07/11/partii-dok.html/>.
12. Zakon Respubliki Tadjikistan o politicheskix partijah [Law of the Republic of Tajikistan on political parties]. Available at: <https://www.legislationline.org/ru/documents/id/14367/>.
13. Zakon Respubliki Turkmenistan o politicheskix partijah [Law of the Republic of Turkmenistan on political parties]. Available at: <https://www.legislationline.org/ru/documents/id/17131/>.
14. Zakon Respubliki Ukraina o politicheskix partijah [Law of the Republic of Ukraine on Political Parties]. Available at: <https://www.legislationline.org/ru/documents/id/16953/>.
15. Zakon o politicheskix partijah Federativnoj Respubliki Germanii [Political Parties Act of the Federal Republic of Germany]. Available at: <http://www.pravoznavec.com.ua/books/letter/280/%D2/20782/>.
16. Law on political in Latvia. Available at: <https://www.legislationline.org/legislation/section/legislation/country/19/topic/16/>.
17. Republic of Lithuania law on political parties. Available at: <https://eseimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/09450a307a1c11e4a8a7b07c53dc637c?jfwid=rivwzvpvg/>.
18. Law on political in Turkey parties. Available at: [https://www.legislationline.org/download/id/7853/file/Turkey\\_law\\_political\\_parties\\_1983\\_am2014\\_en.pdf/](https://www.legislationline.org/download/id/7853/file/Turkey_law_political_parties_1983_am2014_en.pdf/).
19. Law on political in Republik of Korea. Available at: [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_mobile/viewer.do?hseq=29270&type=part&key=3/](https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=29270&type=part&key=3/).
20. Cotter C.P., Bibby J.F. Institutional Development of Parties and the Thesis of Party Decline. DOI: <https://doi.org/10.2307/2149582/>.
21. Act on Political Parties Finland. Available at: [https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1969/en19690010\\_19920653.pdf/](https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1969/en19690010_19920653.pdf/).
22. Reforming the Philippine Political Party System ideas and initiatives, debates and dynamics. Friedrich Ebert Stiftung, 2009, p. 37. Available at: <https://library.fes.de/pdffiles/bueros/philippinen/07131.pdf/>.
23. Matlosa Kh., Sheyl V. Political parties programme handbook. 2008, July, pp. 13-15. Available at: <https://www.eisa.org/pdf/eh18.pdf/>.
24. The Global State of Democracy Indices. Available at: <https://www.idea.int/gsoindices/>.
25. The research and analysis division of The Economist Group, the sister company to The Economist newspaper. Available at: [https://www.eiu.com/public/topical\\_report.aspx?campaignid=DemocracyIndex2020/](https://www.eiu.com/public/topical_report.aspx?campaignid=DemocracyIndex2020/).

UDC: 342.5(042)(57501)  
ORCID: 0000-0002-2705-950X

## HUKUMATNING DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

**Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent  
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Hukumatning davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rni, Hukumatning parlament va prezident bilan o'zaro munosabatlari, Hukumatning qonunlar ijrosi yuzasidan qarorlar qabul qilishi, ijro hokimiyatining vakolatlari xorijiy mamlakatlar huquqiy amaliyoti asosida tahlil qilingan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ishlarning tadrijiy davomi sifatida kelgusida davlat va hududiy rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligini oshirish, strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini, shu jumladan vakillik hokimiyati organlari tomonidan ular hisobotlarini eshitish yo'li bilan baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etish, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlari, roli va javobgarligini kengaytirish, mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipining amaliy ro'yobga chiqarilishini ta'minlash haqida mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** hukumat, Vazirlar Mahkamasi, prezident, parlament, vakolat va mas'uliyat.

### МЕСТО И РОЛЬ ПРАВИТЕЛЬСТВА В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

**Хошимхонов Ахрор Муминович,**  
кандидат юридических наук, доцент,  
проректор Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль правительства в системе государственной власти, взаимоотношения правительства с парламентом и Президентом, принятие правительством решений по реализации законов, полномочия исполнительной власти на основе зарубежной юридической практики. Важно повышать инициативу территориальных органов исполнительной власти в формировании перспективных государственных и региональных программ развития, оценивать деятельность органов исполнительной власти и их руководителей на всех уровнях, в том числе путем заслушивания их отчетов, исходя из эффективности стратегического развития. В качестве предложений выдвинуты: внедрение новой системы и постепенная децентрализация государственного управления, расширение финансовых возможностей, роли и ответственности органов местного самоуправления, создание системы местного самоуправления. Это позволит обеспечить практическую реализацию принципа разделения власти.

**Ключевые слова:** правительство, Кабинет Министров, Президент, парламент, полномочия и обязанности.

### THE PLACE AND ROLE OF GOVERNMENT IN THE SYSTEM OF PUBLIC AUTHORITIES

**Hoshimkhonov Ahror Mominovich,**  
Deputy rector of Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

**Abstract.** This article analyzes the role of the government in the system of state power, the relationship of the government with the parliament and the president, the government's decision-making on the implementation of laws,

*the powers of the executive on the basis of foreign legal practice. It is important to increase the initiative of territorial executive bodies in the formation of future state and regional development programs, to evaluate the activities of executive bodies and their leaders at all levels, including by hearing their reports, based on the effectiveness of strategic development programs. introduction of a new system, gradual decentralization of public administration, expansion of financial capabilities, role and responsibility of local authorities, the system of local government There are suggestions on how to ensure the practical implementation of the principle of separation of powers in the organization of.*

**Keywords:** Government, Cabinet of Ministers, president, parliament, powers and responsibilities.

Har qanday mustaqil davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olar ekan o'z oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo'yadi. Ana shu maqsad va vazifalarni belgilash ishini xalq tomonidan saylangan hamda xalq xohish-irodasini ifoda etadigan parlament, shuningdek davlat boshlig'i amalga oshiradi. Davlat oldidagi ana shu vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat va funksiyalarni ijro etuvchi hokimiyat amalga oshiradi. Davlat siyosatining asosiy yo'nalish va maqsadlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda ham hukumat asosiy rol ni o'ynaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari davlat va jamiyat hayotida faqatgina qonunlar ijrosini ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki ular davlat va jamiyatning normal hayot tarzini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi quyi organlar vakolatlarini taqsimlash, ular faoliyatini nazorat qilish va davlat miqyosida umummajburiy bo'lgan huquq ijodkorligi faoliyatini ham amalga oshiradi. Ushbu holat, totalitar sotsialistik mamlakatlarda hukumatning farmoyish beruvchilik maqomini kengaytirib yuborgan. Aytib o'tilganidek, ijro etuvchi hokimiyat oliy organlari qonunlar ijrosi yuzasidan mustaqil huquq ijodkorligi vakolatiga ham ega. Parlament tomonidan belgilangan vazifalar asosida davlat boshlig'i, hukumat, alohida ministrlar (vazirlar, kengash a'zolari) davlat va jamiyat hayotining muhim hisoblangan jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bajarilishi umummajburiy hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladilar. Ba'zida ushbu huquqni qo'llash aktlari qonunlar maqomi darajasida ahamiyat kasb etadi.

Yevropaning ba'zi mamlakatlarida [1] va Yaponiyada [2] monarx konstitutsiya asosida hukumatga rahbarlik qilish vakolatlaridan mahrum qilingan yoki amalda ushbu vakolat vaqt o'tishi bilan yo'qotilgan. Ushbu mamlakatlarda monarx davlat boshlig'i sifatida millatning

davlatchilik va birdamlik ramzi ifodasi bo'lib qolgan.

Prezident va hukumat masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, oxirgi yillarda parlamentar va, ayniqsa, yarimpresidentlik respublika davlat boshqaruvi shaklida bo'lgan mamlakatlarda prezidentni hukumatdan ajratish tendensiyasi kuzatilmoqda. Keyingi davrlarda prezident hokimiyatining muayyan ko'rinishini yaratish g'oyalari ilgari surilmoqda. Ushbu g'oya prezidentni barcha hokimiyat tarmoqlaridan, alohidalashtirish, hech bir hokimiyatga kirmaslik va uni barcha ommaviy hokimiyatlar ustidan oliy hakamlik funksiyasini bajaruvchi institut sifatida siyosiy maydonga keltirishni nazarda tutadi. Mazkur g'oya Fransiyaning 1858-yilgi Konstitutsiyasida ifodalangan bo'lib, uningta'siriba'zipostsotsialistik mamlakatlarning (Qozog'iston [3] 1995-yilgi, Belarus [4] 1996-yilgi) konstitutsiyalarida ham ifodalangan.

Shunday holat aynan 2007-yil 11-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga kiritilgan o'zgartishga ko'ra asosiy qonun matnida o'z ifodasini topdi va unga asosan [5], O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

Prezidentlik va yarimpresidentlik respublikalarida (Misr, Rossiya, Ukraina [6] va boshqalar) an'anaviy prezidentlik respublikalarida mavjud bo'lmagan premyer-ministr (bosh vazir) kabi mansab tashkil etilgan. Mazkur mamlakatlarda bosh vazir (premyer-ministr) lavozimi prezidentlik lavozimidan farqli o'laroq ijro etuvchi hokimiyat ma'muriyati rahbari sifatida taniladi. Prezident esa ayni vaqtda ijro etuvchi hokimiyatni shakllantiradi va uni iste'fosini qabul qilish vakolatiga ega, shuningdek hukumat qarorlarini bekor qilish borasida ham vakolatga ega hisoblanadi va bu, o'z navbatida, ijro etuvchi hokimiyat tarmog'i

faoliyatida ham prezidentning behad muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ba'zi prezidentlik va yarimpresidentlik respublikalarida bosh vazirga ayrim tarmoq vazirlari ishiga rahbarlik qilish vakolatlari ham berilgan, lekin muhim sohalar (mudofaa, ichki ishlar, tashqi ishlar va boshqalar) prezidentning o'z qo'li ostida qolgan [7].

Davlat hokimiyatining parlament va sudlov organlaridan farq qilgan holda hukumat yagona vertikal tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimda quyi turuvchi organlar yuqori turuvchi organlarga bo'ysunadilar, ular qonunlar bilan birga o'zidan yuqori turuvchi organ va mansabdorlarning ko'rsatmalari hamda farmoyishlariga so'zsiz amal qiladilar. Hukumat faoliyatini takomillashtirish, ularning ishlash imkoniyatini yanada oshirish, huquq va majburiyatlarini yanada aniq belgilash maqsadida joylardagi ijro etuvchi hokimiyat mansabdorlari va mahalliy organlari faoliyati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi tomonidan kuzatilib, nazorat qilib boriladi. Ular qabul qilgan qarorlar va boshqa huquqiy aktlar yuqori turuvchi markaziy organlar tomonidan bekor qilinishi yoki to'xtatib turilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijro hokimiyatining markaziy kollegial organi sifatida hukumat davlat va jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi. Chunki oliy vakillik organlari tomonidan qabul qilingan har qanday huquqiy hujjatlar ijrosi ushbu organlar zimmasida bo'ladi. Hukumat (ijro hokimiyati) davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning normal hayot tarzini ta'minlash uchun faol harakat qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Davlat idoralarining xalqimizga ko'rsatadigan xizmati – odamlarni rozi qilishning asosiy me'zonidir [8]. Shu ma'noda, ijro hokimiyati ijtimoiy hayotda rivojlanishning jadal sur'atlarda kechishini ta'minlaydi hamda xalqaro maydonda mamlakatning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda davlat hokimiyatining eng muhim tarmog'i sifatida maydonga chiqadi.

Hukumat organlari qo'l ostida davlat boshqaruvining barcha va xo'jalik boshqaruvining ayrim jihatlariga doir masalalarni hal qilish vakolati mavjud bo'lib, ularni kengroq keltirib o'tadigan bo'lsak, ular – qonuniylik, huquqiy tartibot, mudofaa va xalqaro munosabatlar, jinoyatchilikka qarshi kurash va fuqarolarning

manfaatlari bilan bog'liq ishlar, kadrlar masalasini hal qilish, davlat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyatini boshqarish va yo'naltirish hamda ular faoliyati ustidan nazorat olib borish, shuningdek budjet, uning ijrosi haqidagi hisobot, moliya, hisob-kitob, mulkchilik munosabatlari, yerdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, savdo, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat ko'rsatish, qurilish, transport, aloqa va aholini ijtimoiy himoya qilish kabi o'ta muhim masalalarni hal qilish va boshqa vakolatlardir. Bu vakolatlarning mavjudligi, o'z navbatida, ijro hokimiyati faoliyati ijtimoiy hayot jabhasining barcha tarmoq va sohalarini qamrab oladi degani bo'lib, ushbu sohalar bevosita ijro organlari harakati natijasida boshqariladi va natijada fuqarolarning hayotiy ehtiyojlari ta'minlanadi.

Ijro hokimiyati o'z ichiga davlatning ko'plab organlarini va xizmatchilarini qamrab oladi va shu sababli ham unda real ko'pdan ko'p vakolatlar bo'ladi. Shuningdek, huquqiy davlatda hukumatning bosh vazifasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi qonunlarning ijrosini ta'minlashdir.

Mamlakat qonunchilik hokimiyati bir xil maqomga ega bo'lgan bir guruh deputatlardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi va faoliyat turi hayot uchun eng zarur qonunlar ustida ishlash hisoblanadi. Ular xalqning parlamentdagi vakillari bo'lganligi sababli ham bevosita xalqning oldida mas'uliyatli va hisobdordirlar. Hukumat esa bir-biriga bo'ysunuv asosida faoliyat yurituvchi ijro etuvchi hokimiyatning markaziy kollegial organidir. Aynan mana shu ma'noni ifoda etuvchi qoida 2019-yil 10-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida, o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi. Ushbu normaga asosan, hukumat barcha ijro hokimiyati quyi bo'g'in organlarining oliy va kollegial organi sifatida faoliyat olib borishi anglashiladi. Ba'zi an'anaviy prezidentlik boshqaruvi shaklidagi

davlatlar (AQSh)da alohida kollegial organ sifatida ijro hokimiyatining markaziy organi hukumat mavjud emas. Yarimprezidentlik davlatlarida hukumat tarkibi prezident va parlament tomonidan va parlamentar respublikalarda esa hukumat Premyer-ministr (bosh vazir) tomonidan shakllantirilib parlament tomonidan tasdiqlanadi. Parlamentar respublikalarda yoki monarxiyalarda hukumat o'zining to'la tarkibi bilan siyosiy faoliyati yuzasidan parlament oldida javobgar bo'ladi (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya) [9].

Davlat va jamiyat hayotida sud hokimiyat odil sudlovni amalga oshirib, barcha qonunga zid harakatlar uchun javobgarlik va jazo muqarrarliligini ta'minlab, jamiyatda adolat qaror topishini kafolatlasa, ijro hokimiyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o'zining ta'sirini boshqaruv va qonun hujjatlari ijrosi orqali muntazam ko'rsatib turadi. Jamiyat hayotiga bunday aralashuv qonun hujjatlariga asosan hukumatning o'z huquqiy hujjatlarini qabul qilish va bevosita faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi huquqshunos olimlar parlament va hukumat o'rtasidagi aloqalar o'zaro bo'ysunuv asosiga quriladi deb hisoblaydilar. Masalan, K.V. Aranovskiy "parlament va hukumat o'rtasidagi aloqalar o'zaro teng va bo'ysunuv asosiga qurilgandir" [10], deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, davlat hayotida hukumatning parlamentga bo'ysunishini ko'p jarayonlarda kuzatish mumkin. Jumladan, hukumat bevosita ishlab chiqadigan va ijrosini ta'minlaydigan budjetni parlament tasdiqlaydi hamda soliq to'lovlarini ham aynan vakillik organi belgilaydi. Buning natijasida esa, hukumat faoliyati moliyalashtiriladi hamda hukumatning ijro faoliyatini yo'naltiruvchi reja va dasturlar ishlab chiqiladi.

Xorijiy davlatlarda davlat hisobidan maosh olib ishlaydigan hukumat a'zolari tarkibi parlament qabul qilgan qonunlar bilan belgilanadi. Hukumat yoki vazirliklar tomonidan qabul qilingan qarorlar, parlamentning shu masalalar to'g'risida chiqargan qonuni bilan o'z kuchini yo'qotadi. Bu ham ijro hokimiyatining faoliyati qonunosti xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni damda ushbu holat, hukumatning qonunchilik jarayoni va faoliyatida faol emas degan tushunchaga sabab bo'lmashligi kerak. Sababi garchi parlament qonunlarni qabul qilsa-da, ko'pchilik qonun loyihalari aynan hukumat faoliyati natijasida, ijtimoiy hayotdagi

qonuniy yechim talab etiladigan munosabatlarni aniqlash orqali shakllantiriladi. Bundan tashqari, davlat rahbari hukumatning ta'siri natijasida parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo'yishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati oliy davlat hokimiyati organlari tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Vazirlar Mahkamasining parlamentimiz, ya'ni Oliy Majlis bilan munosabati yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunda o'z ifodasini topgan. Unga binoan, Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, Davlat budjetining asosiy parametrlarini va unga o'zgartishlarni ishlab chiqadi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a'zosining o'zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishlari hamda zarur bo'lganda uni iste'foga chiqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari Respublikasi Oliy Majlisi palatalari majlislarida, palatalarning qo'mitalari majlislarida hozir bo'lish va axborot berishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a'zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo'yilgan taqdirda, Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Shuningdek, yangi tahrirda qabul qilingan qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zolari Qonunchilik palatasining majlisida Qonunchilik palatasi deputatlarining savollariga javoblarni taqdim etadi ("hukumat soati"). Mazkur tartib rivojlangan demokratik

mamlakatlarning boy davlatchilik amaliy tajribasi asosida belgilandi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'mitalari va komissiyalarining O'zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi. Tavsiyalar va takliflarni ko'rib chiqish natijalari haqida hamda ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo'mitalarini va komissiyalarini kelishilgan muddatda xabardor qiladi.

Qonunchilik palatasining, Senatning O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki unga bo'ysunuvchi davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga taalluqli bo'lgan parlament so'rovi, Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining shunday so'rovi yuborilgan Vazirlar Mahkamasi yoki uning a'zosi qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda javob taqdim etishi shart.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida hokimiyatlar bo'linishi tamoyilidan kelib chiqqan holda o'ziga yuklatilgan vazifa, ya'ni davlatning ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirar ekan, bu jarayonda Prezident, Oliy Majlis va sud hokimiyati bilan muntazam aloqada bo'ladi. Bu aloqa asosan Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarning hamda Prezident farmon, qaror va farmoyishlarining ijrosi yuzasidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari ushbu aloqalar Hukumatning qonun loyihalarini Oliy Majlisga taqdim qilishida, deputat so'rovlariga javob yo'llashida, Prezidentning Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishida va Bosh vazir taqdimiga binoan parlament ma'qullagach Prezident tomonidan Hukumatni shakllantirilishida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi va uning davlat hokimiyati tarmoqlariga nisbatan tutgan o'rni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida o'z aksini topgan bo'lib unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Mazkur Konstitutsiyaviy-huquqiy asos prezidentning mamlakat hayotidagi eng oliy mansabdor shaxs ekanligini belgilab berishi

barobarida uning ayni paytda davlat hokimiyati organlarining o'zaro kelishilgan holda faoliyat yuritishlarini ta'minlovchi subyekt ekanligini ham ifoda etadi.

Prezidentning Vazirlar Mahkamasi bilan o'zaro faoliyatini tahlil qilish orqali ushbu munosabatlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin. *Birinchi guruhga* prezidentning Vazirlar Mahkamasi tarkibini shakllantirish borasidagi vakolatlariga doir o'zaro hamkorligini belgilovchi qoidalarni kiritish mumkin bo'lsa, *ikkinchi guruhga* bevosita hukumatning faoliyati davomida qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlariga nisbatan prezidentning ularni bekor qilish va hukumatning majlislarida raislik qilish borasidagi faoliyati asoslari hisoblanadi. *Uchinchi guruhga* prezidentning hukumatga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi holatida yoki uning o'zi tomonidan hukumatni vazifasidan ozod etish yuzasidan tegishli qaror qabul qilish bilan bog'liq o'zaro faoliyati huquqiy asoslarini kiritamiz va bu ham hukumatga nisbatan prezidentning muayyan huquqlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Davlatimizda so'nggi yillarda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ham tubdan isloh qilinmoqda va bu, o'z navbatida, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institusional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o'tkazilayotgan islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga hamda jamiyatimiz oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga to'squinlik qilayotganligi bilan bevosita izohlanadi. Shu va boshqa ijtimoiy zaruriy sabablar asnosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrda O'zbekiston Respublikasida "Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni qabul qilinib, quyidagilar davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilandi:

- ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini tashkil etish va tugatishning aniq mezonlari hamda tartib-taomillarini joriy qilish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning tuzilmalari va bo'linmalarini optimallashtirish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari va ular rahbarlarining biriktirilgan sohada davlat siyosati amalga oshirilishida mustaqilligini oshirish;

– “Elektron hukumat” tizimini yanada keng joriy etish;

– davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish;

– ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

– ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish;

– ijro etuvchi hokimiyat organlarining aniq vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni va javobgarlik sohalarini belgilash, ishonib topshirilgan tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning aniq tizimini joriy etish va boshqalar belgilandi. Bu o'z navbatida ijro hokimiyati organlari o'z faoliyatida kelgusida faqatgina boshqaruvni amalga oshiruvchi organ sifatidagina emas, balki ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda zamonaviy shakl va usullarda faoliyatini tashkil etishi, boshqaruvdan ko'ra ko'proq fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishi kerakligi hamda boshqa yo'nalishlarda mustaqil qarorlar qabul qilishi kerakligini huquqiy jihatdan belgilashni nazarda tutdi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarning tadrijiy davomi sifatida kelgusida davlat va hududiy rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashab-

buskorligini oshirish, strategik rivojlanish dasturlarini amalga oshirish samaradorligiga asoslangan barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini, shu jumladan vakillik hokimiyati organlari tomonidan ular hisobotlarini eshitish yo'li bilan baholashning prinsipial yangi tizimini joriy etish, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlari, roli va javobgarligini kengaytirish, mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipining amaliy ro'yobga chiqarilishini ta'minlash va boshqa shu kabi masalalar turibdiki, ularning amalga oshirilishi natijasida maqsadli tarzda faoliyat yuritadigan, faoliyatining asosiy me'zoni inson haq-huquqlarini ta'minlash bo'ladigan va fuqarolarni davlatdan rozi qilishni maqsad qiluvchi ijro hokimiyatining samarali faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Davlat boshqaruvi doimo doiraviy rivojlanishda, shu bois, u fan oldiga yangidan yangi masalalarni qo'yishi hamda boshqaruv tizimining takomillashuvi va islohotlarni taqozo etishi aniqdir. Bu tabiiy hol, albatta. Zotan, boshqaruv jarayonini takomillashtirish bir martalik tadbir bo'lmasdan, balki jamiyat taraqqiyoti oldimizga qo'yayotgan yangidan yangi vazifalarni muntazam yechib borishning dinamik jarayonidir.

## REFERENCES

1. Konstitucija Shvecii (Korolevstva Shvecija) [Constitution of Sweden (Kingdom of Sweden)]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/sweden.pdf/>.
2. Japoniya. Konstitucija [Japan. Constitution]. Available at: <https://www.krugosvet.ru/enc/gosudarstvo-i-politika/yaponiya-konstitutsiya#part-1/>.
3. Oficial'nyj sajt Prezidenta Respubliki Kazahstan [Official site of the President of the Republic of Kazakhstan]. Available at: [https://www.akorda.kz/ru/official\\_documents/constitution/](https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/).
4. Konstitutsija Respubliki Belarus [Constitution of the Republic of Belarus]. Available at: <https://pravo.by/pravovaya-informatsiya/normativnye-dokumenty/konstitutsiya-respubliki-belarus/>.
5. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi O'RQ-89-son Qonuni tahririda [As amended by the Law of the Republic of Uzbekistan dated April 11, 2007 No. ZRU-89]. O'R QHT, 2007, no. 15.
6. Konstitucija Ukrainy [Constitution of Ukraine]. Available at: [https://www.concourt.am/armenian/legal\\_resources/world\\_constitutions/const/ukraine/ukrain-r.htm/](https://www.concourt.am/armenian/legal_resources/world_constitutions/const/ukraine/ukrain-r.htm/).
7. Jelektronnyj fond bolee 25 000 000 aktual'nyh pravovyh i normativno-tehnicheskix dokumentov [Electronic fund of more than 25,000,000 current legal and regulatory documents]. Available at: <https://docs.cntd.ru/document/566213051?marker=8QK0M7/>.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Strategiyasi [New Uzbekistan Strategy]. Tashkent, 2021, p. 83.
9. Available at: [docs.google.com/viewerng/viewer?url=http://legalns.com/download/books/cons/spain.pdf/](https://docs.google.com/viewerng/viewer?url=http://legalns.com/download/books/cons/spain.pdf/).
10. Aranovskiy K.V. Gosudarstvennoe pravo zarubezhnyh stran. Uchebnik dlja vuzov [State law of foreign countries. Textbook for universities]. Moscow, FORUM-INFRA-M Publ. grup, 1998, p. 418.

UDC: 347.(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0002-4703-3358

## O'ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING AYRIM TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI

**Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori  
e-mail: tiu-bek@inbox.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati bilan bog'liq muammolar, nodavlat notijorat tashkilotini ijtimoiy foydali deb e'tirof etishni huquqiy tartibga solish istiqbollari, nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokidagi ijtimoiy sheriklik institutining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari, O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi misolida nodavlat sektorni rivojlantirish strategiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy foydali deb e'tirof etish, ijtimoiy sheriklik, "xalq diplomatiyasi", soliq imtiyozlari.

### НЕКОТОРЫЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Нариманов Бекзод Абдувалиевич,**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с деятельностью негосударственных некоммерческих организаций, перспективы правового регулирования негосударственной некоммерческой организации, подлежащей признанию общественно полезной, перспективы совершенствования правовых норм института социального партнерства с участием негосударственных некоммерческих организаций, стратегия развития некоммерческого сектора на примере Национальной ассоциации негосударственных некоммерческих организаций.

**Ключевые слова:** негосударственные некоммерческие организации, признание общественно полезными, социальное партнерство, "народная дипломатия", налоговые льготы.

### SOME ORGANIZATIONAL AND LEGAL ISSUES OF STATE SUPPORT FOR NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN

**Narimanov Bekzod Abduvalievich,**  
Independent researcher of Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Abstract.** This article discusses the issues of problems related to the activities of non-governmental non-profit organizations, prospects for the legal regulation of a non-governmental non-profit organizations that is subject to recognition as socially useful, prospects for improving the legal norms of the Institute of Social Partnership with the

*participation of non-governmental non-profit organizations, the strategy for the development of the non-profit sector on the example of the National association of non-governmental non-profit organizations.*

**Keywords:** *non-governmental non-profit organizations, recognition as socially useful, social partnership, "people's diplomacy", tax benefits.*

Xalqaro tajribada, umuman, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning institutlari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish belgilangan.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Islahotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim" [1].

Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha uchta asosiy jihat asosida yoritishni maqsad qilib oldik:

1. Nodavlat notijorat tashkilotini ijtimoiy foydali deb e'tirof etishni huquqiy tartibga solish istiqbollari;

2. Nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokidagi ijtimoiy sheriklik institutining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari;

3. O'zbekistonda Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi misolida nodavlat sektorni rivojlantirish strategiyasi.

Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarda, xususan, Braziliya, Germaniya, AQShda NNTlarni "ijtimoiy foydali" deb e'tirof etishda muayyan mezonlar belgilanmoqda [2, 192–196-b.].

XVI asrda Yevropada ilk marotaba xayriya tashkilotlari reyestri "Xayriya maqsadlari to'g'risidagi Statut" asosida belgilangan [3, 10-b.].

D. Moor tomonidan NNTlarini ijtimoiy foydali deb topish 6 ta asosni keltirilgan bo'lib, mazkur tartib-taomil davlat organi tomonidan muayyan huquqiy hujjat asosida mazkur maqomni e'tirof etish tartibi va unga belgilangan imtiyozlardan foydalanish tartibi tasnifi berilgan [4, 10-b.].

S.N. Nemgirova fikricha, NNTlarga mazkur maqomni berish hududlar barqarorligida asosiy o'rin egallaydi [5, 34-b.].

E.K. Guseynov to'g'ri ta'kidlaganidek, NNTlarning ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishi orqali ijtimoiy foydali deb topishi davlat organlarini katta hajmdagi ishdan ozod qiladi [6].

Xorij tajribasidan ma'lumki, homiylik va xayriya faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat

notijorat tashkilotlari faoliyati haqidagi ma'lumotlar bir qator bir-biridan mustaqil manbalarda e'lon qilinadi. Turli reyting agentliklari fondlar faoliyatini tahlil qilib ularning reytinglarini e'lon qilib boradi. Mazkur holat homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshiruvchilar uchun ham o'ziga xos hisobot vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy foydali deb topishda davlatlarning yondashuvini turlicha modellarga ajratish mumkin. Germaniya modeliga ko'ra, ijtimoiy foydali NNTlarga aniq imtiyozlar paketi Soliq kodeksida aniq tartibga solinadi [7, 126–130-b.].

Bolgariya modeliga ko'ra, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari kabi NTTlar muayyan qonunlar asosida ijtimoiy foydali deb e'tirof etiladi. Tabiiyki, mazkur maqomni qo'llashda turli tashkiliy-huquqiy shakllarga nisbatan turlicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi [8].

Mazkur yondashuvni tizimlashtirish maqsadida ijtimoiy foydali deb topish yagona qonun asosida (Vengriya tajribasi) amalga oshirilmoqda [9].

Aksariyat rivojlangan davlatlarda nodavlat sektorni ijtimoiy foydali deb e'tirof etish jarayonini tadqiq etgan olim D. Morris ta'kidlashicha, ijtimoiy foydali degan maqom jamiyat manfaatiga xizmat qilishi lozim. Turli davlatlardagi vakolatli organlar ijtimoiy foydali deb e'tirof etish bo'yicha komissiyalar 3 ta omil asosida mazkur maqomni taqdim etishi lozim: tashkilot jamiyatga aniq ko'rinib turgan, jamiyat a'zolari e'tirof etgan ijtimoiy foydani keltirishi kerak; ijtimoiy foydali bo'lish uchun yetarli darajada shaxslar guruhi mazkur ijtimoiy faoliyat natijasidan bahramand bo'lishi kerak. Ijtimoiy foydali faoliyat alohida shaxslarga qaratilganda to'liq tasodifiy xarakterga ega bo'lishi kerak. Bu narsa manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan [10].

Ijtimoiy foydali faoliyatni aniqlashda turli davlatlarda turlicha nisbatlar keltiriladi. Niderlandiyada nodavlat tashkilotni ijtimoiy foydali deb topishda tashkilot faoliyatining 50 % dan ortiq qismi ijtimoiy foydali hisoblanishi

lozim. Fransiyada tashkilotni ijtimoiy foydali deb e'tirof etish uchun tashkilot qonunda belgilangan ro'yxatdagi kamida 1 ta ijtimoiy xizmatni amalga oshirishi talab qilinadi [11].

Aksariyat davlatlarda "uchinchi sektor"ga ijtimoiy foydali maqomini soliq organlari taqdim etadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur maqomni taqdim etishda qonunchilikda tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakllariga e'tibor qaratmaydi. Daniya, Finlyandiya, Germaniya, Irlandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shvetsiya mazkur tartib asosida ish yuritadi. Daniyada soliq organlari har yil yakuniga ko'ra qaysi tashkilotni ijtimoiy foydali maqomiga ega tashkilotlar keng jamoatchilikka e'lon qilinadi.

Germaniyada ijtimoiy foydali maqomni mahalliy soliq organlari taqdim etadi va har 3 yilda bir marta tashkilotlarni ijtimoiy foydali predmetiga ko'ra tekshiruvdan o'tkazadi. Niderlandiyada ijtimoiy foydali deb topishning xabardor qilish tartibi o'rnatilgan bo'lib, mazkur protsedura yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqiy nizoning oldini olishga qaratilgan. Niderlandiyada ijtimoiy foydali deb e'tirof etishning asosiy ko'rinishi sifatida tashkilotning yillik hisobotlarini maxsus standartlar asosida ochiq e'lon qilishga qaratiladi [12, 19–25-b.].

Fikrimizcha, bu, ayniqsa, homiylik tashkilotning mazkur maqomga ega bo'lishi donor tashkilot va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'larini amalga oshirishda ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, soliq organlaridan tashqari mustaqil reyting tashkilotlarining, homiylik tashkilotlarining faoliyatini ochiq qilinishi va reytinglarini e'lon qilib borishi turli korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlarining oldini oladi.

Bolgariyada ijtimoiy foydali deb topish Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkilotining tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza topshirish orqali amalga oshiriladi. Agar Adliya vazirligi tomonidan ijtimoiy foydali maqomni berish rad etilsa, nodavlat tashkiloti Oliy Ma'muriy sudiga ma'muriy organ qarori yuzasidan shikoyat bilan murojaat qilishga haqli [13].

Fikrimizcha, ijtimoiy foydali maqomini taqdim etishga bitta organi vakolatli deb belgilash, keyinchalik nodavlat notijorat tashkilotlarini siyosiy motivlar bilan mazkur maqomdan mahrum qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli

Vengriya va Polshada ijtimoiy foydali maqomini berish va maxsus sertifikatlarini taqdim etish vakolati sud organlariga berilgan. Fransiyada ham mazkur vakolat Davlat kengashi – oliy ma'muriy sud organiga berilgan [14, 20-b.].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish hamda jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini inobatga olgan holda ularning faoliyatini baholash mezonlari va metodologiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur mezonlar xorij tajribasidan kelib chiqqan holda nodavlat notijorat tashkilotini ijtimoiy foydali deb topish va ijtimoiy foydalilik darajasini belgilashga qaratiladi.

**Ключевые слова:** заем, кредит, обязательство, гражданское право, исламское право, заемодатель, заемщик, проценты, форма договора.

## DEVELOPMENT OF LEGISLATION ON LOAN AGREEMENTS

**Khursanov Rustam Kholmuratovich,**

Acting Associate Professor of the Department of "Civil Law" of Tashkent State University of Law

**Abstract.** Considering that the current rules and procedures of loan contracts, business practices and legislation governing lending in the banking and financial sector do not provide for Civil code and meet the current requirements of the modern financial market, a loan contract has the following legal features: unilateral or bilateral, valid and agreed contract, contract concluded for free or for a fee. This description of a loan agreement is based on the terms and conditions of the contract and the requirements for lending and borrowing established by mutual agreement of the parties. In particular, if the parties to a loan agreement determine the lender's obligation to pay the loan amount in the future and agree to pay the loan amount with interest, a loan agreement of this content is consensual, bilateral (mutual) and equivalent. This credit contract is a real, unilateral and free agreement if it is made by means of a credit agreement between citizens and the loan amount is repaid without interest. The article analyses the history of the development of legislation on the legal regulation of debt contracts on the territory of Uzbekistan, the observance of contract terms in Avesto, as well as the regulation of debt relations in Islam. The author also puts forward proposals for improving national legislation by analyzing foreign legislation on the legal regulation of debt relations.

**Keywords:** loan, credit, obligation, civil law, Islamic law, lender, borrower, interest, contract form.

Qonunchilik darajasida qarz shartnomasining predmeti tarkibiga qimmatli qog'ozlar va chet el valyutasining kiritilishi ham bugungi zamonaviy moliya bozorining hamda fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasida shakllangan odatlardan kelib chiqadi. Zero sudlar tomonidan chet el valyutasida berilgan qarzlarni undirish bilan bog'liq da'vo ishlari ko'plab ko'rilayotgan bir sharoitda qonunchilikda bu masalaning belgilanmaganligi, ya'ni huquqiy bo'shliqning mavjudligi sudlar tomonidan aniq xulosalarni shakllantirishga imkon bermayapti. Bu masalaning yechimi sifatida esa qonunchilikda chet el valyutasida qarz berish mumkinligi qoidasini kiritish bilan bog'liqdir. Qimmatli qog'ozlarni qarzga berish ham aynan shu jihatlar bilan bog'liqdir. Zero, qimmatli qog'ozlar qarzga berilganda qarz oluvchi o'zining moliyaviy imkoniyatlarini undan olinadigan dividendi yoki uni sotish yo'li bilan yaxshilab olishi, keyinchalik kelishilgan muddat kelgach o'z moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilab olgan qarzdor shu turdagi qimmatli qog'ozni qaytarib berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ayni paytda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi.

Hozirda qarz shartnomasini tuzish va taraflarning huquq hamda majburiyatlarini belgilashda qarz tilxatidan foydalanish, shartnoma taraflarning manfaatlarini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati qarzni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb tusga ega. Aniq maqsadli qarzni qo'llash, banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan beriladigan qarzlarni berish tartibini soddalashtirish muhim o'ringa ega.

Bundan tashqari, mamlakatga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish hamda investitsiya jozibadorligini oshirish maqsadida islom banklari kreditlarini qo'llash uchun muayyan sharoit yaratish, fuqarolar o'rtasida foizsiz qarzni qo'llashga oid talablarni belgilash zarur bo'ladi. Bunda qarz oluvchi fuqaroning qarz summasini shaxsiy ehtiyojlari uchun zaruratdan olganida unga nisbatan foiz belgilash tartibini bekor qilish, tadbirkorlik uchun olingan qarz summasida esa foydadan ulush olish, foyda ko'rilmaganda esa qarzning o'zini qaytarish tartibotini belgilash bugungi kunda dolzarbdir.

Kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda azal-azaldan bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro yordam ko'rsatish, bir-biriga g'amxo'rlik qilish

kabi munosabatlar muayyan axloq-odob va insonga xos mehr-muhabbat ruhida shakllangan. Insonlarning bir-biriga o'zaro g'amxo'rliqi va yaqinligining hamda qo'llab-quvvatlashning turli ko'rinishlari va vositalari amal qiladi. Ana shunday vositalardan biri qarz hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida qarz arab tilidan olingan so'z ekanligi va u ma'lum muddat o'tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingan narsa sifatida tavsiflanadi.

Qarz berish va olishning diniy-axloqiy jihatlarini qadim zamonlardayoq kishilar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik, qarindoshlik va g'amxo'rlikning ifodasi bo'lib kelgan. Dastlab ana shu maqsadlarda shakllangan shartnomaviy munosabatlar vaqt o'tishi bilan takomillashib, o'zgarib tadbirkorlikning, boylik orttirish va foyda ko'rishning vositasi sifatida ham qo'llanilish darajasigacha yetib kelgan. Qarz berish savob uchun, beg'araz bajarilayotgan amaliyotdan foyda ko'rish, boylik orttirish faoliyati darajasigacha ko'tarilgan bo'lsa, qarz olish muhtojlikdan qutilish, moddiy ahvolini o'nglab olish chorasidan, aldash, firibgarlik yo'li bilan o'zgalarning puli va mulkini o'zlashtirish darajasidagi jinoyat darajasigacha yetib keldi. Bugungi jamiyat taraqqiyotida qarzning mana shu ikki ko'rinishi, ya'ni ijobiy va salbiy ifodasi yetarlicha qo'llanilib kelinmoqda. Bu holat qonunchilikdagi mexanizmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, qarz beruvchi yoki qarz oluvchi tomonidan nohalol va g'irrom usullardan foydalanib ikkinchi tomonni asorat solishga intilish, huquqni qo'llash amaliyotida esa qarzning fuqarolik-huquqiy shartnoma yoki firibgarlik qilmishi ekanligi borasida aniq to'xtamlarning mavjud emasligi bilan bog'liq.

Zamon taraqqiyotining bugungi darajasi, insoniyatning ilk davridagi kabi "qarzdorlik"ni salbiy oqibat sifatida ko'radi, albatta. Lekin qarz vositasi iqtisodiyotni rivojlantirishga urinish, ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini kam foizli va qulay shartlar asosidagi qarz yordamida qo'llab-quvvatlash, foizsiz qarz yordamida kambag'allikni kamaytirishga urinishlar hozirda dunyoning deyarli barcha davlatlarida kengamal qiladi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga maqsadli qarz berish orqali ularning kasb va tirikchilik manbayi bo'lgan kichik tadbirkorlikni amalga oshirishlariga yo'l ochib berishga

urinishlari boshqa rivojlanayotgan davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham qo'llanilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo'nalishlarining "Yo'l xaritasi"ning "Moliya bozorlarini takomillashtirish va rivojlantirish" – deb nomlanuvchi 2.2-bandida "qarz qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish, ulushli va qarz instrumentlari orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonini soddalashtirish" hamda "xalqaro ilg'or amaliyotga muvofiqlashtirish maqsadida, jumladan, mikroqarz sohasidagi cheklolarni bekor qilishni nazarda tutgan holda, mikromoliyalashtirish jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni va me'yorlarni qayta qo'rib chiqish" nazarda tutilgan.

Shu bois, qarz shartnomasiga oid qonunchilikni rivojlanish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qarzga oid dastlabki qoidalar "Avesto" kitobida shakllangan. "Ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal" qat'iy rioya qilinmog'i lozim bo'lgan diniy va dunyoviy xatti-harakatlarning bosh sharti sifatida namoyon bo'lar edi. Bunday uch qoida nafaqat ruhiy-axloqiy tamoyil, balki o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy tamoyil sifatida namoyon bo'lar edi. Birinchi navbatda, mazkur uch talab o'zga shaxslarga zarar yetkazmaslik, ularning huquqlarini tan olish, lafzda turish kabi bugungi turmushda va qonunchilikda qo'llaniladigan atamalarga mos ravishda, insonning o'z sha'niga is-nod keltiradigan ishlardan, jumladan, birovga hasad qilishdavn, o'g'rilik, talonchilik, o'zgalarmoli-ni o'zlashtirishdan, zinoga berilishdan, birovning dilini og'ritishdan, hayvonlarni qiynash va o'ldirishdan o'zini tiyish, bergan so'zning ustidan chiqish, e'tiqodiga sodiq qolish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish kabi insoniy falizatlarni anglatgan [6, 29-b.].

Huquqshunos olim S.B. Boboqulovning fikri-cha, Avestodagi kishilarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida o'z ahdida turish, berilgan va'daning ustidan chiqish, qasamga sodiq bo'lish, savdo-sotiq ishlaridan majburiyat va shartnomalarga qat'iy amal qilish, omonatni,

ya'ni qarzni o'z egasiga vaqtida qaytarish kabi shartnomaviy munosabatlarning shakli va ayirboshlash turlari haqidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega [7, 7-b.]. Albatta, kishilarning o'z ahdida, bergan va'dasining ustida turishi shunchaki odat qoidasi sifatida emas, balki o'ziga xos muqaddas burch va qoida sifatida amalga oshirilgan.

H. Boboyev va boshqa olimlarning fikriga ko'ra, zardushtiylik iqtisodiy qonunlariga ko'ra ikki xil majburiyat tan olinadi. Birinchidan, tantanali ravishda qasam ichish – "varuna"ga ko'ra kishining biror iqtisodiy majburiyatni olishi yoki olmasligi tushunilgan. Ikkinchidan, bu bitim yoki shartnoma hisoblanib, bunga ko'ra tomonlar o'zaro manfaatdorlik nuqtayi nazaridan biron iqtisodiy munosabat to'g'risida kelishishgan [6, 33-b.]. Ko'rinib turibdiki, birinchi holatda bir tomonlama bitim haqida gap ketmoqda. Binobarin, bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun burchlar keltirib chiqaradi (FKning 103-moddasi). Shu ma'noda Avestodagi kishining muayyan iqtisodiy majburiyatni olish yoki olmasligi uning erk-irodasi bog'liq holatda amalga oshirilgan va bunda Avesto burchni majburan yuklashni belgilamagan. Ikkinchi holatda esa ikki tomonlama bitimlar, ya'ni shartnomalarni tuzish haqida gap bormoqda va u ham taraflarning o'zaro ixtiyoriy kelishuviga asoslangan. Ikkala holatda ham erk-irodani ifoda etish shakli qasam hisoblangan va ichilgan qasam ilohiy kuch sifatida ham dunyoviy, ham diniy oqibat bilan mustahkamlangan. Ya'ni dunyoviy jihatdan qasamni buzish muayyan bir mulkiy majburiyatning yuklatilishiga olib kelsa, diniy jihatdan qasamga amal qilmaslik og'ir gunoh hisoblangan va shu shaxs jamiyat tomonidan qoralangan.

Bitim va shartnoma shakli sifatida qasam va uning turlari ham Avestoda qat'iy belgilangan bo'lib, bu qasamlar bitim shakli bo'lishi bilan birga majburiyat bajarilishini ta'minlash usuli sifatida ham ahamiyatli hisoblangan. Xususan, "Vadidod"ning IV fargardida shartnomalarning bir-biridan farq qiluvchi quyidagi oltita turi belgilangan:

- birinchisi – so'z berib ahdlashish;
- ikkinchisi – qo'l siqib kelishmoqlik;
- uchinchisi – garovga qo'y tikib ahdlashuv;
- to'rtinchisi – garovga buqa qo'yish;
- beshinchisi – odamni garovga qo'yib bitishish.

Oltinchisi – serhosil yerdan dalani garovga qo'yib (qilinadigan) ahdlashuv turlari bor [3, 25-b.].

Mazkur ahdlashishning har biri turi o'ziga xos mulkiy va nomulkiy majburiyatlarni yuklagan. Bu esa, o'z navbatida, qasamni buzishga nisbatan o'ta qat'iy qoidalarining belgilanishi bilan bog'liqdir. Masalan, so'z qasamini buzishga nisbatan shunday qoida o'rnatilgan:

– Kimda-kim so'z qasamini buzsa, bu gunoh uchun giriftor bo'ladigan jazosining andozasi nechukdir?

Ahuramazda javob berdi:

– Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o'sha qasam bahosining olti yuzatasiga tengdir [1, 117-b.].

Ko'rinib turibdiki, qasamni buzish, ya'ni zimmasidagi majburiyatni bajarmaslik kishi uchun o'ta og'ir oqibatlarni keltirib chiqargan. Shu bilan birga, har bir ahdlashuv navbatdagi ahdlashuv bilan almashtirish orqali majburiyatni bajarmagan shaxs zimmasiga qo'shimcha burch yuklanishi mumkin bo'lgan. Avestoga ko'ra, kimda-kim so'z qasamini yolg'iz so'zning o'zi deb tasavvur etsa, uni qo'l qasami bilan tuzatishi va qo'l qasamining tovonini to'lashi kerak.

Qo'l qasamini qo'y qasami bilan tuzatishi va sigir qasamini uning o'rniga berishi kerak.

Sigir qasamini odam qasami bilan o'zgartirishi va uning o'rniga odam qasamini berishi kerak.

Odam qasamini ekin qasami bilan isloh qilishi va ekin qasamini uning o'rniga berishi kerak [1, 117-b.].

Albatta, Avestoda belgilangan majburiyatni o'zgartirish uslublari bugungi kunda majburiyatlarni yangilash ko'rinishlarida mavjud ekanligini ta'kidlash mumkin. Biroq Avesto zamonidagi majburiyatni bajarmagan shaxsga nisbatan o'ta qat'iy va og'ir, asoratga soluvchi shartlar asosida burchni yangilash uslubi bugungi kundagi insoniyat sivilizatsiyasi va kishilik jamiyatdagi mavjud qadriyatlarga mutlaqo mos kelmaydi. Shunga qaramasdan Avestodagi bir ahdlashuv buzilganda uni ikkinchisiga almashtirish bugungi kun fuqarolik huquqida boshqacha ko'irinishda mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Ya'ni zamonaviy fuqarolik huquqida majburiyatlarning yangilinishi bilan bekor bo'lishi (FKning 347-moddasi), qarzni

yangilab, qarz majburiyatiga aylantirish (FKning 742-moddasi) kabi usullar orqali bir majburiyat ikkinchisi bilan almashishi mumkin. Biroq bunda ikkala tomonning roziligi talab etiladi. Avestoda esa bir majburiyatning ikkinchisi almashtirilishi ko'pincha majburiyatni bajarmagan tarafning iltimosi va xohishidan kelib chiqqan. Agar majburiyatni bajarmagan shaxs bajarilmagan burchni navbatdagisi bilan almashtirishni istamasa, kreditorni buni talab qilmagan va, aksincha, Avestoda belgilangan jazo chorasini o'tash bilan cheklangan. Aks holda odatdagi so'z qasamini bergan kishi oxir-oqibatda eng og'ir qasam ekin qasamiga giriftor bo'lishi va buning uchun juda og'ir jazoni olishiga to'g'ri kelar edi. Shu munosabat bilan Avesto shartnoma munosabatlardagi zaif tomon huquqini himoya qilish maqsadida qarzdorga majburiyatni bajarmaganlik uchun ikkita variantni taklif qilgan. Birinchisi o'z qasamini (masalan, qo'y qasami) buzganligi uchun belgilangan jazoni o'tash yoki buzilgan qasamni o'rniga undan og'irroq shartlar asosida navbatdagi qasamni qabul qilish. Bu qarzdorning erk-irodasiga yoki uning mulkiy ahvoliga bog'liq bo'lgan. Agar qarzdorning mulkiy imkoniyati yetarli bo'lmasa, uning majburiyatlarini qarindoshlari bajarishi lozim bo'lgan yoki navbatdagi qasam unga va qarindoshlariga yuklangan.

Mutaxassislarining fikricha, qarz shartnomasi eng qadimiy shartnomalardan biri sanaladi [10, 2-b.]. Qadimgi Yunonistonda nexum formal bitim orqali tartibga solinadigan qarz kreditorga qarz summasini qaytarish bo'yicha majburiyatni bajarmagan qarzdor uchun og'ir oqibatlarni nazarda tutishi bilan ajralib turgan. Qarzdorda kreditorlar bilan hisob-kitob qilish imkoniyati bo'lmagan holatlarda, kreditor 60 kun mobaynida qarzdorni kishanbadn qilib ushlab turishi va bu vaqt ichida uch marotaba uni bozorida sotib yuborish huquqini qo'lga kiritgan. Agar qarzdorni hech kim sotib olmasa, kreditor uni qul qilib sotib yuborishi, hattoki uni o'ldirishi ham mumkin bo'lgan [8, 983–1028-b.]. Nexum shaklidagi qarz bo'yicha majburiyatni bajarmagan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan ushbu haddan tashqari shafqatsiz jazolar rim huquqida eramizdan avvalgi IV asrgacha, ya'ni kreditorning qarzdorni qullikka sotib yuborish yoki o'ldirish huquqini bekor qilgan va qarzdorni kishanband qilishni taqiqlagan

Peteliya qonuni qabul qilinishigacha amal qilgan (eramizdan avvalgi 326-yil) [15, 129-b.].

Islom huquqida qarz munosabatlariga yo'l qo'yilgan. Qarz berish islom shariatida ruxsat berilgan, mustahab amal sanaladi. Islom huquqining ikkinchi manbasi bo'lmish Sunnada qarz berishning fazilati haqida ko'plab hadislar keltirilgan. Ulardan birida Payg'ambar (s.a.v.)ning "qaysi bir musulmon bir musulmonga ikki marta qarz bersa, u go'yo bir marta sadaqa qilibdi" degan so'zlari keltirilgan [12, 347-b.].

Islomshunos olim S.A. Isxakovning yozishicha, "qarz" aslida arabcha so'z, lekin u majburiyatga aylanganidan so'ng islom adabiyotlarida "dayn" degan so'z bilan ifodalanadi.

Dayn – biron-bir shaxsga qarzga berilgan pul yoki oriyatga berilgan biror mulk bo'lib, u berilgan miqdori va qiymati bilan, ustiga hech qanday mukofotsiz o'z vaqtida qaytarilishi lozim.

Islom mujtahidlari daynga oid quyidagi qoidalarini ishlab chiqqanlar:

*birinchidan*, majburiyat egalariining ixtiyoriy roziliklari (ya'ni, qarz beruvchi va oluvchining o'zaro roziliklari) aks ettirilgan qarz shartnomasi islom huquqiga ko'ra guvohlar ishtirokida yozma yoki og'zaki shaklda tuziladi;

*ikkinchidan*, qarzni qaytarish muddati aniq qilib belgilanadi;

*uchinchidan*, majburiyat faqat qarzga berilgan pul yoki mulkning qarz oluvchi (*muqriz*) qo'lga o'tishi bilan paydo bo'ladi;

*to'rtinchidan*, qarzdorga berilgan muddat oxiriga etishi shart. Modomiki, qarzdorning bankrot (*mufli*) bo'lib qolganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q ekan, hech kim uni muhlatidan oldin qarzni to'lashga majbur qila olmaydi [9, 58-b.].

A.R. Raxmonovning fikricha, muayyan shaxs birovdan qaytarish sharti bilan olgan pul yoki mol qarz hisoblanadi, unda qarzdorlik muayyan hujjatlar bo'yicha yoki taraflar – qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan bitim bo'yicha vujudga kelishi mumkin. Shu bilan birga, islomda garovli va garovsiz qarz, muddatli va muddatsiz qarz farqlanadi. Islomda qarz berish ijobiy xislat hisoblanadi. Bu borada Muhammad (s.a.v.) shunday deganlar: Kimki mo'min odamga ikki marta qarz bersa, ularga bir marta sadaqa bergandek bo'ladi. Yana bir hadislarida: Kimki qiynalib qolgan bir insonga yengillik qilib bersa, Alloh taolo unga

dunyo oxirida yengillik qilib beradi, – deyilgan. Qarz majburiyatga aylangandan so'ng islom huquqida – “dayn” degan so'z bilan ifodalanadi. Dayn – biron-bir shaxsga qarzga berilgan pul yoki oriyatga berilgan biror mulk bo'lib, u o'z vaqtida berilgan miqdori va qiymati bilan ustiga hech qanday mukofotsiz qaytarishdir [13, 16-b.].

Islom huquqida foiz olish evaziga qarz berish taqiqlanadi va bu qat'iy, imperativ norma hisoblanadi. Islom qonunchiligining asosiy manbasi hisoblangan Qur'oni Karimda Allohga xush kelmaydigan eng og'ir gunohlardan biri sudxo'rlik, lixva (ribo) – berilgan qarz uchun foiz olish, bank va mijoz o'rtasidagi bank krediti shartnomasidan olinadigan bank foizlar, fuqarolik-huquqiy majburiyatni bajarish muddatini o'tkazib yuborganlik uchun foizlar olish hisoblanadi [4, 25-b.].

Islom huquqida o'zaro foiz olish bilan bog'liq bitimlarni tuzishga nisbatan taqiqni ayrim huquqshunos chetlab o'tishga harakat qilishgan. Xususan, mashhur islom olimi Muhammad Abdo (1849–1905) musulmonlarga foiz olishni nazarda tutadigan operatsiyalarda ishtirok etish imkonini beradigan fatvoni e'lon qilgan. U o'zining fatvosini fiqh (amaliy yurisprudensiya)ning oxirgi zarurat bo'lganda taqiqlangan ishga ham ruxsat berilishi prinsipi bilan asoslamochi bo'ladi. A. B. Filipsning fikricha, mazkur fatvoning xatoligi shundaki, “oxirgi zarurat hayot va o'lim to'g'risida so'z borgan hollarda amal qiladigan vaziyat bo'lib, u ishbilarmonlik operatsiyalarga hech qanday bog'liq hisoblanmaydi” [16, 171-b.].

Shundan kelib chiqib ko'plab mamlakatlarda an'anaviy Yevropa namunasidagi banklar bilan birga, Qur'oni Karimning bir qator suralarida, jumladan, “Al-Baqara” 2-surasi (275, 276, 278, 279-oyatlar), “Ol-Imron” 3-surasi (130-oyat), “Al-Rum” 30-sura (39-oyat) va boshqalarda nazarda tutilgan imperativ cheklov asosida ish olib boradigan islom banklari amal qiladi.

Ta'kidlash o'rinliki, riboga qarshi asosiy dalil, qarzga olingan summadan foydalanuvchi har doim ham foyda ololmasligi va shu bois ham u foiz to'lamasligiga oid oddiy mantiq hisoblanadi. Foizsiz kredit berish faoliyatini amalga oshiruvchi islom banklari o'tgan asrning 60 va 70-yillarida Pokiston, Misr va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan. Ular barcha bank operatsiyalari – depozitli, akkreditivli, ssudali operatsiyalarni

amalga oshirish, qishloq xo'jaligi, savdo, sanoat, ijtimoiy loyihalar bilan shug'ullanish orqali yirik tadbirkor-investorga aylanishgan [11, 38-39-b.]. Bunda musulmonlar bankka pul mablag'larini omonatga qo'yishgan va banklar ularga foizsiz qarz berishgan.

Bugungi kunda islom mamlakatlarida o'rtacha 8 ta yoki undan ko'proq islom banklari amal qiladi. Yirik islom banklari sifatida Baxrayn Islom banki, Brunej Islom taraqqiyoti banki, Misrdagi Arab investitsiya banki va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bundan tashqari, islom banklari Germaniya (Al-Baraka investitsiya kompaniyasi, Frankfrt shahri), Lyuksemburg, Buyuk Britaniya va AQShda amal qiladi [2].

Shariat talablari asosida bitim tuzishni istaydigan omonatchilarning talablariga binoan Birlashgan Arab Amirliklarida 2001-yil aprel oyidan boshlab Sharja Milliy Banki islom banki maqomiga o'tdi. Islom davlatlarida fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlari uchun qarz agar haqiqatda qarz oluvchining ehtiyoji mavjud bo'lsa va u kelgusida gunohlar va sudxo'rlikni keltirib chiqarmasa beriladi [5, 26-b.].

O'zbekiston Respublikasida qarz shartnomasiga oid qoidalarni belgilashda ehtiyotkorlik bilan yondashuv bo'lganligini kuzatish mumkin. Jumladan, islom huquqi amal qiladigan mamlakatimizda o'tmishda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda qarz uchun foiz olish qo'llanilmagan. Masalan, Sadridin Ayniyning “Doxunda” romanida qarz shartnomasini tuzishga oid quyidagi epizod keltirilgan: 1325 hijriy sanasi tarixida, rajab oyida soqolli chol bo'yi o'rta yuzi bug'doy rang qo'y ko'zli Avezmurod o'g'li Bozorboy Sarijo'y qozixonasida hozir bo'lib, iqrori shariaticha to'g'ri bo'lgan holda “Men iqrori qilguvchi Rahimshoh o'g'li mulla Azimshohdan 850 Buxoroyi sharif (xudo o'z panohida asrasin) tangasi qarzdor bo'ldim va har qachonki, mendan talab qilinsa, mazkur mablag'ni islom qozisi oldida mazkur qarz berguvchiga to'layman” deb iqror qildi va bu voqea bir jamoa musulmonlar hozir bo'lib turgan holda yuz berdi [14, 34-35b.].

Fuqarolar o'rtasida qarz munosabatlarida foiz olish 1997-yil 1-martdan boshlab kuchga kiritilgan FKda nazarda tutildi. Agar pul mablag'larini qarz va kreditga berish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari o'rta-

sida qarz berish har doim foiz evaziga amalga oshirilgan bo'lsa, fuqarolar o'rtasida foizli qarz faqat shartnomada belgilangan hollarda qo'llaniladi [17–19].

Bundan tashqari, qarz shartnomasining bir ko'rinishi sifatida kredit shartnomasida, hattoki nasiya tovar sotishda ham foiz olish amaliyoti joriy etilgan. Jumladan, FKning 744-moddasida kredit shartnomasi bo'yicha qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini olishi nazarda tutilgan bo'lsa, 421-moddasi beshinchi qismida oldi-sotdi shartnomasida sotib oluvchining sotuvchi tomonidan tovar topshirilgan kundan boshlab tovar bahosiga teng bo'lgan summa uchun foizlar to'lash majburiyati nazarda tutilishi mumkinligi belgilangan. Qarz bilan bog'liq huquqi asoslarning rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasining "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunni ham kiritish mumkin. Mazkur qonunda mikroqarz berish bo'yicha mikrokredit tashkilotlarining huquq va majburiyatlar, mikroqarz shartnomasini rasmiylashtirishga nisbatan talablar va qoidalar belgilangan [20].

Qarz shartnomasi narsasi sifatida chet el valyutasi va qimmatli qog'ozlar e'tirof etilishiga oid qoidalar Rossiya Federatsiyasi Grajdanklik kodeksi 807-moddasida belgilangan bo'lib, ular bugungi bozorning real talablaridan kelib chiqib belgilangan hamda amalda keng qo'llanilib kelinmoqda. Masalan, banklar tomonidan berilayotgan mikroqarz shartnomasida bank mikroqarz berish majburiyatini zimmasiga oladi, chunki mikroqarz shartnomasi mijoz bankka murojaat qilishi bilan darhol berilmaydi, balki shartnoma tuzilganidan keyin ma'lum bir muddat

o'tganidan so'ng taqdim etiladi. Qolaversa, chet el valyutasida qarz berish ham bugungi kunda fuqarolar o'rtasida juda ommalashgan. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari uchun qarz olish bo'yicha shartnoma tuzish va uning bajarilishiga umid qilish bu tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiliklarning belgisidir. Lekin amaldagi FKning 732-moddasida ushbu jihatlarning birortasi inobatga olinmagan. Shu sababli mazkur moddani yuqorida taklif etilgan tahrirda qabul qilinishi sanab o'tilgan muammolarni hal qilishda ijobiy samara beradi. Yuqorida sanab o'tilgan mazkur omillarning barchasi qarz shartnomasining tushunchasi va uni tuzish amaliyotini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli qarz shartnomasiga nisbatan FKning 732-moddasida nazarda tutilgan qoidalarini o'zgartirish lozim bo'ladi. Fikrimizcha, ushbu moddani quyidagi tahrirda belgilash maqsadga muvofiq:

Qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul, turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni yoki *qimmatli qog'ozlarni* mulk qilib beradi yoki *berish majburiyatini oladi*, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni (qarz summasini), qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni yoki *shunday qimmatli qog'ozlarni* qaytarib berish majburiyatini oladi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, qarz shartnomasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va qarz shartnomasini tuzish hamda amalga oshirishni rasmiylashtirish tartibini soddalashtirish, qarz narsasi bo'lgan obyektlar sonini oshirish zarur.

## REFERENCES

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. A. Mahkam tarjimasi [Avesto. Historical and literary monument. Translation by A. Mahkam]. Tashkent, Sharq, 2001, p. 117.
2. Islami Bank Bangladesh. Available at: <http://islamibankbd.com/>.
3. Avesto: "Videvdot" kitobi. M. Ishoqov tarjimasi [Avesto: The Videvdot book. Translated by M. Ishakov]. Tashkent, Tashkent State Institute of Oriental Studies, 2007, p. 25.
4. Ahkubekova J.D. Nekotorye voprosy, svyazannye s osobennostyami regulirovaniya obyazatelstv s uchastiem islamskih bankov [Some questions related to the peculiarities of regulation of obligations with the participation of Islamic banks]. *Biznes v zakone – Business in law*, 2012, no. 6, p. 25.

5. Madumarov T.T. Mikroredit tashkilotlarining faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yurid. fan. dokt. dis. avtoref. [Civil law regulation of microcredit organizations]. Tashkent, 2019, p. 19.
6. Boboyev H., Do'stjonov T., Hasanov S. "Avesto" – Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi [The Avesto is a priceless monument of the peoples of the East]. Tashkent, TMI, 2004, p. 29.
7. Boboqulov S.B. Ijara munosabatlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari va bozor iqtisodiyoti sharoitida ijara shartnomasi konstruksiyalarini tabaqalashtirish muammolari [Historical stages of development of lease relations and problems of stratification of lease agreements in a market economy]. Tashkent, TSUL, p. 7.
8. Didenko A.A. K voprosu o strahovanii finansovyh i predprinimatelskih riskov [On the issue of insurance of financial and business risks]. Politematicheskij setevoy elektronnyj nauchnyj zhurnal Kubanskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta – Polythematic network elektron scientific journal of the Kuban State Agrarian University, 2014, no. 96, pp. 983-1028.
9. Isxakov S.A. Islom fuqarolik huquqi asoslari. O'quv qo'llanmasi [Fundamentals of Islamic Civil Law. Study guide]. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi – IIV Academy of the Republic of Uzbekistan, 2005, p. 58.
10. Kolomiec E.A. Osobennosti obyazatelstva zayma v sisteme finansovyh obyazatelstv [Features of a loan obligation in the system of financial obligations]. Nauchnyj jurnal KubGAU – Scientific journal of the Kuban State Agrarian University, 2015, no. 105 (01), p. 2.
11. Makarova S.M. Sovremennaya ekonomicheskaya doktrina islama: nauchno-analiticheskij obzor [Modern Economic Doctrine of Islam: Scientific and Analytical Review]. AN SSSR INION, 1983, pp. 38–39.
12. Shavkoniy M. Naylul avtor min ahodisi sayyidil axyor – Payg'ambarimizning hadislaridan ko'zlangan maqsadga yetishish [Achieving the goal of the hadiths of our Prophet]. Vol. 5. Lubnon, 1973, p. 347.
13. Raxmanov A.R. Islom huquqida shartnoma va majburiyatlar hamda milliy qonunchilik. Tarix fan. dokt. dis. avtoref. [Contracts and obligations in Islamic law and national legislation]. Tashkent, 2008, p. 16.
14. Ayniy S. Asarlar. Sakkiz tomlik. Ikkinchi tom. Doxunda. Roman [Works. Eight volumes. The second roof.]. Tashkent, Goslitizdat, 1964, pp. 34-35.
15. Tanaga A.N. Vozniknovenie strahovogo obyazatelstva [Occurrence of insurance liability]. Vlast Zakona – The rule of the law, 2014, no. 1 (17), p. 129.
16. Filips A.B. Evolyucija fikha. Islamskij zakon i mazhaby [The evolution of fiqh. Islamic law and madhhabs]. Moscow, Umma, 2012, p. 171.
17. Abdullaev M.K. Dogovor zayma v grajdanskom prave Rossii: teoriya i praktika pravovogo regulirovaniya. Avtoref. dis. kand. jurid. nauk [Loan agreement in Russian civil law: theory and practice of legal regulation. Abstract of the thesis. dis. Cand. jurid. sciences]. Rostov-on-Don, 2006, pp. 6-7.
18. Gritsay N.V. Zaemnye obyazatelstva v grajdanskom prave. Avtoref. dis. kand. jurid. nauk [Debt obligations in civil law]. Moscow, 2010, p. 3.
19. Zinkovskiy M.A. Konstitutsionnye osnovy denezhnogo obrashheniya v Rossiyskoj Federacii [Constitutional foundations of monetary circulation in the Russian Federation]. Vlast zakona– The rule of the law, 2014, no. 1, p. 89.
20. Madumarov T.T. Mikroredit tashkilotlarining faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yurid. fan. dokt. dis. avtoref. [Civil law regulation of microcredit organizations]. Tashkent, 2019, p. 19.

UDC: 330.322.(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0001-9764-8441

## INVESTITSIYA FONDLARINI TASHKIL ETISH VA ULARNING FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH BO'YICHA AQSH TAJRIBASI

**Jumag'ulov Alisher Ernapasovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
"Biznes huquqi" kafedrası katta o'qituvchisi  
e-mail: alisher.jumagulov@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada dunyoning moliyaviy markazlaridan biri bo'lgan AQShda investitsiya fondlarining paydo bo'lish tarixi, investitsiya fondlariga oid qonunchilikning vujudga kelishi va investitsiya fondlari faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni tahlil qilinadi. Dunyoda ilk ochiq investitsiya fondi AQShda tashkil etilgan bo'lib, u hozirgi kunga qadar muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. 1940-yilda qabul qilingan "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi Qonun investorlar huquqlari mustahkam himoya qilib, investitsiya fondlarining taraqqiyotiga yo'l ochdi. Maqolaning birinchi qismida AQSh investitsiya fondlarining vujudga kelish tarixi yoritib beriladi. AQSh investitsiya fondlari 100 yillik tarixga ega bo'lsa-da, ularning taraqqiyoti 1970-yillarga to'g'ri keladi. Maqolaning ikkinchi qismida investitsiya kompaniyalarining mohiyati, ularning zaruriy belgilari bayon qilinadi. AQSh qonunchiligi muayyan kompaniyani investitsiya kompaniyasi deb topish uchun qat'iy talablarni belgilaydi. Maqolaning uchinchi qismida faoliyati tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan investitsiya kompaniyalari tahlil etiladi. AQShda investitsiya fondlari turfa xil bo'lib, barcha toifadagi investorlarning manfaatlariga xizmat qiladi. Maqolaning xulosa qismida esa investitsiya fondlarini tashkil etish va ularning faoliyatini huquqiy tartibga solish bo'yicha AQSh tajribasining ijobiy jihatlari qayd etib o'tilgan va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya fondi, investitsiya kompaniyasi, yunit-trastlar, tartibga solinadigan investitsiya kompaniyasi, tartibga solinmaydigan investitsiya kompaniyasi, xedj fondlar, xususiy investitsiya fondlari, malakali investor, chakana investor.

### ОПЫТ США В СОЗДАНИИ И ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ФОНДОВ

**Жумагулов Алишер Эрнапасович,**  
старший преподаватель кафедры "Бизнес-право"  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье анализируется история инвестиционных фондов в США, одном из мировых финансовых центров, появление законодательства об инвестиционных фондах и содержание нормативных правовых актов, регулирующих деятельность инвестиционных фондов. Первый в мире открытый инвестиционный фонд был создан в США и успешно работает по сей день. Закон "Об инвестиционных компаниях", принятый в 1940 году, надежно защитил права инвесторов и проложил путь для развития инвестиционных фондов. В первой части статьи освещается история становления инвестиционных фондов США. Несмотря на то, что инвестиционные фонды США имеют 100-летнюю историю, их развитие восходит только к 1970-м годам. Во второй части статьи описывается сущность инвестиционных компаний, их необходимые характеристики. Законодательство США устанавливает строгие требования для поиска той или иной компании в качестве инвестиционной. В третьей части статьи анализируются регулируемые и нерегулируемые инвестиционные компании. Инвестиционные фонды в США разнообразны и служат интересам всех категорий инвесторов. В заключительной части статьи освещаются положительные аспекты опыта США в создании инвестиционных фондов и

регулирования их деятельности, а также вносятся предложения по совершенствованию национального законодательства.

**Ключевые слова:** инвестиционный фонд, инвестиционная компания, паевые инвестиционные фонды, регулируемая инвестиционная компания, нерегулируемая инвестиционная компания, хедж-фонды, частные инвестиционные фонды, квалифицированный инвестор, розничный инвестор.

## USA EXPERIENCE IN THE ORGANIZATION AND LEGAL REGULATION OF INVESTMENT FUNDS

**Jumagulov Alisher Ernapasovich,**

Senior lecturer of the Department of Business law of Tashkent State Law University

**Abstract.** The article analyzes the history of investment funds in the United States, one of the world's financial centers, the emergence of legislation on investment funds and the content of regulations governing the activities of investment funds. The world's first open-end investment fund was established in the United States and has been operating successfully to this day. The Law on Investment Companies, adopted in 1940, strongly protected the rights of investors and paved the way for the development of investment funds. The first part of the article describes the history of the formation of US investment funds. Although U.S. investment funds have a 100-year history, their development dates back to the 1970s. The second part of the article describes the essence of investment companies, their necessary characteristics. U.S. law sets strict requirements for finding a particular company as an investment company. The third part of the article analyzes regulated and unregulated investment companies. Investment funds in the United States are diverse and serve the interests of all categories of investors. The concluding part of the article highlights the positive aspects of the US experience in establishing investment funds and the legal regulation of their activities and makes suggestions for improving national legislation.

**Keywords:** investment fund, investment company, unit trusts, regulated investment company, unregulated investment company, hedge funds, private investment funds, qualified investor, retail investor.

### Kirish

Bugungi kunda AQSh dunyo investitsiya fondlarining soni va ularning aktivlari hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. 2020-yilda AQSh investitsiya fondlari aktivlarining umumiy hajmi 23,9 trillion dollarni tashkil etgan [1]. Shu bois anglo-sakson huquq tizimida investitsiya fondlariga oid huquqiy tartibotlarni tahlil qilish foydadan xoli emas.

### Asosiy qism

AQShga investitsiya fondlari instituti Yevropadan kirib kelgan bo'lib, yuz yildan oshiqroq tarixga ega. Dastlabki paytlarda investitsiya fondlarining faoliyati xavf-xatarsiz bo'lmagan. O'sha davrlarda ham ba'zi firibgarlar investitsiya fondlaridan insonlarni aldash vositasi sifatida foydalanган. Bunday firibgarlar to'zog'iga investorlarning ilinmasligi uchun 1899-yilda AQShda birinchi investitsiya-maslahat kompaniyasi tashkil etildi, ushbu kompaniya mayda investorlarga iqtisodiyotning qaysi sohalariga o'z jamg'armalarini investitsiya qilishlari to'g'risida maslahat berar edi. Moliyaviy-konsalting kompaniyalari faoliyatining rivojlanishi investitsiya fondlarining paydo bo'li-

shi uchun moliyaviy xizmatlar bozorini tayyorladi [2, 52-b.]. Ushbu kompaniyalar bosqichma-bosqich kichik xususiy investitsiyalardan ko'ra jamoaviy investitsiyalar bilan ishlashni afzal bila boshladi. Natijada mayda xususiy investitsiyalar bir portfelga jamlangan jamoaviy investitsiyalarga aylandi.

AQSh investitsiya fondlarining taraqqiyo-ti to'rt bosqichni qamrab oladi. Birinchi bosqich 1893-1933-yillarda bo'lib, bu davr investitsiya fondlarining paydo bo'lish davri hisoblanadi. Zamonaviy yopiq investitsiya fondlarining dastlabki ko'rinishi ham 1893-yilda AQShda paydo bo'lgan. Ushbu investitsiya fondi The Boston Personal Property Trust deb nomlanib, jahonga mashhur Garvard universiteti professor-o'qituvchilari va xodimlarining mablag'larini joylashtirish uchun tashkil etilgan. Birinchi ochiq investitsiya fondi 1924-yilda AQShning Massachusetts shtatida tashkil etilgan. Massachusetts Investors Trust aksiyadorlarni aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatini olgan [3, 15-b.]. Ushbu fond bugungi kungacha muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Olimlar hozirgi zamonaviy investitsiya fondlarining tarixini ushbu yildan boshlangan

deb hisoblaydilar. Shu sanadan boshlab, AQShda investitsiya fondlarining soni keskin oshib ketdi. 1929-yilda AQShda 19 ta ochiq investitsiya fondi va 700 ga yaqin yopiq investitsiya fondlari faoliyat yuritgan. Bu davr aholining ushbu investitsiyalash usuliga ishonchsizligi, davlat nazoratining yetarli emasligi, investitsiya fondlari mansabdor shaxslarining o'z mansablarini suiiste'mol qilishi bilan tavsiflanadi. Buyuk turg'unlik davrining kirib kelishi ko'plab ishlab turgan investitsiya fondlarining faoliyatiga chek qo'ydi. 1929-yilgi AQShdagi moliyaviy inqiroz moliya qonunlarning asosini yaratishga imkon berdi. Mazkur qonunlar tufayli AQShda bank va investitsiya faoliyati bir-biridan ajraldi [4, 360-b.]. Bu bo'linishning natijasi shundan iborat ediki, yuqorida qayd etilgan AQSh qonunlari qabul qilingach, "investitsiya xizmatlari" kategoriyasi investitsiyalarni (birinchi navbatda, pul kapitali shaklida) qimmatli qog'ozlarga joylashtirish bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatishni nazarda tuta boshladi. Ko'p yillar davomida AQSh moliyaviy xizmatlari bozorini tartibga solish asosini yaratib bergan Glassa-Stigolla qonuni 1933-yilda qabul qilindi. Unda tijorat banklari va investitsiya kompaniyalari faoliyatiga oid qator cheklovlar nazarda tutilgan. Xususan, ushbu qonun:

- banklar amalga oshirishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining juda cheklangan ro'yxatini tuzdi;
- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklarning filiallarini tashkil etish amaliyoti taqiqlandi;
- qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarga omonatlarini qabul qilish, cheklar va shu kabi bank operatsiyalari turlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish taqiqlandi.

Shu davrdan boshlab, AQShda investitsiya kompaniyalari jadal rivojlanib, tijorat banklari bilan raqobatlasha boshladi. Tadqiqotchi O. Narziyev AQShda fond bozorida bank muassasalari bilan bir qatorda boshqa investitsiya institutlari va moliyaviy uyushmalar va turli jamg'armalar faol ishtirok etishini qayd etadi [5, 34-b.].

Jamoaviy investitsiyalash taraqqiyotining ikkinchi bosqichi 1933–1945-yillarga to'g'ri keladi. Bu davr investitsiya fondlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi bilan tavsiflanadi. 1933-yilda qimmatli qog'ozlarni emissiya qiluv-

chilarning faoliyatini tartibga soluvchi "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Uning izidan 1934-yilda "Qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, Qimmatli qog'ozlar va birja bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya qimmatli qog'ozlarni bozorini nazorat qilish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. Komissiyaning vazifasi etib qimmatli qog'ozlar bozorida insofli raqobatni qo'llab-quvvatlash orqali investorlarning huquqlarini himoya qilish belgilandi. Bu masaladagi uchinchi eng asosiy normativ-huquqiy hujjat 1940-yilda qabul qilingan "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi Qonun bo'ldi. Jeyson Zveg ushbu qonunni dunyodagi eng mukammal qonun deb ataydi [6]. Ushbu qonun investitsiya fondlarining tashkil etilish jarayonini tartibga soladi. Mazkur qonunlar investitsiya fondlari faoliyatini tartibga solish jarayonini yaxshilagan bo'lsa-da, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi investitsiya fondlarining jadal rivojlanishiga to'sqinlik qildi [7].

Uchinchi bosqich 1950–1980-yillarga to'g'ri keladi va bu davr investitsiya fondlari aktivlarining o'sishi bilan tavsiflanadi. 1950-yillarning boshida harakatdagi investitsiya fondlarining soni 100 taga yetadi va keyingi ikki o'n yillikda ularning soni oshishda davom etdi. 1960-yillarda investitsiya fondlari o'z aktivlarining 80 foizini aksiyalarga investitsiya qilgan. 1973–1974-yillardagi fond bozorining inqirozi va yuqori inflatsiya investorlar mablag'larining qimmatli qog'ozlar bozoridan chiqib ketishiga olib keldi. Investitsiya fondlarining keyingi taraqqiyoti sohaga innovatsiyalarni joriy etishni talab qildi, buning natijasida yangi turdagi investitsiya fondlari paydo bo'ldi.

Investitsiya fondlari taraqqiyotining to'rtinchi bosqichi 1980-yillarning o'rtalaridan boshlanib, bugungi kungacha davom etmoqda. 1980-yillarning o'rtalarida AQShda imtiyozli soliqqa tortish shartlarida korporativ jamg'armalar va yakka jamg'arilib boruvchi pensiya hisobraqamlarini ochishga ruxsat beruvchi qonun qabul qilindi. Kompaniyalar o'z xodimlari ish haqlarining muayyan qismini investitsiya fondlariga o'tkazadi va investitsiya fondlari ushbu mablag'larni istiqbolli biznes rejalarga yo'naltiradi. Bundan tashqari investitsiya fondlariga juda katta mablag'lar pensiya hisobraqamlari orqali kirib keldi. Investitsiya fondlari AQSh iqtisodiyoti va qimmatli qog'ozlar bozorining taraqqiyotida muhim rol

o'ynaydi. Ushbu fondlar AQShga jahon moliyasi-da hukmron mavqega erishishga ko'mak berdi. 2015-yil ma'lumotiga ko'ra, AQShda 91 million xususiy investorda ochiq investitsiya fondlarining aksiyalar bor. AQShda uchdan bir qism amerikaliklarning hisoblari nobank moliya-kredit institutlarida saqlanadi. Aktivlarning qiymatlari sezilarli darajada ortib bormoqda [8, 4-b.] Fidelity Investments, Vanguard, BlackRock, State Street Corporation kompaniyalari jahondagi eng yirik investitsiya fondlari hisoblanadi. Fidelity Investments investitsiya fondi AQShdagi barcha yirik korporatsiyalarning 10 foizida aksiyador hisoblanadi. Qolgan 3 ta investitsiya fondlari "Katta uchlik" deb ataladi va ular birgalikda AQShdagi barcha aksiyadorlik jamiyatlarining 40 foizi aksiyasiga egalik qiladi. S&P 500 indeksi AQShning 500 ta eng qimmat va daromadli kompaniyalarini o'z ichiga oladi. AQShda fond bozori juda rivojlangan bo'lsa-da, chakana investorlar o'zlari to'g'ridan to'g'ri qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilmaydilar. Bozorning murakkabligi, yangi kompaniyalarning moliya bozoriga tez-tez kirib kelishi chakana investorlarni investitsiya fondlariga murojaat qilishga undaydi. Shuningdek, AQShda fond bozori shunchalik rang-barangki, unda har kuni IPO amalga oshiriladi

AQSh investitsiya qonunchiligining yana bir jihati shundaki, investitsiya faoliyati AQShda moliyaviy xizmatlarning alohida turi sifatida ajralib chiqqan. Nazarimizda, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun eng kerakli voqelikdan biri bu – investitsiya xizmatlarining moliyaviy xizmatlarning alohida turi sifatida ajralib chiqishidir. Investitsiya xizmatlari, ushbu xizmatlar mazmuni, ularni ko'rsatuvchi subyektlar doirasi qonunchilikda aniq belgilanmagan bo'lsa-da, kundalik hayotda nomaqbul subyektlar tomonidan ushbu xizmatlarning ko'rsatilayotganligini tez-tez uchratish mumkin. Investitsiya faoliyati professional faoliyat hisoblanib, investitsiya kompaniyalarigina investitsiya fondlarini tashkil etishi mumkin.

AQShning "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi Qonunining 3-bo'limiga ko'ra, investitsiya kompaniyasi bu qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va oldi-sotdi qilish faoliyatining asosiy turi bo'lgan, nominal qiymatli sertifikatlar chiqarish bilan shug'ullangan, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar jami aktivlarning 40 foizdan oshadigan

emitentdir. Quyidagilar investitsiya kompaniyalari hisoblanmaydi [9].

- ommaviy taklif etilmaydigan qimmatli qog'ozlar va benefitsiar egalari 100 ta shaxsdan kam bo'lgan qimmatli qog'ozlarning emitentlari;
- anderrayter, broker yoki professional moliyaviy vositachi, bank, sug'urta kompaniyasi, bank tomonidan boshqariladigan yopiq trastlar;
- ko'chmas mulkni moliyalashda ishtirok etuvchi agentlar;
- qimmatli qog'olariga malakalari investorlar egalik qiladigan emitentlar.

AQSh qonunchiligida ham brokerlar va jamoat xayriya fondlari investitsiya kompaniyalari hisoblanmaydi. AQSh amaliyotida xususiy investitsiya kompaniyalari degan tadbirkorlik subyektlari ham mavjud. Biroq, u investitsiya fondi sifatida qabul qilinmaydi. Yuqoridagi tuzilmalar ham kapitallarni jamlagan bo'lsa, ham investitsiya fondi hisoblanmaydi.

1940-yilgi Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun investitsiya kompaniyalarini uch guruhga bo'ladi:

1) Nominal qiymatga ega bo'lgan sertifikatlar chiqaruvchi va ularni saqlovchilarga sertifikat muddati o'tishi bilan uning nominal qiymatini to'lash kafolatini beruvchi investitsiya kompaniyalari: ushbu investitsiya kompaniyadan investor muayyan vaqt o'tgandan keyin foydani talab qilishi yoxud muayyan muddatda sertifikatni qaytarib sotib olishini talab qilish mumkin.

2) Muayyan qimmatli qog'ozlardan foyda olishni ta'minlaydigan, qaytarib sotib olinadigan sertifikatlar chiqaruvchi investitsiya yunit-trastlar: ushbu turdagi investitsiya kompaniyasi qat'iy foydani va'da qilmaydi, investitsiya ulushlardan paydo bo'lgan foizlarni to'lab beradi.

3) Yuqoridagi ikki turga kirmaydigan boshqaruvchi investitsiya kompaniyalari [10, 10-b.].

O'zi chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotib olish xususiyatiga ko'ra boshqaruvchi kompaniyalar ochiq va yopiq investitsiya kompaniyalarga (open-end fund va closed-end fund) bo'linadi. Ochiq investitsiya fondlari (mutual funds) o'zi chiqargan qimmatli qog'ozlarni investorning birinchi talabi bilan sof aktiv qiymatida sotib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Ushbu turdagi fondlar AQShda eng ko'p tarqalgan fondlar hisoblanadi. Yopiq investitsiya fondlari esa o'zi chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotib qaytarib sotib olish majburi-

yatini olmaydi, biroq investor ushbu qimmatli qog'ozlarni ikkilamchi bozorda sotishi mumkin.

AQShda investitsiya kompaniyalari o'z qimmatli qog'ozlarini kimga taklif etishiga qarab ikki katta guruhga bo'linadi. Bu ikki guruh tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan kompaniyalar ham deb nomlanadi [11, 4-b.]. Birinchi guruhga o'z qimmatli qog'ozlarini cheklanmagan doiradagi chakana investorlarga ommaviy taklif etuvchi investitsiya kompaniyalari bo'lib, ularning faoliyat qat'iy nazorat qilinadi hamda ularga nisbatan qat'iy talablar bor. Ular o'zaro fondlar (mutual funds) sifatida mashhur bo'lgan. Bunday kompaniyalar faqatgina qimmatli qog'ozlar bozoridagina harakat qilishlari va listingga kirgan kompaniyalarning aksiyalarini sotib olishlari mumkin. Aynan shunday kompaniyalar 1940-yildagi "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida" Qonunning tartibga solish doirasiga kiradi. "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida" Qonunning nazorati Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruvchi kompaniya ustidan nazoratni depozitariy zimmasiga yuklash Yevropa ochiq aksiyadorlik investitsiya fondlari amaliyotiga xos. Bundan farqli ravishda, AQShda investitsiya fondlarining aktivlarini saqlovchi bank-depozitariylar boshqaruvchi kompaniyaning investitsiya fondi mulkini tasarruf etishi bilan bog'liq faoliyatini nazorat qilmaydi [12, 17-b.].

Ikkinchi guruhdagi investitsiya kompaniyalari esa o'z xizmatlarini malakali va institutsional investorlarga taklif etadi. Bunday investitsiya kompaniyalari xususiy investitsiya fondlari, venchur fondlar va xejd fondlarni tashkil etishi mumkin. Birinchi xedj fondi 1949-yilda AQShda tashkil etilgan [13]. Ushbu investitsiya kompaniyalarining faoliyati "Investitsiya maslahatchilari to'g'risida" Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu kompaniyalar va ularning investorlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro shartnoma shartlariga binoan tartibga solinadi. Venchur fondlar, xususiy investitsiya fondlari va xedj fondlarning qimmatli qog'ozlari ommaga taklif etilmaganligi, uning investorlari fond bozorida bilim va malakaga ega bo'lganligi, o'zi himoya qila olishi tufayli davlat talablarni mazkur fondlarga emas, balki uning boshqaruvchi kompaniyasiga qo'yadi. Shu bois, mazkur fondlarni tashkil etadigan investitsiya kom-

paniyalari faoliyat "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinmaydi. Mazkur fondlar investitsiyalash borasida yuqori tavakkallik asosida qarorlar qabul qiladi. Jumladan, ular listingga kirmagan yoki yangi tashkil etilgan yoxud bankrotlik yoqasidagi, shuningdek muayyan iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan kompaniyalarning ulushlarini sotib olib, yuqori tavakkalchilika yo'l qo'yishlari mumkin.

Xedj fondlari quyidagilarni amalga oshirishlari mumkin:

investitsiya maslahatchilariga fondni boshqarganligi uchun mukofot pullari natijaga qarab to'lash;

sof aktivlarning yarmi miqdorida qarz majburiyatlarini jalb etish, sof aktivlarning 2 barovari miqdorida tavakkalchilikka qo'l urish;

qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni qisqa muddatli oldi-sotdi qilishni amalga oshirish.

Raqobat huquqining obyekti sifatida savdo munosabatlaridagi insofsiz savdo amaliyoti esa bozorda ustunlikka erishish yoki foyda olish uchun o'zida raqobatchi va iste'molchilarni aldash, firibgarlik orqali iste'molchilar ishonchini suiiste'mol qilish yoki axloqiy bo'lmagan usullar orqali iste'molchiga zarar yetkazish xususiyatiga ega bo'lgan amaliyotdir. Insofsiz raqobatning insofsiz savdo amaliyoti hisoblangan jihatlarini milliy qonunchilikda aks ettirish esa tobora rivojlanib borayotgan raqobat munosabatlaridagi muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.

## REFERENCES

1. An official website of the European Union. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/summary/glossary/competition.html/>.
2. Hudajbergenov B.B. Pravovye aspekty vyyavleniya priznakov neplatezhesposobnosti [Legal aspects of identifying signs of insolvency: cash flows and balance sheets]. Review of law sciences, 2020, no. 4.
3. Roles of unfair competition and protection of competition rules in the attainment of social market economy in Turkey. Yrd. Doç. Dr. Hamdi PINAR & Dr. Elif Cemre Haziroğlu, TFM, 2017, no. 3 (2), pp. 97-104. Available at: <https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/394225/>.
4. Hodzhaev B.K. Perehodnaya model' konkurencii dlja regulirovaniya vvodjashhey v zabluzhdenie reklamy v Uzbekistane: al'ternativnyj podhod [A Transitional Competition Model for Regulating Misleading Advertising in Uzbekistan: An Alternative Approach]. Review of law sciences, 2020, no. 4.
5. Radzhapov H. The Identification of Tacit Collusion in Oligopolistic Markets. Diss., 2019.
6. Dozorcev V.A. Nedobrosovestnaya konkurenciya ili nespravedlivaya? [Unfair or unfair competition?]. Yuridicheskiy mir – Legal world, 1997, no. 4, p. 33.
7. Svjadoc Y.I. Pravovaya ohrana tovarnix znakov v kapitalisticheskix stranah [Legal protection of trademarks in capitalist countries]. Moscow, 1969, p. 170.

8. Eremenko V.I. O presechenii nedobrosovestnoy konkurensii [On suppression of unfair competition]. Voprosi izobretatelstva – Invention issues, 1992, no. 1-2.
9. Kasyanov Y. Problemi rossiyskogo antimonopolnogo zakonodatelstva [Problems of Russian Antimonopoly Legislation]. Zakonodatelstvo i ekonomika – Legislation and economics, 2000, no. 6, p. 37.
10. Tadjibayeva M. Discrediting as one of the signs of unfair competition. Review of law sciences, 2020, Special issue 3.
11. Unfair Competition: Everything You Need to Know. Available at: <https://www.upcounsel.com/unfair-competition#reasons-to-consider-not-using-unfair-competition/>.
12. Tadjibayeva M.R. The Principle Of Good Faith In Civil Law. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 2021, no. 12.4, pp. 1062-1067.
13. Protection against unfair competition. Available at: [https://www.esa.int/About\\_Us/Law\\_at\\_ESA/Intellectual\\_Property\\_Rights/Protection\\_against\\_unfair\\_competition/](https://www.esa.int/About_Us/Law_at_ESA/Intellectual_Property_Rights/Protection_against_unfair_competition/).
14. Shuya H., Khodjaev B. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law. 同志社法學= The Doshisha Hogaku (The Doshisha law review), 2017, no. 68.7, pp. 3262-3225.
15. Abad A.R., Gonzales K., Rosellon M., Yap T. Unfair trade practices in the Philippines. Philippine Institute for Development Studies, 2012.
16. Hilty R., Henning-Bodewig F. (ed.). Law against unfair competition: towards a new paradigm in Europe?m Springer Science & Business Media, 2007, vol. 1.
17. Popović V., Mihailović B., Simonović Z. Modern food retail and unfair trading practices. 2018, no. 4. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/modern-food-retail-and-unfair-trading-practices> popović, Branko Mihailović, Zoran Simonović Modern food retail and unfair trading practices (accessed 07.11.2021).
18. What are Unfair Trade Practices? Available at: <https://accountlearning.com/what-are-unfair-trade-practices/>.
19. Business Law I Essentials Mirande Valbrune, Renee De Assis, Suzanne Cardell. University of Massachusetts Dartmouth
20. Sklyar R.V. Nedobrosovestnaya konkurenciya: ponyatie i obshhaya harakteristika [Unfair competition: concept and general characteristics]. Imushhestvennye otnosheniya v RF – Property relations in the Russian Federation, 2014, no. 2 (149). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/nedobrosovestnaya-konkurenciya-ponyatie-i-obshchaya-harakteristika> (accessed 12.11.2021).
21. Japan Exchange Group, Inc. (JPX). Available at: <https://www.jpx.co.jp/regulation/preventing/manipulation/index.html/>.
22. Klepitskij I. Market Manipulation in Russia and in Europe: The Criminal Law Dimension. Russian Law Journal, 2016, no. 4 (3), pp. 120-135. Available at: <https://doi.org/10.17589/2309-8678-2016-4-3-120-135/>.
23. Monopoly Power and Market Power in Antitrust Law. Available at: [https://www.researchgate.net/publication/228211409\\_Monopoly\\_Power\\_and\\_Market\\_Power\\_in\\_Antitrust\\_Law/](https://www.researchgate.net/publication/228211409_Monopoly_Power_and_Market_Power_in_Antitrust_Law/).
24. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism). Adliya vazirligi [Commentary to the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. Vol. 1 (first part). Ministry of justice]. Tashkent, Vektor-Press, 2010, p. 816.
25. Raqobat huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi [Right to compete. Textbook. Team of authors]. Tashkent, TSUL Publ., 2017, p. 110.
26. Nedobrosovestnaya konkurenciya: uchebno-prakticheskoye posobiye. Pod red. O.A. Gorodova [Unfair competition: a training manual. Ed. o.A. Gorodova]. Moscow, Yustitsinform, 2020, 324 p.
27. Razhabov A. Primeneniye nalogovih l'got v malom biznese: zarubejnaya praktika [The use of tax liens in small business: foreign practice]. Review of law sciences, 2020, Special issue 4.
29. Tadjibayeva M.R. Unfair Trade Practices In E-Commerce. Herald pedagogiki. Nauka i Praktika – Herald of pedagogy. Science and Practice, 2021, no. 1.5.
30. Akhrorova S. The influence of digital marketing in competition law: overview. Herald pedagogiki. Nauka i Praktika – Herald of pedagogy. Science and Practice, 2021, no. 1.5.
31. Sr 241 Federal Law Of December 19, 1986 Against Unfair Competition (Lcd). Available at: <https://www.global-regulation.com/translation/switzerland/2974976/sr-241-federal-law-of-december-19%252c-1986-against-unfair-competition-%2528lcd%2529.html/>.
32. The Polish Investment and Trade Agency. Unfair competition. Available at: [https://www.paih.gov.pl/polish\\_law/unfair\\_competition/](https://www.paih.gov.pl/polish_law/unfair_competition/).
33. Eremenko V.I. Osobennosti presecheniya nedobrosovestnoy konkurensii v Rossiyskoy Federatsii [Features of suppression of unfair competition in the Russian Federation]. Advokat, 2000, no. 7, p. 10.

UDC: 347.189.8(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0002-2325-1350

## BOLANING NASL-NASABINI BELGILASH

**Mamaraimova Gulrux Maxmudovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
“Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual  
huquqi” kafedrası katta o’qituvchisi  
e-mail: g.mamaraimova@tsul.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha bolaning nasl-nasabini belgilash, shu jumladan, bolaning tug‘ilganligini qayd etishda uning nasl-nasabini belgilash, otalikni FHDYo tartibida belgilash, otalikni sud tartibida belgilash, bolaning u yoki bu onadan tug‘ilganligi faktini belgilash masalalari, otalikni belgilash va otalik faktlarini belgilashning farqli jihatlarini tahlil qilingan hamda bugungi kunda, bolaning nasl-nasabini belgilashda biologik otaning yuridik ota sifatida e’tirof etilishi va etilmasligining ehtimollari o‘rganib chiqilgan. Shu bilan birga, qonunchilikdagi normalarning amaliyotga qo‘llanilishi natijasida bolaning nasl-nasabini belgilashdagi muammolar o‘rganilgan hamda ularga yechimlar berilgan. Ushbu maqolada muallif tomonidan bola nasl-nasabini belgilashning muhim instituti sifatida otalikka e’tiroz instituti tahlil qilinarkan, mazkur institut bo‘yicha ariza beruvchilar va da’vo muddatlari hamda otalikka e’tiroz bildirishda biologik otaning huquqlari tahlil qilingan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda maqolada ayolning uch yuz kun ichida bir nikohdan ajrashib boshqa bir nikohga kirishi va shu nikoh davomida farzandli bo‘lganda bolaning nasl-nasabini belgilashning ham huquqiy, ham amaliy jihatlarini o‘rganilgan hamda bolaning nasl-nasabini belgilash bo‘yicha bir nechta xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, qolaversa, bu bo‘yicha islom huquqi tarixi ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** bola nasl-nasabi, otalikni belgilash, otalik faktini belgilash, otalikni tan olganlik faktini belgilash, bolaning u yoki bu onadan tug‘ilganlik faktini belgilash, uch yuz kun ichida yangi nikohga kirish va bola tug‘ish, tug‘ilishni qayd qilish, otalikka e’tiroz, onalikka e’tiroz.

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРОИСХОЖДЕНИЯ РЕБЕНКА

**Мамараймова Гулрух Махмудовна,**  
старший преподаватель кафедры  
“Гражданское процессуальное и  
экономическое процессуальное право”  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы определения происхождения ребенка в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, в том числе были проанализированы аспекты определения происхождения ребенка при регистрации рождения, определения отцовства в ЗАГС, суде, факта происхождения ребенка от матери, разницы между определением отцовства и установлением факта отцовства. Сегодня при определении происхождения ребенка изучаются вероятности того, будет ли биологический отец признан законным отцом или нет. В результате применения норм законодательства на практике были изучены и даны решения проблемы определения родословной ребенка. В данной статье также автором анализируется институт оспаривания отцовства (материнства) как важный институт для определения происхождения ребенка. Были исследованы вопросы по заявителю и срокам подачи заявок. Биологические права отцовства анализировались с точки зрения апелляции к отцовству. Изучаются юридические и практические аспекты определения того, может ли женщина развестись, находясь в браке в течение трехсот дней и родить ребенка во время этого брака. В статье анализируется законодательство ряда зарубежных стран о происхождении ребенка, а также история исламского права в этом отношении.

**Ключевые слова:** происхождение ребенка, определение отцовства, установление факта признания отцовства, факт отцовства, факт происхождения ребенка от данной матери, регистрация рождения, оспаривание отцовства, оспаривание материнства.

## DEFINING THE CHILD'S PEDIGREE

**Mamaraimova Gulrukh Makhmudovna,**

Senior Lecturer of the Department of Civil Procedural  
and Economic Procedural Law of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** *This article deals with the issues of determining the pedigree of the child following the laws of the Republic of Uzbekistan, determining paternity in the registration of the child's birth, determining paternity in court, issues of maternity and problems related to determining the pedigree of a child, the probabilities of whether the biological father is recognized as the legal father have been analyzed. As a result of the application of the norms of the legislation in practice, the problems of determining the pedigree of the child were studied and given solutions. This article also analyzes the institution of paternity appeal as an important institution for determining the lineage of the child by the author. Applicants and claim deadlines for this institution are analyzed. The biological paternity rights are analyzed in the appeal to paternity. As a biological father, the legal and practical aspects of determining whether a woman can divorce from one marriage to another within three hundred days and have a child during that marriage are studied. The article analyzes the legislation of several foreign countries on the pedigree of the child, as well as the history of Islamic law in this regard.*

**Keywords:** *definitions of a child's origin, paternity, determination of paternity, determination of the fact that the child was born from this or that mother, birth registration, objection to paternity, objection to motherhood.*

Barchamizga ma'lumki, inson hayotida nasl-nasab masalasi eng muhim shaxsiy masala hisoblanadi. Nasl-nasab shaxsning jamiyatdagi o'rniga, xalq orasidagi obro'-e'tiboriga, shuningdek, oila rishtalarini bog'lash masalalariga ta'sir qilmay qolmaydi. Insonning nasl-nasabini belgilashdagi eng muhim zanjir uning qaysi ota-onadan tug'ilganligini aniqlashdir. Inson ota-onasi orqali uning boshqa qarindoshlari, jumladan, aka-uka, opa-singillari-yu, bobo-buvi, amma-amaki, tog'a-xola va boshqa qarindosh urug'lari aniqlanadi.

Demak, nasl-nasab masalasidagi eng muhim bo'g'in bu ota-onalikni belgilash. Tug'ilishni yozish daftaridagi tug'ilishga oid yozuv bolaning unda ko'rsatilgan ota-onadan tug'ilganligini tasdiqlovchi dalil hisoblanadi. Shundan kelib chiqilsa, otalik va onalik, odatda bola tug'ilishini qayd etishda belgilanadi.

Bilamizki, tug'ilishni qayd qilish mam-lakatimizda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bolaning tug'ilishini qayd etishga asos bu bola tug'ilganligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma. Bola tibbiy muassasada tug'ilganda bolaning tug'ilganligi to'g'risida tibbiy ma'lumotnoma beriladi. Agar bola tibbiy muassasadan tashqarida tibbiy yordamsiz tug'lsa, bola tug'ilganligi, uning qaysi onadan tug'ilganligi to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishga qadar [1] shu dalolatnoma asosida tug'ilish qayd qilingan. Biroq ushbu dalolatnomalar ko'pincha farzand-

likka olishdan qochish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlab har doim ham asl haqiqat ifodalaganligi sababli (bu dalolatnomalarda bolaning onasini o'zgartirib ko'rsatish ehtimoli mavjud bo'lgan) endilikda bu dalolatnoma asosida tug'ilish qayd qilinmaydi. Tibbiy muassasadan tashqarida tibbiy yordamsiz tug'ilgan bolaning tug'ilishi to'g'risidagi dalolatnoma bo'yicha uchastka shifokori (feldsher yoki akusher) tomonidan tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma beriladi hamda shu asosda tug'ilish qayd qilinadi.

Bolani tug'ilishini qayd etishda ona ustuni bola tug'ilganligi haqidagi yuqoridagi tibbiy ma'lumotnomada ko'rsatilgan onaning ma'lumotlari bo'yicha to'ldiriladi. Mazkur tug'ilishni qayd qilishga asos bo'luvchi tibbiy ma'lumotnomada bolaning onasi haqida to'liq va batafsil ma'lumotlar bo'ladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, yuqoridagi hujjatda onaning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, tug'ilgan sanasi, millati, fuqaroligi, oilaviy ahvoli, to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi belgilangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu ma'lumotlarga asosan bolaning ona ustuni ma'lumotlari to'ldiriladi. Bolaning ona ustunidagi ma'lumotlar bolaning qaysi onadan tug'ilganligini (yuridik onasini) aniqlab beradi.

Demak, bolaning tug'ilishi va uning qaysi onadan tug'ilganligi bola tug'ilganligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomaga asosan aniqlanadi. Biroq ushbu ma'lumotnoma har doim ham bola tug'ilganida rasmiylashtirilavermaydi. Bola tug'ilgani-

dan so'ng qaysidir sabablarga ko'ra mazkur tibbiy ma'lumotnomalar olinmagan holatlar hayotda uchray turadi. Bunday vaziyatda FHDYO tomonidan tug'ilishni qayd qilishning imkoni bo'lmaydi. Ushbu holatda bolaning qachon tug'ilganligi va qaysi onadan tug'ilganligi faktlari sud tomonidan aniqlanishi lozim bo'ladi. Ushbu faktlar sud tomonidan aniqlanganidan so'ng, sud tomonidan chiqarilgan hujjatga ko'ra bolaning tug'ilishi FHDYO tomonidan qayd qilinida, shu bilan birga, bolaning ona ustuni to'ldirilishi bilan onalik ham aniqlanadi.

Tug'ilishni qayd qilishda nafaqat ona ustuni to'ldirilishi orqali onalik, balki ota ustuni to'ldirilishi orqali bolaning otasini belgilanadi. Bolaning onasi bola tug'ilganida kim bilan qonuniy nikohda bo'lsa, tug'ilishni qayd qilish to'g'risidagi hujjatlardagi ota ustunida aynan o'sha shaxs ko'rsatiladi. Bu qonun faqat bizni mamlakatimiz qonunchiligi bo'yicha bo'lmasdan, boshqa mamlakatlarda ham xuddi shu tartib saqlangan. Masalan, Germaniya Fuqarolik kodeksining 1592-moddasiga asosan bola tug'ilgan vaqtda bolaning onasi kim bilan qonuniy nikohda bo'lgan bo'lsa, bolaning otasi shu shaxs hisoblanadi (boshqa qoidalar ham bor, albatta) [2]. Ma'lumki, ota ustunida ko'rsatilgan shaxs bolaning shu otadan tug'ilganligini tasdiqlaydi. Agar ayol qonuniy nikohi bekor qilinmagan, biroq qonuniy nikohdagi eri bilan birga yashamasa va farzand ko'rsa, bu holda bolaning biologik otasi bo'lmasligidan qat'i nazar bola tug'ilgan paytda bolaning onasi bilan qonuniy nikohda bo'lgan, biroq bolaning onasi bilan birga yashamagan shaxs ota sifatida ko'rsatiladi. Bu, yana bir bor aytamiz, huquq maydonida bolaning shu odamdan tug'ilganligini tasdiqlaydi. Ya'ni, sodda qilib aytganda, biologik ota har doim ham huquqiy ota bo'lolmaydi, buning uchun qonuniy nikoh muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi holatda, agar bolaning haqiqiy otasi (biologik ota) bolaning otasi sifatida o'zini ko'rsatilishini xohlasa, u holda bolaning onasi bilan birgalikda otalikni belgilash to'g'risida FHDYoga ariza yozishi kerak, biroq FHDYO tomonidan uning otaligi belgilanishi uchun bolaning onasi bilan qonuniy nikohda turgan shaxsning roziligi talab qilinadi. Xuddi shu holat kabi, bunday vaziyatda bolaning onasini yolg'iz ona sifatida rasmiylashtirish uchun ham bolaning onasi bilan nikohda turgan shaxsning roziligi talab qilinadi. Bugungi, mamlakatga chiqish va kirish maksimal

shaffoflashgan hamda ish izlab yoxud boshqa maqsadlarda fuqarolarimiz xorijiy mamlakatlarga ketadigan zamonda bolaning onasi bilan qonuniy nikohda turgan shaxsni doim ham topish va uning roziligini olishning imkoni bo'lavermaydi. Bunday vaziyatlarda qonundagi tartib tufayli, bolaning biologik otasi bo'lmagan shaxs o'zining shaxsning erkidan tashqari bolaga yuridik otasiga aylanishi mumkinligini uchratishimiz mumkin.

Bola tug'ilishini qayd etish va bunda otalikni aniqlab ketishda ayolning bolani tuqqan vaqtda hech kim bilan qonuniy nikohda bo'lmaganligi fakti bu qaydlarni amalga oshirishni o'zgartiradi. Bu holatda, nikohdan bo'lmagan onadan bola tug'ilganda ota-onaning (biologik ota, o'zini bolaning otasiman deb taxmin qilayotgan shaxs yoki umuman bolaga daxli yo'q shaxs) birgalikdagi arizasi bo'yicha otalik belgilanadi. Agar bolaning otasi tan olmasa, ayol yolg'iz ona sifatida rasmiylashtiriladi. Ko'pincha, yolg'iz ona atamasini qo'llashda adash tirishadi. Yolg'iz onaga qonunchilikda bir qancha imtiyozlar bor. Yolg'iz ona bu bolasining yuridik otasi belgilanmagan ona hisoblanadi. Bu yolg'iz ona atamasini bolasini yolg'iz tarbiyalayotgan ona bilan almashtirishadi. Bolasini yolg'iz tarbiyalayotgan ayol bolasining otasi bor, ya'ni u tegishli tartibda qayd qilingan. Lekin ayol turli xil sabablarga (ajrim, erning o'limi va boshqalar) ko'ra bolasini bola otasidan alohida tarbiyalayotgan bo'lsa, bu "yolg'iz ona" emas, balki "bolasini yolg'iz tarbiyalayotgan ona" hisoblanadi. Yolg'iz ona bolaning yuridik otasi mavjud bo'lmagan shaxs ekan. Bunday vaziyatda bolaning tug'ilishini qayd qilishda faqat onalik belgilanadi. Biroq yolg'iz onadan tug'ilgan bolaning tug'ilishini qayd etish tartibiga asosan yolg'iz bola ota ustuni bo'sh qoldirilish kerak emas. Bu vaziyatda ota ustunidagi yozuvlar, albatta, to'ldirilishi shart. Bunda tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida otaning familiyasi onaning familiyasi bo'yicha, otaga tegishli ism, otasining ismi va millati – ona ko'rsatmasi bo'yicha yozilishiga yo'l qo'yiladi. Tug'ilishni qayd etish daftaridagi otalikni belgilovchi yuridik fakt hisoblanuvchi ota ustunidagi yozuvlarning mazkur usulda to'ldirilishigina otalikni belgilamaydi. Ya'ni doim otalikni vujudga keltiruvchi yozuvlar bu safar yuridik otalikni vujudga keltirmaydi. Qaydda ko'rsatilgan shaxs bolaning otasi hisoblanmaydi va ular o'rtasida hech qanday huquq va majburiyatlar vujudga kelmaydi, o'zgarmaydi va bekor bo'lmaydi.

Bola tug'ilgan vaqtda bolaning onasi birov bilan nikohda bo'lmasa-da, biroq erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugagan bo'lsa va uch yuz kun ichida bola tug'lsa, ana shu bola nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi. Ya'ni nikoh tugatilgandan so'ng uch yuz kun ichida farzand tug'lsa, bunda bola o'sha nikohdan tug'ilgan hisoblandi [3] hamda bolaning otasi sifatida tugatilgan nikohdagi er yoki haqiqiy emas deb topilgan nikohdagi er ko'rsatiladi. Bunda, eng muhim jihat ayolning yangi nikohga kirishmagani hisoblanadi.

Ayol bir nikohdan ajrashgandan so'ng yoxud uning nikohi erining o'limi tufayli tugatilgandan so'ng uch yuz kun ichida yangi nikohga kirishsa va bola tug'sa u bola yangi nikohdan tug'ilgan hisoblanadi va bolaning yuridik otasi sifatida ayolning amaldagi nikohi bo'yicha eri ko'rsatiladi. Bu tartib bolaning onasi bola tug'ilganda kim bilan qonuniy nikohda bo'lsa, mazkur shaxs bolaning otasi degan qonun konsepsiyasidan kelib chiqqan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga qaraladigan bo'lsa, Italiya Fuqarolik kodeksining 1-kitobi oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan bo'lib, uning "Erning otaligi" deb nomlanuvchi 231-moddasida bolaning otasi sifatida bola tug'ilganda va bolaning onasi homilador bo'lganda onaning eri hisoblangan shaxs ota hisoblanishi to'g'risidagi qoida mavjud [4]. Shuningdek, Ispaniya Fuqarolik kodeksining 113, 117, 118-moddalarida otalik prezumpsiyasi haqida qoidalar mavjud [5]. Germaniya Fuqarolik kodeksining 1593-moddasiga ko'ra, ayol nikoh tugagandan so'ng 300 kun ichida yangi nikohga kirsas, bola yangi nikohdan tug'ilgan hisoblanadi. Bunda ayolning sobiq eri bolaning nasl-nasabi bo'yicha nizolashishi mumkin [6].

Bolaning nasl-nasabini belgilashga oid xususiy huquq va ommaviy huquqda "otalik prezumpsiyasi" mavjud [7]. Mazkur prezumpsiyaga ko'ra bola onasining eri o'zining biologik ota ekanligini tasdiqlovchi hech qanday dalillarsiz bolaning otasi hisoblanishi to'g'risida tartib mavjud.

Yuqorida biz bolaga otalikni berishda bola tug'ilganda bolaning onasi bilan nikohda bo'lgan shaxsda ustun huquqlar borligini va bu tartib nafaqat milliy qonunchiligimizda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ham mazkur konsepsiya amal qilishini ko'rdik. Bu masalaga islom huquqidan yechim qidiradigan bo'lsak, VI asrda Muhammad (s.a.v.)ning oldilariga bir bolaning ota-

lik nizosi bo'yicha kelishganida, Rasuli Akram bu masalaga: "Bola kimning yotog'ida tug'ilgan bo'lsa, uning farzandidir", – degan xulosa bilan yechim berganlar [8]. Bu shundan dalolat beradiki, bola tug'ilganda bolaning onasi kimning nikohida bo'lsa, bolaning otasi ham o'sha shaxsdir. Bizning bugungi qonunchiligimiz yechim bergan otalik prezumpsiyasiga 6-asrning o'zidayoq to'g'ri yechim berilgan.

Bolaning otaligini belgilashda eng muhim tartiblardan biri otalikni tan olishdir. Otalikni tan olish bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxs bolani o'zining bolasi sifatida tan oladi. Bu ikki tartibda amalga oshiriladi. FHDYo va sud tartibida. Bunda nafaqat ota tomonning tan olishi muhim, balki onaning ham mazkur shaxs bolaning otasiligini e'tirofi, roziligi, tan olishi muhim hisoblanadi. Mazkur tan olish otalikni vujudga keltirishi to'g'risidagi tartib Germaniya Fuqarolik kodeksining 1592-moddasida ham o'z ifodasini topgan. U norma otalik deb nomlanib, bolaning otasi kimligini belgilovchi qoidalaridan iborat. Otalikni belgilashda birinchi o'rinda bola tug'ilganda ona bilan nikohda bo'lgan shaxs bola otasi hisoblansa, ikkinchi usul bu bolani tan olish qoidasidir. Ya'ni bolaning otasiligini tan olish otalikni vujudga keltirishi belgilab qo'yilgan.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra nikohda bo'lmagan onadan bola tug'ilganda o'zini bolaning otasiman deb hisoblayotgan shaxs FHDYOga bolaning onasi bilan birgalikda bolaga otalik belgilash to'g'risida ariza topshirsa, mazkur shaxsning biologik ota ekanligini tasdiqlovchi dalillarsiz otalik belgilanadi.

Shuningdek, otalik biologik ota tomonidan tan olinmaganda yoki bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxs o'zini bolaning biologik otasiman deb taxmin qilsa-yu, ona bu narsaga rozilik bermasa, otalik da'vosi bilan sudga murojaat qilish mumkin. Bunday vaziyatda sud otalikni belgilashda dalillarning uch darajasini ajratishimiz mumkin.

*Birinchi darajali muhim dalil bu* – javobgarining bolaning otasiligini tan olishi bo'lib, bunday holatda, agar taxmin qilinayotgan ota o'zini bolaning otasi ekanligini tan olsa, sud ish holatlarini mazmunan tekshirmasdan, otalikni belgilash to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi. Bu dalilga bunday daraja berilishining asosi, otalikni tan olish biologik tekshiruvlarsiz bolaga mazkur shaxsning otaligini belgilash to'g'risidagi qoidalaridan

va fuqarolik protsessining talabni tan olishning huquqiy oqibati to'g'risidagi qoidalaridan kelib chiqadi. Bunda otalikni belgilashda onaning erkini ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ona ariza bergan va erkak javobgar bo'lgan holatlarda ona ariza berish orqali mazkur shaxsni ota sifatida e'tirof etishga roziligini bergan hisoblanadi. Agar erkak otalik da'vosi bilan chiqsa, bunda onaning talabni tan olishi muhim hisoblanadi.

*Otalikni belgilashda ikkinchi darajadagi dalillar bu* – taxmin qilinayotgan otaning bola tug'ilishiga qadar bolaning onasi bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritganligi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini, shuningdek taxmin qilinayotgan otaning bolaning otasiligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarning mavjudligidir.

*Uchinchi darajadagi dalil bu* – taxmin qilinayotgan bolaning otasi bilan bolaning qarindoshligini tasdiqlovchi tibbiy ekspertizalar (DNK va boshqalar).

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, otalik prezumpsiya va otalikni tan olish qoidalaridan kelib chiqib bolaga yuridik otaligi belgilangan shaxslar doim ham bolaning biologik otasi bo'lmazligi mumkin ekan. Bolaning yuridik otasi bolaning biologik otasi emasligi holatlari bu muammo emas. Balki bolaning biologik otasi hisoblanmagan shaxslarning bolaga nisbatan o'zlarining yuridik otaligi vujudga kelishda ularning erki muhim hisoblanadi. Bunda ikki xil vaziyatni kuzatishimiz mumkin, birinchisi bolaning biologik otasi bo'lmagan shaxsning mazkur bolaga de-yure ota bo'lishida uning va bola onasining erki rol o'ynaydigan holatlar. Va aksincha, biologik ota bo'lmagan shaxsning de-yure bolaning otasiga aylanishida uning erkidan chiqqan holda otalik belgilanishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud. Bunday holatlar otalik prezumpsiyasi tufayli vujudga keladi. Xususan, bola tug'ilganda ayol bilan qonuniy nikohda bo'lgan, biroq u bilan yashamayotgan shaxs mazkur prezumpsiyaga asosan, bolaning otasi deb hisoblanadi va belgilanadi. Shuning uchun ham amalda buzilgan va taraflar amalda boshqa shaxslar bilan "oilaviy munosbatlar"ga kirishganda nikohlarni ortiqcha to'siqlarsiz bekor qilish maqsadga muvofiq. Bu, o'z navbatida, keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan otalikka e'tirozlarning oldini oladi. Otalikka e'tiroz da'volari nikohdan ajrashish da'volariga nisbatan jamiyat uchun xavfliroqdir.

Yuqorida shaxsning o'z erkidan tashqari, garchi bolaning biologik otasi bo'lmasa-da, otalik prezumpsiyasi tufayli bolaning de-yure otasi bo'lishi mumkinligini tahlil qildik. Albatta, bunday vaziyatlarda otalikka e'tiroz to'g'risida keyslar yuzaga keladi. Milliy qonunchiligimiz bo'yicha quyida otalikka e'tiroz bildirish tartibini tahlil qilamiz va unga huquqiy baho berishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 63-moddasida otalik va onalikka e'tiroz belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, bolaning "otasi" yoki "onasi" deb tug'ilish daftariga yozilgan shaxs unga bunday yozuv ma'lum bo'lgan yoki ma'lum bo'lishi lozim bo'lgan vaqtdan e'tiboran bir yil mobaynida ana shu yozuv to'g'risida sud tartibida e'tiroz bildirishga haqlidir deb ko'rsatilgan. Agar shu vaqtga kelib bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs voyaga yetmagan bo'lsa, bir yillik muddat mazkur shaxs o'n sakkiz yoshga to'lgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, bu shunchaki qayd yozuvlariga e'tiroz bo'lmasdan, balki nasl-nasabga e'tirozdir. Zero, tug'ilish daftariga ota-onasifatida yozilgan shaxslar bolaning shu ota-onadan tug'ilganligini anglatadi.

Otalik va onalikka e'tiroz tartibini muhokama qiladigan bo'lsak, bunda eng muhimi bu da'vo bilan chiqish vakolatiga ega shaxslar. Milliy qonunchiligimizga ko'ra bu da'vo bilan faqat bolaning yuridik onasi va yuridik otasi chiqqa oladi. Bu chegarining to'g'ri yoki noto'g'riligiga tahlilimiz orqali baho berib ko'ramiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasi uchinchi qismida agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug'ilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanishi va bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Demak, bolaning onasi oldingi nikohi tugatilganidan keyin uch yuz kun ichida yangi nikohga kirishsa va ana shu muddat ichida bola tug'sa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Mazkur holatda bolaning yuridik jihatdan otasi bola onasining yangi nikohidagi eri hisoblanadi. Bunday vaziyatda bola onasining tugatilgan nikohi bo'yicha sobiq eri va uning oila a'zolari bolaning nasl-nasabi to'g'risida nizolashishi mumkinligini qonun nazarda tutgan. Lekin bu qanday qilib amalga oshiriladi? Otalikni belgilash to'g'risida ariza berish yo'li bilanmi? Quyida mazkur savollarga javob topamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining beshinchi bandi ikkinchi xatboshisida bolaning otasi to'g'risida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshirilgan yozuv bola unda ko'rsatilgan shaxsdan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi dalil hisoblanishi tufayli, tug'ilish to'g'risidagi dalolatnoma yozuvida Oila kodeksi 207-moddasining birinchi qismiga muvofiq bolaning otasi sifatida boshqa aniq shaxs ko'rsatilgan holda sud otalikni belgilash to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etilishi ko'rsatilgan. Demak, sobiq er va uning oila a'zolari bolaning nasl-nasabi bo'yicha otalikni belgilash bo'yicha da'vo kiritish olmaydilar. Bu vaziyatda oldin otalikka e'tiroz bildirish orqali u bekor qilinishi lozim, shundan so'nggina otalik da'vosi bilan murojaat qilish mumkin.

Xo'sh, endi ayolning sobiq eri bu vaziyatda otalikka e'tiroz bildiradi oladimi? Bu holatda otalikka va onalikka e'tiroz bildiruvchi subyektlar qonun bilan aniq belgilab qo'yilganligi, ya'ni ular bolaning yuridik onasi va yuridik otasi ekanliklari uchun ayolning sobiq eri bu vaziyatda otalikka e'tiroz bildiradi olmaydi. Agar bolaning onasi va ayolning bola tug'ilgan vaqtda nikohdagi eri rozi bo'lmasa, sobiq erning otaligini belgilashning amalda imkoni yo'q.

Shu o'rinda biz mazkur vaziyatni boshqa mamlakatlar qonunchiligi bo'yicha tahlil qilishga harakat qilamiz. Misol uchun, Ukraina Oila kodeksining uchinchi, ya'ni "Ona, ota va bola huquq va majburiyatlari" deb nomlangan bo'limining 128-, 129-moddalari otalikni tan olishga bag'ishlangan bo'lib, bunda o'zini bolaning otasidan deb hisoblayotgan shaxs (biologik otasi) bolaning tug'ilish to'g'risidagi qaydda ko'rsatilgan otasi (yuridik jihatdan ota) bilan nizolashishi mumkin, ya'ni u otalikni tan olish da'vosi bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Bunda, da'vo muddati bir yil bo'lib, u otaligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab o'ta boshlaydi. Otalikni tan olish Ukraina Oila kodeksining 128-moddasiga asosan sud tartibida amalga oshiriladi [9].

Germaniyada esa bu masalaga biroz boshqacha yechim berilgan. Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik kodeksining to'rtinchi Oila huquqi deb nomlangan kitobiga qaraydigan bo'lsak (GFR Fuqarolik kodeksi kitoblarga ajratilgan), mazkur masala biroz boshqacha usulda hal qilingan [10].

Mazkur kitobning 2.2 – "Ajodod" deb nomlanuvchi qismida tartibga solingan. Unda bolaning kelib chiqishi, uning ajdodlarini belgilash bilan bog'liq masalalar tartibga solingan. Jumladan, ushbu qism onalik, otalik, erning o'limi va nikohning tugatilishidan keyin tug'ilgan bolaning otaligi, otalikni tan olish, otalikni tan olganlikni tasdiqlash, shuningdek, otalikka e'tiroz, otalikka e'tiroz bildirish muddatlari va boshqa masalalarni qamrab olgan. Mazkur normalarni tahlil qiladigan bo'lsak, Germaniya qonunchiligi bo'yicha: de-yure ota, de-yure ona, bolaning otasidan deb hisoblayotgan shaxs, bolaning o'zi, bolaning vakili otalikka e'tiroz bildirish vakolatiga ega [11].

Turkiya qonunchiligi bo'yicha ham otalikka e'tirozni bolaning yuridik onasi va yuridik otasi, bola va uning vakili hamda o'zini bolaning otasidan deb hisoblayotgan shaxs ayolning roziligi bilan otalikka e'tiroz bo'yicha da'vo kiritishi mumkin [12].

Bu tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, otalikka e'tiroz o'zini bolaning otasi deb taxmin qilayotgan shaxs tomonidan ham berilishini ko'rdik. Milliy qonunchiligimizda esa faqat yuridik ona yoki yuridik ota kiritishi mumkin. O'zini bolaning otasidan deyayotgan shaxs otalikka e'tiroz bo'yicha da'vo kiritmasligining maqsadga muvofiqligiga baho beradigan bo'lsak, yuqorida biz bir necha vaziyatda bolaning biologik otasi bo'lmagan shaxsning bola onasi erki va otalikni tan olayotgan odamning erki bilan bolaning yuridik otasi deb e'tirof etilish holatlarini tahlil qildik. Xususan, bolaning otasi bo'lmagan shaxs bolaning onasi bilan birgalikda FHDYO organiga otalikni tan olib murojaat qilishsa, FHDYO hech qanday biologik tekshiruvlarsiz mazkur shaxsning otaligini belgilaydi. Shuningdek, bolaning otaligi sud tomonidan belgilangan-da javobgar otalikni tan olsa, uning biologik otaligi tekshirilmaydi va sud otalikni belgilash to'g'risida qaror chiqaradi.

Mazkur holatlarda bolaning otasi ekanligini tan olgan va natijada bolaga g'amxo'rlik qilgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, agar otalikka e'tiroz da'vosini kiritish huquqi bola va biologik otaga berilsa, buziladi deb hisoblaymiz. Ya'ni bolaning otasi ekanligini tan olgan va natijada bolaga g'amxo'rlik qilgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash maqsadida qonunchiligimizdagi mazkur tartib to'g'ri deb hisoblaymiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2016-yil 26-dekabrda 306-mh-sonli buyrug'i. Ro'yxat raqami 2547-1, 26.12.2016-y. Order of the Minister of Justice of the Republic of Uzbekistan No. 306-mh of December 26, 2016. Registration number 2547-1, 26.12.2016]. O'RQHT, 2016, no. 52, Art. 608.
2. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). 1593 Vaterschaft bei Auflösung der Ehe durch Tod. Available at: [https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/\\_1592.html/](https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_1592.html/).
3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 60-moddasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-songa ilova [Article 60 of the Family Code of the Republic of Uzbekistan Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 1998, Appendix no. 5-6].
4. Codice Civile Italia. Available at: <http://extwprlegs1.fao.org/docs/pdf/ita197336.pdf/>.
5. Spanish Civil Code (Codigo Civil Espanol). Available at: [https://www.mjusticia.gob.es/es/AreaTematica/DocumentacionPublicaciones/Documents/Spanish\\_Civil\\_Code\\_\(Codigo\\_Civil\\_Espanol\).PDF/](https://www.mjusticia.gob.es/es/AreaTematica/DocumentacionPublicaciones/Documents/Spanish_Civil_Code_(Codigo_Civil_Espanol).PDF/).
6. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). 1593 Vaterschaft bei Auflösung der Ehe durch Tod. Available at: [https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/\\_1593.html/](https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_1593.html/).
7. The Presumption of Legitimacy. Michael H. and Victoria D., Appellants v. Gerald D. 491 U.S. 110, 1989. Available at: <https://biotech.law.lsu.edu/Books/lbb/x650.htm/>.
8. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Saodat asri. 4-kitob [Ahmad Lutfi Kazanchi. Saodat asri. Book 4]. Tashkent, MUNIR, 2021, p. 79.
9. Simeyniy kodeks Ukraini. Vidomosti Verxovnoï Radi Ukraini (VVR) [Family Code of Ukraine. Vedomosti of the Verkhovna Rada of Ukraine]. 2002, no. 21-22, art. 135]. Available at: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/2947-14#Text/>.
10. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). Available at: <https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/>.
11. Türk Medeni kanunu. İkinci kitap aile hukuku. İkinci kısım hisimlik birinci bölüm soybağının kurulması. İkinci ayrim kocanın babalığı. Available at: <https://www.mevzuat.gov.tr/MevzuatMetin/1.5.4721.pdf>
12. Mamaraimova G. Inheritance issues of non-property (moral) rights of intellectual property. Norwegian Journal of Development of the International Science, 2021, no. 65-1, pp. 20-23.
13. Mamaraimova G., Nasimov X. Nikoh: milliy va xorijiy tajriba [Marriage: a national and foreign experience]. Tashkent, TSUL, 2019, p. 48.
14. Mualliflar jamoasi: Oila va nikoh munosabatlarining huquqiy tartibi [Team of authors: The legal order of family and marital relations]. Tashkent, Scientific-technical information-publishing house, 2018, p. 20.
15. The Presumption of Legitimacy. Michael H. and Victoria D., Appellants v. Gerald D. 491 U.S. 110, 1989. Available at: <https://biotech.law.lsu.edu/Books/lbb/x650.htm/>.
16. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik [Team of authors. Family law. Textbook]. Tashkent, TSUL, 2017, p. 245.
17. Mamaraimova G. Inheritance issues of non-property (moral) rights of intellectual property. Norwegian Journal of Development of the International Science, 2021, no. 65-1, pp. 20-23.
18. Makhmudovna M.G. Legal problems related to the implementation of the spouse's inheritance right European Journal of Research volume, 2020, vol. 5, no. 9, pp. 52-56.

UDC: 347.725(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0002-3640-1709

## XORIY DAVLATLAR BANK TIZIMLARI VA BANKLAR KORPORATIV BOSHQARUVI HUQUQIY ASOSLARI (AQSH, GERMANIYA VA YAPONIYA MISOLIDA)

Atajanov Xamdambek Kuromboyevich,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
“Biznes huquqi” kafedrası o‘qituvchisi  
e-mail: hamdambek@gmail.com

**Annotatsiya.** Muallif tomonidan mazkur maqolada dunyoning yetakchi davlatlarining tijorat banklarida korporativ boshqaruv, uning huquqiy asoslari, tijorat banklarida korporativ boshqaruvning o‘ziga xosligi, uning ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Maqolada korporativ boshqaruvga oid bo‘lgan atamalar, tushunchalar ochib berilgan, dunyoning yetakchi davlatlari tijorat banklarida korporativ boshqaruvda turli boshqaruv organlari ahamiyati, ularni tashkil etishdagi amaliyot, shuningdek ular o‘rtasidagi qiyosiy tahlil ham keltirib o‘tilgan. Maqolada tijorat banklarida korporativ boshqaruvga oid dunyoning yetakchi davlatlari bo‘lgan AQSh, Germaniya va Yaponiya tajribasi tahlil qilingan, mazkur davlatlarda tijorat banklarining boshqaruv organlari qanday shakllantirilishi, ularning korporativ boshqaruvdagi o‘rni va korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari keltirilgan. Tijorat banklaridagi korporativ boshqaruv organlarining boshqa korporatsiyalardagi boshqaruv organlardan farqlari ochib berilgan. Korporativ boshqaruvda tan olingan uchta model (anglo-sakson, nemis va yapon modellari) asosida banklarning boshqaruv organlarini tashkil etish, ularning faoliyat olib borishi va ustunliklari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, muallif tomonidan xorijiy mamlakatlarning ushbu sohada tajribasini mahalliy tizimga joriy etish bo‘yicha amaliy-huquqiy tavsiyalar berilgan va muallif xulosalari bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** korporatsiya, korporativ boshqaruv, tijorat banki, Bank boshqaruvi, Bank kengashi, Korporativ boshqaruv kodeksi, Markaziy bank, bank nazorati, bank auditi, Rag‘batlantirish qo‘mitasi, keyresu.

### БАНКОВСКИЕ СИСТЕМЫ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И ПРАВОВАЯ ОСНОВА КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ БАНКАМИ (НА ПРИМЕРЕ США, ГЕРМАНИИ И ЯПОНИИ)

Атажанов Хамдамбек Куромбоевич,  
преподаватель кафедры “Бизнес-право”  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье автор пытается объяснить корпоративное управление в коммерческих банках ведущих стран мира, его правовую основу, особенности корпоративного управления в коммерческих банках и его важность. В статье разъясняются термины и концепции корпоративного управления, роль различных органов управления в корпоративном управлении коммерческих банков ведущих стран мира, практика их организации, а также проводится сравнительный анализ между ними. В статье анализируется опыт США, Германии и Японии – ведущих стран мира в области корпоративного управления в коммерческих банках, проанализировано, как формируются органы управления коммерческих банков в этих странах, их роль в корпоративном управлении и правовая база корпоративного управления. Выявлены отличия корпоративного управления коммерческими банками от управления другими корпорациями. На основе трех общепризнанных моделей корпоративного управления (англосаксонская, немецкая и японская) показана организация органов управления банков, их деятельность и приоритеты. Также автором даны практические и юридические рекомендации по внедрению зарубежного опыта в данной сфере в локальную систему и сделаны авторские выводы.

**Ключевые слова:** корпорация, корпоративное управление, коммерческий банк, управление банком, Совет банка, Кодекс корпоративного управления, Центральный банк, банковский надзор, банковский аудит, комитет по вознаграждениям, “кейрэцу”.

## BANKING SYSTEMS OF FOREIGN COUNTRIES AND LEGAL BASIS OF CORPORATE GOVERNANCE OF BANKS (ON THE EXAMPLE OF THE UNITED STATES, GERMANY AND JAPAN)

**Atajanov Khamdambek Kuromboyevich,**  
Lecturer of the Department of Business Law of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** In this article, the author tries to explain corporate governance in commercial banks of the world's leading countries, its legal framework, the specifics of corporate governance in commercial banks, and its importance. The article explains the terms and concepts of corporate governance, the role of different governing bodies in corporate governance in commercial banks of the world's leading countries, the practice of their organization, as well as a comparative analysis between them. The article analyzes the experience of the United States, Germany and Japan, the world's leading countries in corporate governance in commercial banks, how the governing bodies of commercial banks are formed in these countries, their role in corporate governance and the legal framework of corporate governance. The differences between the corporate governance of commercial banks and the governance of other corporations are revealed. Based on the three models recognized in corporate governance (Anglo-Saxon, German and Japanese models), the organization of bank governing bodies, their activities and priorities are shown. The author also provides practical and legal recommendations for the introduction of foreign experience in this field in the local system, and the author's conclusions.

**Keywords:** corporation, corporate governance, commercial bank, bank management, bank council, corporate governance code, central bank, banking supervision, bank audit, remuneration committee, keiretsu.

Hozirgi kunda mustahkam bank tizimini shakllantirishda samarali korporativ boshqaruvni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Dunyo bo'ylab hukmronlik qilayotgan pandemiya xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan bank xizmatlari ko'rsatishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Mazkur sohada salmoqli tadqiqotlar olib borgan Dr. Marcinowska fikricha, tijorat banklarining siyosatini belgilab beruvchi va uni amalga oshiruvchi boshqaruv organlarining o'zni ushbu vaziyatda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Mazkur sohada asosiy muammolardan biri – bu minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bo'lib, ba'zi hollarda yirik aksiyadorlar o'z yoki korporatsiya manfaatlarini yo'lida minoritar aksiyadorlar huquqlarini qurbon qilishlari mumkin.

Xorijiy davlatlarning bank tizimini o'rganish davomida shu aniqlandiki, rivojlangan davlatlar bank tizimlari iqtisodiy rivojlanishda umumiy, shuningdek o'ziga xos jihatlarga ega.

Banktizimidagi umumiy xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bank tizimining ikki pog'onadan iboratligi: birinchi pog'ona Markaziy bank yoki bank kuzatuvini amalga oshiradigan boshqa vakolatli or-

gandan tashkil topgan, ikkinchi pog'ona esa kredit (bank), moliya tashkilotlari va bank infrastrukturasiga kiradigan boshqa tashkilotlardan tashkil topgan.

2) kredit tashkilotlari ustidan kuzatuv tizimining mavjudligi.

Kuzatuv tizimining tuzilishiga ko'ra uch guruh davlatlarni ajratish mumkin:

a) kuzatuvni Markaziy bank amalga oshiradigan davlatlar;

b) davlat tomonidan maxsus vakolat berilgan organ tomonidan kuzatuv olib boriladigan davlatlar;

d) kuzatuvni Markaziy bank bilan birgalikda boshqa organlar amalga oshiradigan davlatlar [2];

3) Bank sohasi va pul kredit siyosatining umumiy tartibga solinishi.

Bank tizimning birinchi pog'onasida Markaziy bank turadi. Dunyoning eng rivojlangan samarali bank tizimiga kiruvchi davlatlarda Markaziy bankdan tashqari boshqa vakolatli organlar ham mavjud. Germaniyada Nemis Federal banki bilan birgalikda kredit faoliyatini kuzatuv bo'yicha Federal idora, Fransiya Fransiya bankidan tashqari Bank Reglamenti bo'yicha qo'mita, Kredit muas-

sasalari bo'yicha qo'mita va Bank komissiyasi, AQShda esa bank sohasini Federal Rezerv tizimi Boshqaruvchilar kengashi boshqaradi, bundan tashqari okrug federal rezerv banklari, pul aylanmasi nazorati xizmati va depozitlarni sug'urtalash Federal korporatsiyalar mavjud [3; 4].

Xorijiy davlatlarda bank kuzatuvining tashkil qilinishi mazkur davlatning tarixiy rivojlanishi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu jihatdan davlatlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) Markaziy bank tomonidan bank kuzatuv monopoliy tarzda amalga oshiriladigan davlatlar (Gretsiya, Italiya, Lyuksemburg, Rossiya va Niderlandiya);

2) Markaziy bank o'zining kuzatuv funksiyasini boshqa davlat organi bilan birgalikda olib boradigan davlatlar (Ispaniya, Kanada) [5];

3) kuzatuv organlari Markaziy bankdan alohida ajratilgan davlatlar (Germaniya, AQSh, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Fransiya) [6].

**AQSh banklarida korporativ boshqaruv.** AQSh moliya bozori yuqori darajada rivojlanganligiga va moliyaviy bozor ishtirokchilari, ya'ni aksiyadorlar, institutsional investorlar, moliyaviy institutlar va jismoniy shaxslar borligiga qaramasdan, AQShda uzoq vaqtlargacha korporativ boshqaruv bo'yicha yagona qonun hujjati mavjud bo'lmagan. 1994-yilda "General Motors" kompaniyasining direktorlar kengashi tomonidan tayyorlangan "Korporativ boshqaruvning asosiy yo'nalishlari va muammolari" tezislari direktorlar darajasida tashkiliy muammolarni hal qilishga qaratilganligi uchun to'liq ma'nodagi korporativ boshqaruvga oid hujjat deb bo'lmaydi. O'sha paytda dunyoning 12 ta davlatida korporativ kodekslar qabul qilingan edi. Bundan tashqari, AQShda korporativ boshqaruv munosabatlarini tartibga soladigan yana bir nechta qonunlarga "Delaver korporatsiyalar qonuni", 1974-yildagi "Ishchilarning pensiya aksiyalari" Qonuni va 2002-yilgi "Sarbanes-Oksli" qonun hujjatlari kiradi [7].

AQShda tijorat banklari federal darajada va shtat darajasida tartibga solinishi mumkin [8]. Bank federal litsenziya olganida (milliy bank) bank faoliyati federal qonunlar bilan tartibga solinadi, shtat qonunlari e'tiborga olinmaydi. Bank shtat banki litsenziyasini olgan holatlarda esa uning faoliyati shtat qonunlari, ma'lum chegarachaga esa federal qonunlar bilan tartibga solinadi.

Umuman olganda, AQShda banklar aksiyadorlarning mulki hisoblanadi. Ammo Amerika qonunlariga ko'ra, aksiyadorlarning bankni boshqarishdagi huquqlari direktorlarni saylash bilan cheklanadi, direktorlar esa bankni aksiyadorlar nomidan boshqaradi. Aksiyadorlar ustavning muayyan qismlariga o'zgartirishlar kiritish, direktorlarni saylash va lavozimidan olish, shuningdek qayta tashkil qilish masalalari va hokozolarda ovoz berishda qatnashishlari mumkin. AQSh bank aksiyadorlarida bankning joriy faoliyatiga ta'sir o'tkazadigan hech qanday huquqlari yo'q [9].

AQShdabankdirektorlarikengashifaoliyatining asosida ikkita asosiy prinsip yotadi: ular yagona aksiyadorlar kollektivining vakili hisoblanishadi va ularning umumiy maqsadlariga erishish vazifalariga amal qilishlari lozim. Aksiya egalari – bu direktorlar kengashining saylaydigan yagona guruh bo'lib, direktorlar faqatgina ularning manfaatlariga xizmat qilishlari lozim. Shunday qilib, AQSh banklari korporativ tizimining o'ziga xosligi anglo-sakson korporativ boshqaruvi tizimi o'zida aks ettiradi, ya'ni mayda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

AQSh tijorat banklari direktorlar kengashi va menejerlarning asosiy e'tibori bank faoliyatining moliyaviy tarafiga, xususan, uning aktivlari va aksiyalari qiymatining oshishiga qaratilgan.

So'nggi yillarda AQShda alohida shtatlar doirasida juda ko'p qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular direktorlar Kengashiga bank aksiyadori bo'lmagan korporativ munosabatlar ishtirokchilari manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi. Misol uchun, Ogayo shtati qonunchiligi direktorlar kengashiga o'z xohishlariga ko'ra, quyidagi shaxslarning manfaatlarini hisobga olishini ko'zda tutadi:

1) xodimlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, kreditorlar va omonatchilar;

2) shtat iqtisodiyoti;

3) mahalliy aholining ijtimoiy ehtiyojlari [10].

AQSh qonunchiligiga ko'ra, bank faoliyati ushundan unitar direktorlar kengashi boshqaruvi olib boradi. AQSh qonunlari bank menejerlari bo'lgan direktorlar va mustaqil direktorlar o'rtasida vazifalarni ajratmaydi, faqatgina direktorlar kengashining umumiy vakolatlarini belgilab beradi. Direktorlar kengashida ko'pchilikni mustaqil direktorlar tashkil qiladi, ya'ni 9 ta kengash a'zosi-ning 5 tasi mustaqil direktorlardir [11].

Fikrimizcha, quyidagi nuqtayi nazar to'g'riroq ko'rinadi: vaziyatning tazyiqi qanchalik kuch-li bo'lmasin, tashqi holatlarning o'zi (jumladan, jabrlanuvchining xulq-atvori) jinoyatning sodir etilishini keltirib chiqarmaydi, uning sababi bo'la ol-maydi. Muayyan ijtimoiy muhit bilan o'zaro bog'la-nishdagina namoyon bo'ladigan, shaxs ongida mavjud bo'lgan jinoiy xulq yuzaga chiqishini belgi-lovchi mohiyatga ega bo'ladi va ijtimoiy xususiyat-lar tizimini amalga oshirishga yordam beradi. Ya'ni jabrlanuvchining qo'zg'atuvchi xatti-harakatlari jinoyatni keltirib chiqarmaydi, uning sodir etilishiga ko'maklashadi. Shu sababli ularni mustaqil guruh sifatida ajratmasdan, jinoyatga ko'makla-shadigan xulqning bir ko'rinishi, uning eng keskin shakli, deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Jabrlanuvchining jinoyatga ko'maklashmay-digan xulq-atvori obyektiv ravishda kriminogen – viktimogen xususiyatga ega emas. Bu esa jinoiy xatti-harakatlarga turtki bo'lmaydi va jinoyat-ning sodir etilishiga ko'maklashadigan shart-sha-roitlarni vujudga keltirmaydi. Jabrlanuvchilarning 62 foizi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar-

da jinoyat sodir etilishiga u yoki bu tarzda ko'mak-lashgan, 38 foizida buning aksi bo'lgan. Ya'ni ularning harakatlarida aybdorda nojo'ya xulqning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan qandaydir omillar mavjud bo'lgan.

Jabrlanuvchilarning xulq-atvoridagi viktimlik-ning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Ularning jinoyat sodir etilishiga ta'siri bevosita jinoyatdan avval yuzaga kelgan vaziyat yoki jinoyatchining shaxsi orqali, agar ular o'tmishida bunday holatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, namoyon bo'lishi mumkin. Kriminogen sabablarni baja-radigan vazifasiga qarab ikki guruhga ajratish lozim: 1) jinoyat sodir etilishi uchun kriminogen vaziyatni vujudga keltiruvchi xulq ko'rinishlari; 2) jinoyatchi shaxsida g'ayriaxloqiy xulq-atvorni shakllantiruvchi kriminogen ijtimoiy ruhiy xulq shakllari. Ikkinchi guruhga kiruvchi xulq-atvor-ga jabrlanuvchilarning jinoyatchi zo'ravonlik harakatlariga qarshilik ko'rsatmasligi misol bo'la oladi. Xulq-atvorning bu shakli oilaviy-maishiy jinoyatlar uchun odatiy bo'lib, u rashk tufayli so-dir etiladigan jinoyatlar uchun ham xosdir [9], deb ta'kidlaydi O.G'. Zokirova. Chunki ularning jismoniy qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari chek-langani. Ya'ni jabrlanuvchining ko'pchiligi voyaga yetmaganlar, ayollar va o'z ahvoldagi shaxslardir.

Amaliyot materiallarining tahlili jabrlanuv-chilarning bemalol foydalanishi mumkin bo'lgan qarshilik ko'rsatish usullaridan ham foydalan-maganligini ko'rsatadi. Agar jabrlanuvchining xulq-atvori: 1) jabrlanuvchining harakatlari, fuqa-rolar nuqtayi nazarida salbiy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa; 2) ular bevosita jinoyatchiga qa-ratilgan bo'lsa; 3) jabrlanuvchi o'z xulq-atvorining aybdor shaxs uchun alamli, tahqiromuz ekanini anglagan, ammo aybdorga nisbatan shunday mu-nosabatni davom ettirgan bo'lsa, bunday xulq-at-vorni ig'vogarona, qo'zg'atuvchi xulq deb aytish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jinoyat ishlarini o'rganish asosida jinoyatlardan jabrlanganlarning ig'vogarona xulq-atvorining qanchalik keng tarqal-ganligini aniqlash qiyin. Jabrlanganlar, odatda, o'z ko'rsatmalarida o'zlarini oqlashga harakat qiladi, ularning hech biri o'zi sodir etgan harakatlarning qasddan qilinganini tan olmaydi.

Jinsiy jinoyatlarni tergov qilish va sudda ko'rib chiqishda jabrlanuvchining jinoiy qilmishga sa-bab bo'lgan harakatlari xususiyatini aniqlashga

har doim ham yetarlicha e'tibor berilavermaydi. Vaholanki, bu sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash uchun juda muhimdir. Aybdorning zo'rlik harakatining oldini olish yoki uni to'xtatish uchun jabrlanuvchi tomonidan hech qanday harakat qilinmasligi ham jinoyat sodir etishni yengillashtirishga sharoit yaratadi. Jinsiy jinoyatlar tahlili jabrlanuvchilar xulq-atvorining ko'rinishi va ularning aybdor bilan jinoyat sodir etilgunicha bo'lgan o'zaro munosabatlari xususiyati o'rtasida muayyan o'zaro bog'liqlik mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, jabrlanuvchi xulq-atvorining ko'rinishlari jinoyat sodir etishga undovchi va undamaydigan turlarga bo'linib, jinoyat sodir etishga undamaydigan xulq-atvorning 18 %i aybdor shaxsning kriminogen axloqiy-ruhiy shakllanish shart-sharoitlari, 52 %i shaxsning jinoiy niyatlari ro'yobga chiqarilishida yengillashtiruvchi vaziyatni vujudga keltirgan, 30 %i oxirini o'ylamasdan yengiltaklik qilgan.

Bu borada voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning viktim xulqini o'rganadigan bo'lsak, ularni jinoyatdan jabrlanishining sabablarini tadqiq qilish va ushbu muammoni hal etishda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar shaxsini chuqurroq o'rganib chiqish zaruratini vujudga keltiradi. Voyaga yetmagan o'smirlarning jabrlanuvchi bo'lib qolishi va xulqida jamiyatga xilof xususiyatlar shakllanishida ijtimoiy muhit va oilaning roli katta. Chunki aynan oila axloqiy shakllanishida asosiy joy hisoblanadi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinoiy yo'lni tanlashiga zo'ravonlik, jinoiy yo'l bilan boylik orttirish, ma'naviy buzqlikni targ'ib qiluvchi filmlar tomosha qilish, jinoyat olami vakillarining hayot tarziga taqlid qilish kabilar turtki bo'lmoqda [11].

AQSh Adliya statistika byurosi (The Bureau of Justice Statistics)ning ma'lumotiga ko'ra, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning 12 yosh va undan katta yoshdagi voyaga yetmagan jabrlanuvchilari soni 2015-yilda 2,7 million, 2019-yil 3,3 milliondan ortgan [12].

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning turli jinoyatlarda, jumladan, jinsiy jinoyatlarni sodir etishida ham oilaning axloqiy sifatleri o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu borada voyaga yetmaganlarning jinsiy jinoyatlardagi viktimligi va uning yuzaga kelishida xulq-atvorni e'tiborga oladigan bo'lsak, o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, 28,7 %i ho-

latlarda jabrlanuvchilarning viktim xulqi jinoyat sodir etishga sabab bo'lgan. Nomusga tegish jinoyati bo'yicha 29 %i holatda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar o'zlarining yengiltak xulq-atvori bilan tavsiflangan, 45 %i holatda esa ularga jamoatchilik tomonidan salbiy tavsif berilgan.

Bundan tashqari, ularga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tarkibiga nomutanosib ravishda yoki o'rinsiz jinsiy aloqa va jinsiy aloqada bo'lmagan harakatlar, shuningdek rozi bo'lish yoki rad etishga qodir bo'lmagan kishiga nisbatan qilingan odam savdosi xatti-harakatlari ham kirgan. Hissiy yoki ruhiy zo'ravonlik, jirkanish, masxara qilish, qo'rqitish va kamsitish, rad etish va dushmanlik qilishning boshqa jismoniy bo'lmagan shakllari ham ushbu turlarga kiradi [12].

Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchining kriminologik tavsifini belgilovchi eng ko'p tarqalgan omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: voyaga yetmagan shaxsning tajovuzlar bilan birgalikda spirtli ichimliklar iste'mol qilishi; voyaga yetmaganlarning axloq normalariga zid xulqi; behayo kiyimlar (mini yubkalar va boshqalar); suhbatlarni jinsiy mavzularga aylantirish kabi [13], deb ta'kidlaydi Q.Payzullayev. O'rganilgan jinoyat ishi materiallari natijalariga ko'ra, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning 28 %i sigareta chekkan, 34 %i spirtli ichimlik ichgan, 18 %i esa giyohvandlik vositalari iste'mol qilgan, 20 % jabrlanuvchining badanida turli rasmlar aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu turdagi jinoyatlarning 55 % holatida jabrlanuvchi mastlik holatida bo'lgan, 30 % holatida jabrlanuvchi ayblanuvchi bilan birga spirtli ichimlik iste'mol qilgan.

Kriminogen vaziyatning yuzaga keltirayotgan viktim xulq-atvorni olimlar 3 guruhga bo'lib o'rgangan: 1. Jinoyat sodir qilishga ig'vo qiluvchi (mayl uyg'otuvchi) xulq-atvor. Bunday holatda jabrlanuvchi o'z xulq-atvori bilan unchalik tanish bo'lmagan yoki umuman tanish bo'lmagan shaxslarni begona joylarda (aybdorning uyida yoki boshqa joylarda) jinsiy aloqa qilishga undovchi xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bunday xulq-dagi jabrlanuvchilar jinsiy jinoyat jabrlanuvchilari-ning 10–15 %ini (nemis olimlarining tadqiqotlari bo'yicha 1/3 qismini) tashkil etadi. 2. Ig'vogarona (provakatsion) bo'lmasa-da, jinsiy aloqaga kirishishga obyektiv imkoniyat yaratib beruvchi xulq-atvorga ega bo'lgan. Masalan, ayol jinsidagi shaxs-

ning kechki paytda hech kim bo'lmagan hamda tajovuz sodir bo'lish xavfi bo'lgan joylarda yakka o'zi yurishi kabi. Bunday xulq-atvor jabrlanuvchilarning 35–40 %ini tashkil etadi. 3. Neytral xulq-atvor. Ya'ni shaxs o'z xulq-atvori orqali jinoyat jabrlanuvchisiga aylanishini tushunib yetmagan holda unga shart-sharoit yaratib beradi. Bunday xulq-atvordagi shaxslar toifasiga, birinchi navbatda, yosh bolalar va keksalar kirib, ular jabrlanuvchilarning 45–60 %ini tashkil etadi [14].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlar hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchilarning kriminogen tavsifini o'rganish ularni yosh doirasiga qarab tasniflashni taqozo etadi. Fikrimizcha, buni quyidagicha tasniflash o'rinlidir: 14 yoshgacha va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning kriminologik tavsifi. Shubhasiz, 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmagan jabrlanuvchilar 14–18 yoshgacha bo'lgan jabrlanuvchilarning kriminogenligidan farq qiladi.

Birinchi guruhga kiruvchi voyaga yetmaganlar (yosh bolalar) yomon ish sodir bo'lganligini biladi, ammo bu haqda tushunarli qilib aytib bera olmasligi mumkin. Jabrlanuvchilar maktab yoshiga yetgan bolalar bo'lgan taqdirda esa ular ko'pincha o'zlariga nisbatan sodir etilgan buzuk harakatlar haqida kattalarga aytishga uyaladi. 12–14 yoshdagi bolalar ularga nisbatan sodir etilgan jinsiy xarakterdagi xatti-harakatlar jismoniy va ma'naviy (axloqiy) pokizaligini bulg'ash ekanini bilishmaydi. Bu borada E.B. Melnikova [15] hozirgi kundagi bolalar va o'smirlar shaxsining genetik, demografik va individual ruhiy sifatleri birlamchi tarzda ularning ma'lum shart-sharoitga bog'liq holda o'zgarishiga olib kelishini to'g'ri ta'kidlab o'tgan.

Ikkinchi guruhdagilar, ya'ni 14–18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar esa ba'zan o'zlari fahsh yo'lga o'tishga moyillik ko'rsatadi. Chunki bu ularda uyg'ongan jinsiy qiziqishni qondiradi. Ushbu guruh jabrlanuvchilarni 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan hamda 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan jabrlanuvchilarga bo'lib o'rganish mumkin. Jabrlanganlarni bunday toifalarga bo'lishimizga sabab voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarning 16 yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan ko'proq sodir etilayotganligidir.

Jinsiy daxlsizligi (yoki erkinligi)ga jinsiy aloqa bilan tajovuz qilinganda, voyaga yetmagan shaxs dahshatga tushishi, o'zini yo'qotib qo'yishi kabi holatlar kuzatiladi. Nomusiga tajovuz qilingan voyaga yetmagan qizlarda zo'rlanganidan keyin uzoq vaqtgacha qo'rquv, asabiylik, atrofdagilarga ishonmaslik, o'ziga hurmatsizlik, ruhiy buzilish va emotsional qiyinchiliklar [16], ba'zan o'z joniga qasd qilish hollari ham yuz berishi mumkin. Yana bir jihati borki, bunda jabrlanuvchilarning aksariyat qismida aybdorlik hissi saqlanib qolaveradi va keyinchalik jinsiy hayot sohasida muammolarni yuzaga keltiradi.

Fikrimizcha, voyaga yetmagan jabrlanuvchi shaxsining viktimligini tavsiflovchi xususiyatlar qatoriga uning qo'rqqanligi, irodasizligidan tashqari, o'z o'rtoqlari orasida obro'sini yo'qotishdan qo'rqish holatlarini ham kiritishimiz mumkin. Q.P. Payzullayev jinoyatning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarning jinsiy jinoyatlardan jabrlanishining salbiy jihatlarini quyidagicha izohlaydi: 1) jinoyat jabrlanuvchilarining hayotiy tajribasi yetarli emasligi, ishonuvchanligi, soddaligi tufayli ular jinoyat qonunining maxsus muhofazasiga muhtoj shaxslar hisoblanishi; 2) aksariyat hollarda bu turdagi jinoyatlarning oldini olish choralarini samarali amalga oshirishga imkoniyat bo'lmaydi. Shuningdek, ularni fosh qilish boshqa jinoyatlarga nisbatan qiyinroq kechadi. Chunki bunday jinoyatlar xavfli munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, deyarli barcha holatlarda guvohlarsiz sodir etilishi; 3) bunday jinoyatlarning latentlik darajasi boshqa jinoyatlarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, jinoyatlarning latentligi, avvalambor, jabrlanuvchining atrofdagilarning salbiy bahosidan qo'rqishiga olib kelishi; 4) ushbu turdagi jinoyatlar va jinoyatdan jabrlanish, asosan, ijtimoiy muhitga bog'liq bo'lib, ularning oldini olish, rivojlanganlik darajasidan qat'i nazar barcha davlatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi [17].

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib, shaxsning kriminogen xususiyatlari va xatti-harakatlari yuz bergan tajovuzni hech kimga sezdirmaslikka urinishi, uning boshqalar oldida sharmanda bo'lishi, obro'sizlanib qolishi kabi oqibatlardan cho'chishi kabilarni aytish mumkin. Bu borada sud amaliyotidan misol keltiradigan bo'lsak, aybdor O. 2016-yilning o'rtalaridan 2017-yilning oxirlarigacha davomli tarzda o'zining 14 yoshli G. ismli qizining nomusiga tegib, jinsiy ehtiyojini

zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirib kelgan. Qizning onasi buni sezib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bergandan keyingina uning jinoyati fosh bo'lgan [18]. Ungacha qiz otasining xatti-harakati haqida hech kimga aytmagan.

Mazkur turdagi jinoyatning jabrlanuvchisi hisoblangan voyaga yetmaganlarning kriminologik xususiyatlaridan biri shunday izohlanadiki, ular bu haqda nafaqat o'z ota-onalari yoki boshqa yoshi katta yaqinlariga aytmaydi, balki iloji boricha bu munosabatlarni sir tutishga harakat qiladi.

Nomusiga tajovuz qilingan jabrlanuvchilarning aksariyati o'ta o'zgaruvchan, ta'sirga beriluvchan, tasodifiy aloqa qilishga moyil qizlardir [19]. Jabrlanuvchilarni bunday toifalarga bo'lib o'rganishni to'g'ri deb baholaymiz, chunki bunda ularning shaxsiy xarakteridagi xususiyatlar ham hisobga olinadi [20].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Gollandiya [21], Shvetsiya [22], Daniya [23] kabi davlatlar Jinoyat kodeksi bo'yicha jinoyat jabrlanuvchisi ham ayol, ham erkak jinsidagi shaxslar hisoblangan. Xitoy Xalq Respublikasi [24], Estoniya [25], Latviya [26] va AQSh [27] davlatlarining jinoyat qonunida esa bunday jinoyat jabrlanuvchisi faqat ayol jinsidagi shaxs bo'lishi belgilangan. Erkak jinsidagi shaxsning erkiga xilof tarzda zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki o'zirligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish jinoyati sud amaliyotida deyarli uchramasa ham, qonun bunday holatni inkor qilmaydi.

Voyaga yetmagan shaxslarning nomusiga tegish uchun javobgarlik normalarini belgilovchi moddalar dispozitsiyasini aniqlashda qonun chiqaruvchi tomonidan himoyaga olingan shaxslarning yoshi 18 va 14 yosh qilib belgilandi. Bu bilan voyaga yetmagan va kichik yoshdagilarning nomusiga tegishatamalaribilan bog'liq muammolar bartaraf qilinadi [28]. Ammo voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi bilan bog'liq jinoyat jabrlanuvchilarini o'rganishda yetkazilgan jismoniy va ma'naviy zararni qoplashda bir qancha muammolar vujudga kelmoqda.

Bundan tashqari, jinsiy jinoyatlarda jabrlanuvchi erkak jinsidagi shaxs bo'lishi ham mumkin. Sud amaliyotida erkak jinsdagi shaxsni ham jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilish uchra-

moqda. Shulardan kelib chiqib, JKning 121-moddasi nomini "Shaxsni jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilish" va birinchi qism dispozitsiyasini **"Shaxsni jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilish"** va birinchi qism dispozitsiyasini **"Shaxsni yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud shaxs uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib yoxud shaxsning xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaramligidan foydalangan holda, jinsiy aloqa qilish yoki shunga o'xshash jinsiy xarakterdagi harakatlarni sodir etishga majbur etishi"**, deb berish taklif etiladi.

Bunday taklif berishdan maqsad Jinoyat kodeksida jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib jinsiy aloqada bo'lganlik uchun javobgarlik alohida belgilanmagan. Ayrim holatlarda bu holat JKning 118-moddasi (nomusga tegish)dagi "qo'rqitish" tushunchasi bilan chalkashlikka olib kelib, bunda jismoniy zo'rlik ishlatib qo'rqitish ko'proq e'tiborga olinadi. 121-moddadagi shaxsni jinsiy xarakterdagi harakatlarga majbur qilishda esa ruhiy zo'rlik ham nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 121-moddasini tahlil qilar ekanmiz, mazkur holatda qonun chiqaruvchi o'z himoyasiga faqat ayollarnigina olganligini ko'ramiz. Bu norma ayollarni majburiy jinsiy aloqadan himoya qiladi, lekin ularni axloqiy buzuvchi harakatlardan himoya qila olmaydi.

Mazkur norma mazmuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga ziddir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" [29], deb e'tirof etiladi. Jinoyat kodeksi 121-moddasining mazmuni mamlakatimiz Asosiy qonunining mazkur moddasiga zid keladi. Shu holatlardan kelib chiqib, jamiyatda ayollar mavqeyini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 121-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilishi lozim, deb o'ylaymiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Action Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan"]. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, no. 6, art. 70.
2. Taxirov F. Jinsiy jinoyatlarning oldini olish muammolari [Problems of prevention of sexual crimes]. Tashkent, TSUL, 2006, p. 163.
3. Kriminologiya. Slovar' [Criminology. Dictionary]. Saint Peterburg, Lan, 1999, p. 166.
4. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari. Monografiya [Criminal law and criminological problems of women's crime. Monograph]. Tashkent, TSUL, 2005, p. 35.
5. Baskov A.V. Viktimologicheskaya profilaktika koristno nasilstvennix prestupleniy, sovershaemix vobshestvennix mestax. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [Victimological prevention of selfishly violent crimes committed in public places. Abstract of the thesis. dis. Cand. jurid. sciences]. Moscow, 2010, p. 180.
6. Xatkova F.X. Viktimologicheskie aspekti jenskoj prestupnosti. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [Victimological aspects of female crime. Abstract of the thesis. dis. Cand. jurid. sciences]. Moscow, 2004, p. 186.
7. Rivman D.V. Kriminalnaya viktimologiya [Criminal victimology]. Saint Peterburg, Piter, 2002, p. 43.
8. Rivman D.V. Rol poterpevshix ot nasilstvennix prestupleniy, sovershennix v dosugovoy i proizvodstvennoy sferax [The Role of Victims of Violent Crimes in the Leisure and Work Spheres]. Kriminologicheskie i ugolovno-pravovye borbi s nasilstvennoy prestupnostyu – Criminological and criminal law combating violent crime, 1999, p. 48.
9. Zokirova O.G'. Rashk motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari [Problems of combating crimes committed with jealousy]. Tashkent, TSUL, 2004, p. 145.
10. Pulatova Sh. Voyaga yetmaganlarga nisbatan oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning umumijtimoiy oldini olish. O'zbekistonda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning konseptual masalalari [Social prevention of domestic violence against minors. Conceptual issues of family, motherhood and childhood protection in Uzbekistan]. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami – Proceedings of the Republican scientific-practical conference. Tashkent, TSUL, 2016, p. 143.
11. Muxtorov J.S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta'minlash. Yurid. fan. nomz. dis. [Ensuring crime prevention by law enforcement agencies. Yurid. fan. nomz. dis.]. Tashkent, 2009, p. 35.
12. Morgan R, Oudekerk B.A. BJS Statisticians. Criminal Victimization, 2018. Available at: <https://www.bjs.gov/index.cfm?ty=pbdetail&iid=6686/>.
13. Payzullaev Q.P. Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini muhofaza qilish muammolari (jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlar). Yurid. fan. nomz. ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. [Problems of protection of sexual integrity and freedom of minors (criminal, criminological aspects). Yurid. fan. nomz. ilm. written diss to get the degree]. Tashkent, 2006, p. 22.
14. Stepanova O.Y. Polovie prestupleniya po UK 1996g (obshaya xarakteristika i problemi kvalifikatsii). Vipusknaya kvalifikatsionnaya rabota [Sexual crimes according to the Criminal Code of 1996 (general characteristics and problems of qualification). Final qualifying work]. Ryazan', Moskovskiy institut ekonomiki, menejmenta i prava – Moscow Institute of Economics, Management and Law, 2001, p. 33.
15. Melnikova E.B. Deti i podrostki – jertvi negativnix yavleniy [Children and adolescents are victims of negative phenomena]. Pravozaщitnik – Human rights defender, 2000, no. 1, pp. 95–97.
16. Child abuse and neglect: Biosocial dimensions. Ed by Gelles R.Y., Lancaster Y.B. N. Y.: de Gruyter, 1987. Moscow, 1992, p. 29.
17. Jetpisbaev B.A. Sotsialno-pravovie aspekti deviantnogo povedeniya nesovershennoletnix [Social and legal aspects of deviant behavior of minors]. Chelovek i pravo – Man and law, 2000, no. 4 (6), pp. 58–63.
18. Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha sudining arxiv materiallaridan [From the archives of the Tashkent Regional Criminal Court]. Tashkent, 2018.
19. Alauxanov Y., Abdurasulova Q.R., Boyko A. Bezopasnost cheloveka i grajdantina: pravo i neobxodimost [Human and Citizen Safety: Right and Necessity]. Almati, Nur Press, 2012, p. 38.
20. Hakimov K. Questions of improving the individual articles of the criminal code in the process of further deepening of democratic reforms (criminal code 98, 106-articles). Yuridik fanlar ahborotnomasi – Bulletin of legal sciences, 2017, no. 2, pp. 118–121.

21. Ugolovnyj kodeks Gollandii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Dutch Penal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, p. 355.
22. Ugolovniy kodeks Shvesii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Swedish Penal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, pp.54–55.
23. Ugolovnyi kodeks Dani. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Danish Penal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, p. 174.
24. Ugolovniy kodeks Kitayskoy Narodnoy Respubliki. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Criminal Code of the People's Republic of China. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, p. 161.
25. Ugolovniy kodeks Estonii. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Estonian Criminal Code. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001, pp. 113-114.
26. Ugolovniy kodeks Latvi. Zakonodatelstvo zarubejnix stran [Criminal Code of Latvia. Legislation of foreign countries]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2001. pp. 172-173.
27. Ugolovnoe pravo SShA: uspehi i problemi reformirovaniya [Us criminal law: successes and challenges of reform]. Saint Peterburg, Legal Center Press, 2007, pp. 353–360.
28. Hakimov K. Osobennosti yuridicheskoy konstruksii affekta (sostoyanie silnogo dushevnogo rasstroystva) kak oblegchayushego obstoyatelstva otvetstvennosti i nakazaniya [Features of the legal structure of affect (a state of severe mental disorder) as facilitating the circumstances of responsibility and punishment]. Review of law sciences, 2018, no. 4.
29. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat, 2021. Available at: <https://nrm.uz/>.
30. Yuridicheskaya jizn v Kitae. Otv. red. L.M.Gudoshnikov, per. s. kit. Axmetshin N.X., Vasilev I.V., Yegorov K.A. [Legal life in China. Resp. ed. L.M. Gudoshnikov, trans. With. whale. Akhmetshin N.S., Vasiliev I.V., Egorov K.A.]. Moscow, Legal literature, 1990, pp. 164-165.

UDC: 343.232.(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0001-8598-179X

## IJTIMOY XAVFLI QILMISH SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASHNING ZARUR CHORALARI CHEGARASIDAN CHETGA CHIQIB QASDDAN ODAM O'LDIRISHDA ZARAR YETKAZISH MASALASI

**Hakimov Komil Baxtiyarovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
dotsenti  
e-mail: hkb22@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishda zarar yetkazish masalasi haqidagi fikrlar tahlil etilgan. Shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish – sodir etilgan jinoyat xavflilik darajasiga yoki uni ushlash vaziyatiga ochiq-oydin nomutanosib ravishda odam o'ldirish hisoblanib, bunda shaxsga nisbatan yetkazilgan zararni aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Bundan tashqari, jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish maqsadida zarar yetkazish asosi xususida mualliflarning fikrlari turlicha ekanligi, ya'ni olimlar jinoyat-huquqiy zarar yetkazishning asosi sifatida shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etilganligi yoxud sodir etilishi mumkin deb hisoblashlarini tahlil etgan. Biroq tezkor topshiriqni bajarish vaqtida zarar yetkazish amaliyotda tegishli xodim tomonidan qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganiga, u tomondan qanday darajada zararyetkazish mumkinligi masalasi muammoligicha qolib kelayotgani va bu, o'z navbatida, qonunda tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish yoki boshqacha zarar yetkazish chorasini qo'llash asosi va shartlariga oydinlik kiritishni talab etishi ham mazkur maqolada o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlari:** ijtimoiy xavfli qilmish, shaxs, ushlash, zarur choralar, chegarasidan chetga chiqib, qasd, odam o'ldirish, zarar yetkazish, jinoyat.

### ВОПРОС ПРИЧИНЕНИЯ ВРЕДА ПРИ УМЫШЛЕННОМ УБИЙСТВЕ ЛИЦА, СОВЕРШИВШЕГО ОБЩЕСТВЕННО ОПАСНОЕ ДЕЯНИЕ, КАК СЛЕДСТВИЕ ПРЕВЫШЕНИЯ НЕОБХОДИМЫХ МЕР ПО ЕГО ЗАДЕРЖАНИЮ

**Хакимов Комил Бахтиярович,**  
доцент Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В статье проанализированы взгляды правоведов на вопрос причинения вреда при умышленном убийстве лица, совершившего общественно опасное деяние, как следствие превышения необходимых мер по его задержанию. Обосновано, что умышленное убийство лица, совершившего общественно опасное деяние, при превышении необходимых мер по задержанию является несоразмерным по степени общественной опасности совершенного преступления, поэтому обстоятельства его задержания и установление причиненного вреда лицу имеет важное значение. Кроме того, автор анализирует, что в теории уголовного права мнения авторов различны по поводу оснований причинения вреда в целях предотвращения общественно опасного деяния, то есть являются ли общественно опасные деяния или преступления, которые были совершены или могут быть совершены лицом, как основание для причинения вреда. Также в статье находит свое отражение вопрос о том, при каком общественно опасном деянии и вред какой степени может быть нанесен соответствующим сотрудником при выполнении оперативного задания, что остается на сегодняшний день актуальной проблемой и требует уточнения

в законодательстве. Существует необходимость уточнения оснований и условий причинения вреда при выполнении оперативного задания.

**Ключевые слова:** общественно опасное деяние, лицо, задержание, необходимые меры, превышение, умышленное убийство, причинение вреда, преступление.

## THE ISSUE OF CAUSING HARM IN CASE OF PREMEDITATED MURDER, IN EXCESS OF THE NECESSARY MEASURES FOR THE DETENTION OF A PERSON WHO HAS COMMITTED A SOCIALLY DANGEROUS ACT

**Khakimov Komil Bakhtiyarovich,**  
Associate Professor of Tashkent State  
University of Law

**Abstract.** The article analyzes the views on the issue of causing harm in case of premeditated murder, in excess of the necessary measures for the detention of a person who has committed a socially dangerous act. It is also substantiated that premeditated murder, in excess of the necessary measures of detention of a person who has committed a socially dangerous act, is considered a murder clearly disproportionate to the degree of public danger of the crime committed or the circumstances of his detention and the establishment of harm caused to the person is of great importance. In addition, the author analyzes that in the theory of criminal law, the opinions of the authors are different on the grounds for causing harm in order to prevent a socially dangerous act, that is, scientists believe that the commission of a socially dangerous act or crime by a person may serve as a basis for causing criminal-legal harm. Also, this article reflects that the question of what socially dangerous act was committed by the relevant employee (a person hired by the special service), to what extent the harm can be caused by this person while performing an operational task remains a problem, and this, in turn, requires clarification in the law of the grounds and conditions for the commission of a socially dangerous act or other measures of causing harm in the performance of an operational task.

**Keywords:** socially dangerous act, person, detention, necessary measures, if exceeded, premeditated murder, causing harm, crime.

Bizga ma'lumki, qilmishning jinoyatligini istisno qiluvchi holatlarni aniq ajratish, ularning huquqiy ahamiyatini, qo'llash chegarasini aniqlash va jinoyat hamda jazo institutida qilmishning jinoyatligini istisno qiluvchi holatlarning huquqiy ahamiyatini o'rganish va ushbu holatlarning inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda tutgan o'rnini aniqlash qonunchilikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog'ida zarar yetkazish masalasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chiqarish zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish – sodir etilgan jinoyat xavflilik darajasiga yoki uni ushlab chiqarish vaziyatiga ochiq-oydin nomutanosib ravishda odam o'ldirishdir.

Ushlab chiqarish asoslari jinoyat-protsessual ahamiyatga ega va ular JPK ning 221-moddasida bayon qilingan bo'lib, agar qilmish xavfli bo'lmasa, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgan oxirgi zaruratni qonuniy deb hisoblash mumkin

emas. Bunday holda qasddan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilishda yengillashtiruvchi holatlarsiz JK ning 97-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Xuddi shunday qoida og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushlab chiqarishga qarshilik ko'rsatmagan (yoki qarshilik ko'rsatishni to'xtatgan) va uni o'ldirish zaruriyati ushlab chiqarishdan kelib chiqmagan hollarda ham qo'llaniladi.

Shu norma asosan, ushlab chiqarish vositasi va usuliga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek ushlab chiqarishga mos kelmaydigan, ushlab chiqarish zarurati taqozo etmagan holda ushlab chiqarilgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushlab chiqarish chegarasidan chetga chiqish deb topiladi va unda yetkazilgan zarar masalasi muhim ahamiyatga ega.

Jinoyatchini ushlab chiqarish vaqtida unga zarar yetkazishni zaruriy mudofaadan ajratish masalasini nazariy jihatdan ishlab chiqarishga olimlar sharoitida kirishgan bo'lib, jinoyatchini unga zarar yetkazib ushlab chiqarishni mustaqil holat

sifatida ajratish zarurligiga birinchilardan bo'lib, bu borada I.I. Sluskiy e'tiborni qaratgan. U tajovuz tugallanganidan so'ng hujum qiluvchiga zarar yetkazishga zaruriy mudofaa qoidalariga muvofiq yondashish yaramaydi, chunki amalda xavf tug'dirmayotgan shaxsga zarar yetkazish, agar uni ushlash zaruriyati shuni taqozo etgan bo'lmasa, o'ch olishdan boshqa narsa emas, deb hisoblagan [1]. Ayni paytda, u jinoyatchini ushlash zaruriyati taqozosi bilan kuch ishlatish nafaqat xavfli emas, balki, aksincha, jamiyat uchun foydali hamdir, deb ta'kidlagan [2] va uning ushbu fikrlarini asosli deb hisoblaymiz.

A.B. Saxarov o'zining "Jinoyat qonuni. Nazariy modellash tirish tajribasi", deb nomlangan monografiyasida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar qatoriga jinoyatchini ushlashni ham kiritgan [3].

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlash vaqtida unga zarar yetkazish ishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan amaldagi Jinoyat kodeksida birinchi marta o'z ifodasini topdi. Ushbu norma Jinoyat kodeksning 39-moddasida aks etgan bo'lib, unga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Zarar yetkazishning muhim shartlaridan biri tezkor xodim tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunda shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilib ushlash uchun asoslar belgilab o'tilgan [4]. Ammo ushbu qonunchilikda, tezkor xodim tomonidan topshiriq vaziyatida ushlash choralari ko'rishda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs ushlanishdan bo'yin tovlaganida, uni ushlashning boshqa imkoniyati bo'lmaganda, ushlanuvchi shaxsga kuch ishlatish yoki zarar yetkazib ushlash chorasini qo'llash yuzasidan qoidalar belgilab berilmagan. Aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish chorasini ushlashning so'ngi chorasini sifatida qo'llanilishi belgilab berilganligi e'tiborga molikdir [5].

Hozirgi kunda tezkor topshiriq vaqtida zarar yetkazish huquqiga ega bo'lgan davlat

organi xodimlari va nazariyachi olimlar o'rtasida topshiriqni bajarish jarayonida qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish uchun zarar yetkazish mumkinligi bahsli holat sifatida qaralib kelinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida bu haqida umuman so'z yuritilmaydi. Shuningdek, qaysi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish uchun zarar yetkazishga yo'l qo'yilmasligi xususida qoidalar qonunchilikda belgilanmagan. Biroq, bugungi kun amaliyoti hamda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu holatlarga aniqlik kiritishni talab etmoqda.

Ushbu masala xususida mualliflarning fikrlari ham mavjud. Jumladan, A.N. Popov tomonidan zarar yetkazish chorasini, "Faqatgina jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan qonunda belgilangan yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxsga nisbatan qo'llash mumkin" [6], deya munosabat bildiradi. Nazarimizda, ushbu fikr biroz mulohazali. Sababi, ayrim holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish aqli noraso shaxs tomonidan ham sodir etiladi [7]. Bu kabi holatlarda aqli noraso shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash zarurati yuzaga keladi [8]. Tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlarning o'z vaqtida oldini olish maqsadida zarurat bo'lganida, oxirgi chora sifatida zarar yetkazib ushlash mumkin.

B.V. Sidorov zarar yetkazish asoslari xususida to'xtalib, "Shaxs og'ir jinoyat sodir etganida, uning badaniga shikast yetkazib ushlashga yo'l qo'yilishi mumkin" [9], deb ta'kidlaydi. Muallifning bildirib o'tgan fikrlari ham biroz mulohazali. Sababi, tezkor vaziyatda sodir etilishi mumkin ijtimoiy xavfli qilmishning og'ir jinoyat ekanligini aniqlash uchun jinoyat tarkibining barcha tarkibiy elementlarini aniqlash talab etiladi. Amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishning oldini olishda har doim ham jinoyatchilar (jinoiy to'da) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishini aniqlashning imkoni bo'lavermaydi.

Zarar yetkazish asosi yuzasidan V.S. Komissarov mushohada yuritib, "Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxslarga kuch ishlatish harakatlari umumiy huquqqa ko'ra yo'l qo'yilmaydi. Zarar yetkazib ushlashning zaruriy asosi ijtimoiy xavfliligi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganligidir" [10], deya ta'kidlaydi. Ammo, tezkor topshiriq chog'ida zarar yetkazish

amaliyotida uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan holda zarar yetkazish zarurati yuzaga keladi.

Bu borada N.G. Kadnikovning fikricha, "Zarar yetkazish uchun asos zo'ravonlik va kuch ishlatadigan jinoyatlar (asosiy yoki qo'shimcha obyekti shaxsning jinsiy daxlsizligi, sog'lig'i, hayoti hisoblanadigan)ga nisbatan qo'llanilishi mumkin" [11]. Biroq, ushbu muallif ham tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish shaklida zarar yetkazish mumkinligini e'tibordan chetda qoldiradi. I.S. Tishkevich esa "Alohida fuqarolarga, hokimiyat vakillariga va ichki ishlar idoralari xodimlariga nisbatan zo'ravonlik, jamoa tartibini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etganda zarar yetkazish mumkinligini" keltirib o'tadi [12].

Biroq, amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish uchun sodir etilgan zarar yetkazish zarurati yuzaga kelishi nafaqat sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfli qilmishga, balki tezkor xodim (shaxs)ning xulq-atvoriga, so'nggi chora sifatida boshqa harakatlar sodir etish imkoniyati bor-yo'qligiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lib qolmoqda. Amaliyotda eng ko'p holatlarda qasddan odam o'ldirish [13], tinchlik va insoniyat xavsizligiga qarshi jinoyatlar [14], diniy ekstremizm [15], terrorizm [16], jinsiy zo'ravonlik [17], shaxsga qarshi jismoniy va ruhiy zo'ravonlik [18], o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik [19], ommaviy tartibsizliklar [20], kontrabanda va bojxona qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarini sodir etishning oldini olishda uchraydi. Ularning ayrimlari maxfiy topshiriq vaqtida to'satdan yuzaga kelgan tarang vaziyat yoki maxfiylikni saqlab qolish uchun ijtimoiy xavfli zarar yetkazish zarurati bilan bog'liq.

Ijtimoiy xavfli qilmish shaklidagi zarar yetkazishning asosi xususida N.N. Tureskiy, "Zarar yetkazishga yo'l qo'yiladi qachonki, shaxs jinoyat sodir etish natijasida yoki sudning ayblov hukmi bo'lganda" [21], deb ta'kidlaydi. Nazarimizda, bu holat bir o'rganayotgan jinoiylikni istisno qilish holatiga to'g'ri kelmaydi, chunki ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olish uchun zarar yetkazish zarurati yuzaga kelmaydi. Bu masala xususida A.B. Ivanov o'rinli ta'kidlaganidek, "Kuch ishlatish huquqi yuzaga kelishi, nafaqat jinoyat sodir etish fakti bilan, ijtimoiy xavflilikning mavjudligi va ochilmagan yoki jazoga tortilmagan jinoyatlar yuzasidan ham mavjud bo'lishi mumkin" [22]. Boshqacha aytganda, yetkazilgan zararni

asosli deb topish uchun, jinoyatchilarning aybi bo'yniga qo'yilib, sud hukmini chiqarishni kutish shart emas.

M.H. Rustamboyev quyidagi holatlar jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash uchun asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi: "Ushlashni amalga oshirayotgan shaxs jinoyat sodir etilayotgan joyda voqea sodir etilayotganning ustidan chiqib qolishi yoki jinoyatni aniq kuzatishi; guvohlar yoki jabrlanuvchi shaxslar jinoyat sodir etgan shaxsni to'g'ridan to'g'ri ko'rsatishi; subyektning o'zida yo egnidagi kiyimida yoki uning turarjoyidagi yoxud unga tegishli buyumlarda yaqqol jinoyat izlarining yoki ashyoviy dalillarning topilishi; jinoyatchini qidirish to'g'risidagi qarorning mavjudligi; jinoyatchining qochib yurganligi bo'lishi mumkin" [23].

Shu bilan bir qatorda, zarar yetkazish mumkin bo'lmagan asoslar xususida o'rinli fikr bildiradi. Jumladan, "Shaxsni jinoyat bo'lmagan ma'muriy huquqbuzarlik, intizomiy qilmishni sodir etgani uchun ushlash mumkin emasligini qayd etish lozim" [24]. Analogiya tarzida aytish mumkinki, haqiqatdan ham tezkor topshiriqni bajarish vaqtida amaliyotda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan yoki bunday huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida zarar yetkazish choralari ko'rilishi talab etilmaydi.

Ushbu faktik ma'lumotlardan kuzatish mumkinki, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ushlash choralari ko'ruvchi shaxsga yoki boshqa fuqarolarga ijtimoiy xavfli tajovuzni keltirib chiqarmasa, unga nisbatan zarar yetkazib ushlash choralari ko'rishga yo'l qo'yilmaydi [25].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan aytish mumkinki, jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish maqsadida zarar yetkazish asosi xususida mualliflarning fikrlari turlicha. Ya'ni olimlar jinoyat-huquqiy zarar yetkazishning asosi sifatida shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etilganligi yoxud sodir etilishi mumkin deb hisoblaydilar [26]. Biroq tezkor topshiriqni bajarish vaqtida zarar yetkazish amaliyotda tegishli xodim (maxfiy xizmatga yollangan shaxs) tomonidan qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganiga, u tomondan qanday darajada zarar yetkazish mumkinligi masalasi muammoligicha qolib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, qonunda tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish

yoki boshqacha zarar yetkazish chorasini qo'llash asosi va shartlariga oydinlik kiritishni talab etadi.

Tergov va sud amaliyoti materiallarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, zarar yetkazish choralari asosan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va fuqarolar (xufiyalar) tomonidan shaxsning hayoti va sog'lig'iga, jamiyat va davlat manfaatlariga, jamoat tartibiga tajovuz qilish bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlar shaklida qo'llanilgan. Aksincha, xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar (JK Maxsus qismi 13-bob)ni fosh etish borasida zarar yetkazish choralari ko'rish uchun zarurat tug'ilgan.

Sababi ushbu sohadagi jinoyatlarni maxfiy ravishda fosh etishda tegishli tarang vaziyat yuzaga

kelmagan, jinoyatchi shaxslarning shaxsi aniq bo'lgan yoki ko'p vaziyatlarda davlat hokimiyati organi xodimlarining qo'lga tushishdan bo'yin tovlamagan yoki real qarshilik ko'rsatmagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Jinoyat kodeksi 39-moddaning birinchi qismiga "*qochishining oldini olish*" va "*hibsga olish*" so'zlari kiritilsin va qo'yidagi tartibda bayon qilinishi lozim:

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish va *qochishining oldini olish maqsadida* ushlash va *hibsga olish*, vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

## REFERENCES

1. Sluskiy I.I. *Obstoyatelstva, isklyuchayushiye ugovnuyu otvetsvennost* [Circumstances precluding criminal liability]. Moscow, 1956, p. 60.
2. Khakimov K. Affect (Strong Mental Excitement) as means of legal structure in a condition of relief and penalty. *Review of law sciences*, 2018, vol. 2, no. 4, p. 21.
3. *Ugolovniy zakon. Opit teoreticheskogo modelirovaniya*. Otv. red. V.N. Kudryavsev, S.G. Kelina [Criminal law. Theoretical modeling experience. Resp. ed. V.N. Kudryavsev, S.G. Kelina]. Moscow, 1987, pp. 128-129.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2019-yil 1-oktabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan (as amended and supplemented until October 1, 2019). Official publication]. Tashkent, 2019, art. 39.
5. *Kurs ugolovnogo prava. Obshaya chast. Tom 1. Uchebnik dlya vuzov*. Pod red. V.S. Komissarov [Criminal Law Course. A common part. Vol. 1. Textbook for universities. Ed. V.S. Komissarov]. Moscow, 2002, p. 291.
6. Popov A.N. *Obstoyatelstva, isklyuchayushiye prestupnost deyaniya* [Circumstances precluding the criminality of an act]. Saint Petersburg, 1998, p. 28.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Ruhii kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi choralarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2008-yil 12-noyabr 23-sonli qarori [Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 23 of November 12, 2008]. Available at: <https://lex.uz/docs/1601125/>.
8. Fayzullayeva T.X. *Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ta'minlash muammolari*. Yurid. fan. nomz. dis. avtoref. [Problems of Enforcement of Medical Coercion]. Tashkent, 2009, p. 25.
9. Sidorov B.V. *Prichinenie vreda pri zaderjani prestupnika* [Causing harm in arresting a criminal]. *Sovetskaya yustitsiya – Soviet justice*, 1990, no. 3, pp. 10-13.
10. *Kurs ugolovnogo prava. Obshaya chast. Uchebnik dlya vuzov*. Pod red. V.S. Komissarov [Criminal Law Course. A common part. Vol. 1. Textbook for universities. Ed. V.S. Komissarov]. Moscow, 2002, p. 289.
11. Kadnikov N.G. *Obstoyatelstva, isklyuchayushiye prestupnost deyaniya. Uchebnoe posobie* [Circumstances precluding the criminality of the act. Tutorial]. Moscow, 1998, p. 24.
12. Tishkevich I.S. *Oborona i neobxodimost'* [Defense and necessity]. *Zakonnost' – Legality*, 1992, no. 4, pp. 28-31.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti i to'g'risida"gi 13-sonli qarori [Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 13 of September 24, 2004 "On Judicial Practice in Cases of Intentional Murder"]. Available at: <https://lex.uz/docs/2892369/>.

14. Mirzayev A.A. Prestupleniya protiv Respubliki Uzbekistan. Ugolovno-pravovie i kriminologicheskie aspekti. Monografiya [Crimes against the Republic of Uzbekistan. Criminal and criminological aspects. Monograph]. Tashkent, 2007, p. 82.
15. Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorchilik: uning ildizi qayerda? Maqsadi nima? Unga qarshi qanday kurashish kerak? [Religious extremism and terrorism: where are its roots? What is the purpose? How to fight it?]. Tashkent, 2000, p. 143.
16. Tadjixanov B.U. Terrorizmning huquqiy tavsifi. O'quv qo'llanma [Legal description of terrorism. Study guide]. Tashkent, 2006, p. 61.
17. Toxirov F. Jinsiy jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish asoslari [Fundamentals of qualifying sexual crimes]. Tashkent, 2006, p. 134.
18. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
19. Bakunov P. Bosqinchilik uchun javobgarlik. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir M. Usmonaliyev [Liability for aggression. Study guide. Editor-in-Chief M. Usmonaliyev]. Tashkent, 2008, p. 49.
20. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining "Respublika sudlari tomonidan ommoviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq ayrim masalalar haqida"gi 1996-yil 20-dekabr 38-sonli qarori [Resolution of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 38 of December 20, 1996 "On some issues related to the practice of application of the law on liability for mass riots by the courts of the Republic"]. Available at: <https://sud.uz/>.
21. Tureskiy N.N. Teoreticheskie problemi obstoyatelstv, isklyuchayushix prestupnost deyaniya, po ugovnomu zakonodatelstvu respubliki Kazaxstan. Avtoreferat dok. yur. nauk [Theoretical problems of the circumstances excluding the criminality of the act, according to the criminal legislation of the Republic of Kazakhstan. Abstract doc. legal entity sciences]. Saint Petersburg, 2005, p. 37.
22. Ivanov A.B. Institut prichineniya vreda pri zaderjanii litsa, sovershiv-shego prestuplenie. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [The institution of causing harm during the arrest of a person who has committed a crime]. Moscow, 1999, p. 13.
23. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General section]. Tashkent, 2006, pp. 36-37.
24. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. General section]. Tashkent, 2010, vol. 1, p. 366.
25. Khakimov K. Criminological Characteristic of the Crimecommitted in the Case of Affect and the Identity of the Perpetrator. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, pp. 6980–6994. Available at: <https://www.annalsofscb.ro/index.php/journal/article/view/866/>.
26. Khakimov K. Affect (Strong Mental Excitement) as means of legal structure in a condition of relief and penalty. Review of law sciences, 2018, vol. 2, no. 4, p. 21.

UDC: 343(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0001-7099-2955

# ХАРАКТЕРИСТИКА И АНАЛИЗ ПРИМЕНЯЕМЫХ К НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМ РАЗЛИЧНЫХ ВИДОВ ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И УГОЛОВНОГО НАКАЗАНИЯ ВО ФРАНЦИИ И ГЕРМАНИИ

Турабаева Зиёда Якубовна,  
соискатель Ташкентского государственного  
юридического университета  
e-mail: saarlendesziyoda@mail.ru

gan 1997-yildan to 2002-yilgacha Oliy ma'muriy sudning mamlakat Oliy sudidan mastaqil bo'lishini ta'minlovchi "Ma'muriy sudlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi lozim. Ko'pchilik mamlakatlarda harbiy sudlar tinch davrda tashkil etilmaydi. (Qarang: masalan, 1920-yilda qabul qilingan va 1929-yilda tahrir etilgan Avstriya Federal Konstitutsiyaviy qonunining 84-moddasiga muvofiq), agar mamlakatda harbiy sud oldindan mavjud bo'lsa, u umumiy yurisdiksiyaning alohida bir sohasini tashkil etadi. Xuddi shu narsani ma'muriy sudlar xususida va boshqa ba'zi bir maxsus sudlar: oilaviy, voyaga yetmaganlar, mehnat, patent, moliyaviy soliq sudlari haqida ham aytish mumkin.

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatini xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligini o'rganish natijasida amin bo'ldikki, ko'pgina mamlakatlar jinoyat qonunchiligida tergov qilish yoki sud ishlariga aralashish qanday shakllarda amalga oshirilishi aniq belgilangan.

Masalan, Albaniya Respublikasi Jinoyat kodeksining 301-moddasi sud ishlariga to'sqinlik qilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra ko'rilayotgan jinoiy ishni o'zgartirish, izlarni soxtalashtirish, yo'qotish, harakatlarni yashirish, yo'nalishni boshqa tomonga o'zgartirish harakatlari sud faoliyatiga to'sqinlik qilish deb baholanib, bu jinoyat uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan [30].

Vengriya Respublikasi Jinoyat kodeksining 242/A-moddasiga muvofiq sud yoki boshqa sud tartibida ish yurituv jarayonida sudning qonuniy huquqlariga kuch ishlatish yoki kuch bilan taxdid qilish, uning harakat yoki harakatsizligiga beparvolik qilishini talab etish, qo'rqitib ogohlantirish jinoyat deb topiladi. Agar, bu aralashish yoki to'sqinlik qilish bir jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lsa, besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan jazolanadi. Shuningdek, Vengriya Respublikasi Jinoyat kodeksining 242/A-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, ushbu aralashish yoki to'sqinlik fuqarolik ishi bilan yoki intizomiy, hakamlik yoki boshqa har qanday sud ishlari bilan bog'liq bo'lsa yoki sud a'zolarini biror-bir manfaatga qiziqtirsa, besh yildan ko'p bo'lmagan ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan jazolanadi. Bundan tashqari, Vengriya Respublikasida Vengriya bilan bog'liq bo'lgan har qanday xalqaro ishlarni ko'ruvchi Vengriya Xalqaro sudi mavjud bo'lib, ushbu sudning ishlariga aralashish uchun ham Vengri-

ya Respublikasi Jinoyat kodeksining 249/B-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan [31].

Bundan tashqari, Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksida “Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish” jinoyati mustaqil ikki tarkibli jinoyat sifatida mustahkamlangan. Ya’ni Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksining 294<sup>1</sup>-moddasida dastlabki jinoyat protsessiga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, unga ko’ra, tergov faoliyati yo’nalishini o’zgartirish yoki noqonuniy qaror qabul qilishga erishish maqsadida dastlabki jinoyat protsessiga to’sqinlik qilish, aralashish, biror-bir tarzda ta’sir etish ijtimoiy xavfli harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etish, jamoadan ajratib qo’yish, ijtimoiy xizmatlarga jalb etish yoki jarima jazosi bilan jazolanadi [32]. Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa ushbu harakatlar mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, bir yil muddatga muayyan huquqdan mahrum etish yoki ozodlikdan mahrum etish, besh yildan ko’p bo’lmagan muddatga jamoat ishlariga jalb etish yoki ma’lum bir vazifadan ozod etish jazolaridan biri belgilangan.

Shuningdek, Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksining 295-moddasiga 2012-yil dekabr oyida kiritilgan o’zgartirishga ko’ra, sud ishlariga aralashganlik, ya’ni noqonuniy hukm yoki qaror qabul qilish yoki e’lon qilishga erishish uchun biror-bir tarzda sudya, maslahatchilarga ta’sir ko’rsatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va bu uchun uzoq bo’lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki jamoat ishlariga jalb etish jazosi qo’llaniladi. Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa mansabdor shaxslarning sud ishlariga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va bu qilmish uchun bir yildan kam bo’lmagan ozodlikdan mahrum etish va jamoat ishlariga jalb etish bilan birgalikda besh yildan ko’p bo’lmagan mansabdor shaxs lavozimidan ozod etish jazolari qo’llaniladi [33].

### **Xulosalar**

Tadqiqot natijasi sifatida ko’rinadiki, odil sudlovga qarshi jinoyatlar faqat maxsus bobda belgilanmagan normalar MDHning 11 ta davlati JKlarining faqat ikkitasida nazarda tutilgan (Ukraina, Moldova). MDHga a’zo qolgan barcha mamlakatlar JKda tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik aynan “Davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar” bo’limining odil sudlovga qarshi jinoyatlarga tegishli bo-

bida belgilangan. Ayrim davlatlar jinoyat qonunlarida odil sudlovga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik 2 ta moddada mavjud (Qirg’iziston). Demak, MDHga a’zo davlatlarning o’ntasida ushbu jinoyat uchun jazo tayinlash moddalari farq qiladi. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarining tahlili:

*Birinchidan*, barcha xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo’lib, ular jazoga sazovor qilmish hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, ayrim MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligida tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati mansabdorlik jinoyatlariga bag’ishlangan boblarda ifodalanmagan. Bizningcha, mazkur yondashuv to’g’ri emas, chunki bu holat tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatini sud-tergov organlari tomonidan kvalifikatsiya qilish masalalarida bir qancha muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun O’zbekiston JKga tegishli o’zgartirish kiritishda faqat og’irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar to’g’risidagi norma nazarda tutilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan xulosa qilinganda, qiyosiy-huquqiy tadqiq etish, o’z navbatida, xorijiy mamlakatlarda asosiy bo’lgan muammolarni hal qilishda o’zini oqlagan eng samarali omillarning asosini aniqlashga yordam beradi, shu bilan bir qatorda, ushbu davlatlar tajribasining salbiy tomonlarini, u yoki bu huquqiy yechimlarning samarasizligini hisobga olish uchun sharoit vujudga keltiradi.

*Birinchidan*, Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq:

*Tergovga qadar tekshiruv, tergov yoki sud ishlarini hal etishga aralashish – bu jismoniy shaxslar tomonidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya (shuningdek, sudyalarning hay’ati va xalq maslahatchisi)ning normal faoliyat ko’rsatishiga qarshi ta’sir etish (subyektlari fuqarolar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, advokat, davlat yoki nodavlat sud eksperti).*

*Ikkinchidan*, Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati quyidagi jinoyat-huquqiy belgilarga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslantirildi:

– muayyan yuridik alomatlariga ega bo'lgan ijtimoiy-huquqiy hodisa;  
– tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati natijasida, avvalo, davlat manfaatlariga, davlat organlari manfaatlariga, davlat (harbiy) xizmatchisi yoki boshqa fuqarolarning huquqlariga zarar yetkaziladi;

– jinoyat subyektlarining doirasi cheklanganligi (*fuqarolar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, advokat, davlat yoki nodavlat sud eksperti*);  
– jinoyat subyektlari o'z mansab mavqeyidan, xizmat lavozimidan, davlat manfaatlariga zid maqsadlarda foydalanadilar.

## REFERENCES

1. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan July 16, 1997, no. 167 (as amended on 10-04-2020).
2. Bekmagambetov A.B., Revin V.P., Revina V.V. Ugolovnoye pravo Respubliki Kazaxstan. Ocobennaya chast. Uchebnik. 2-oye izd., pererab. i dop. Pod red. Revina V.P. [Criminal law of the Republic of Kazakhstan. The special part. Textbook. 2nd ed., revised and add. Ed. V.P. Revina]. Moscow, Publishing House of the Academy of Natural Sciences, 2017, p. 203.
3. Ugolovniy kodeks Respubliki Kazaxstan ot 3 iyulya 2014 goda № 226-V (s izmeneniyami i dopolneniyami po sostoyaniyu na 02.07.2021 g.) [Criminal Code of the Republic of Kazakhstan dated July 3, 2014 No. 226-B (with amendments and additions as of 02.07.2021)]. Available at: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252/](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252/).
4. Borchashvili I.Sh. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Respubliki Kazaxstan. Osobennaya chast' [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. Special part]. Astana, 2011, p. 120.
5. Xilyuta V.V. Doljnostniye zloupotrebleniya: voprosi pravovoy otsenki i kvalifikatsii. Monografiya [Official abuse: issues of legal assessment and qualifications. Monograph]. Saarbryuken, LAP Lambert Academic Publishing, 2019, p. 328.
6. Molchan S.L., Suhova V.V. Ugolovnoye pravo. Uchebno-metodicheskoye posobiye [Criminal law. Teaching aid]. Gorki, Belarusian State Agricultural Academy, 2019, p. 184.
7. Criminal Code of the Republic of Belarus of July 9, 1999, no. 275-Z (as amended on 11-11-2019).
8. The Criminal Code of the Russian Federation No. 63-Fz Of June 13, 1996 (as amended on 04-04-2020).
9. Ugolovniy kodeks Rossiyskoy Federatsii ot 13.06.1996 N 63-FZ, red. ot 01.07.2021, s izm. i dop., vstup. v silu s 22.08.2021 [The Criminal Code of the Russian Federation of 13.06.1996 N 63-FZ, rev. from 01.07.2021, as amended and additional, entry. in force from 22.08.2021].
10. Ugolovnoye pravo. Osobennaya chast. V 2 t. Tom 1. Uchebnik dlya vuzov. I.A. Podroykina [i dr.]; otvetstvenniy redaktor I.A. Podroykina, E.V. Seregina, S. I. Ulezko. 5-e izd., pererab. i dop. [Criminal law. Particularly frequent. In 2 volumes, vol. 1. Textbook for universities. I.A. Podroykin [and others]; responsible editor I.A. Podroykina, E.V. Seregina, S. I. Ulezko. 5th ed., rev. and add.]. Moscow, Yurayt, 2020, p. 142.
11. Shtrafy za hamstvo dlja chinovnikov – Gosudarstvennoj dumoj prinjat novyj zakon [Fines for rudeness for officials - the State Duma adopted a new law]. Available at: <http://prokuror-kaluga.ru/razyasnenie-6262.html/>.
12. Criminal Code of the Republic of Ukraine of April 5, 2001 No. 2341-III (as amended on 13-04-2020)
13. Abz. 3 p. 13 postanovleniya Plenuma Verxovnogo Suda Ukraini ot 12 aprelya 1996 [Abs. z clause 13 of the resolution of the Plenum of the Supreme Court of Ukraine dated April 12, 1996]. P. 4.
14. Ugolovniy kodeks Ukraini. Kommentariy. Pod redaktsiyey Y.A. Karmazina i E.L. Strelsova [Criminal Code of Ukraine. A comment. Under the editorship of I.A. Karmazin and E.L. Strelsova]. Harkov, LLC Odyssey, 2001, p. 960.
15. Criminal code of the Republic of Tajikistan of May 21, 1998 (as amended on 04/20/2021).
16. Kamolov Z.A. Ponyatiye i priznaki sistemi nakazaniya po Ugolovnomu kodeksu respubliki Tadjikistan [The concept and features of the punishment system under the Criminal Code of the Republic of Tajikistan]. Rossiyskiy sledovatel – Russian investigator, 2010, no. 3, pp. 24–26.
17. Smirnov A.V., Kalinovskiy K.B. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Turkmenistana. Postateyniy. Pod obsh. red. prof. A.V. Smirnova [Commentary on the Criminal Code of Turkmenistan. Article by article. Under total. ed. prof. A.V. Smirnova]. 2013, p. 638.

18. Criminal code of Turkmenistan of June 12, 1997, no. 222-1 (as amended on 30-11-2019).
19. Criminal code of the Kyrgyz Republic of february 2, 2017. no. 19 (as amended on 03-04-2020).
20. Ugolovnoye pravo Azerbaydjanskoy Respubliki. Uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnosti "Yurisprudensiya". I.B. Agayev, V.P. Revin [Criminal law of the Republic of Azerbaijan. A textbook for university students studying in the specialty "Jurisprudence". I.V. Agaev, V.P. Revin]. Moscow, Yurist, 2010. Ulyanovsk, Ulyanovskiy Dom pechati, p. 640.
21. Kommentariy Ugolvnogo kodeksa Azerbaydjanskoy Respubliki. Pod obsh. red. F. Y. Samandarova [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Under total. ed. F.I.Samandarova]. Baku, Digesta, 2011, p. 990.
22. Criminal code of the Azerbaijan Republic of December 30, 1999 (as amended on 04/23/2021).
23. Imanli M.N. Ugolovnoye pravo. Osobennaya chast. Uchebnik [Criminal law. The special part. Textbook]. Baku, 2019, p. 155.
24. Criminal code of The Republic of Armenia of April 29, 2003, no. ZR-528 (as amended on 20.08.2021),
25. Ugolovnoye pravo Armenii i Rossii. Obshaya i Osobennaya chasti. Otv. red. S.S. Avetisyan, A.I. Chuchayev [Criminal law of Armenia and Russia. General and Special parts. Resp. ed. S.S. Avetisyan, A.I. Chuchaev]. Moscow, CONTRACT, 2014, p. 190.
26. Criminal Code Of The Republic Of Moldova of April 18, 2002, no. 21-II (amended 04/23/2021).
27. Bujor V.G, Gusulyak V.I., Spinu I.A. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Respubliki Moldova (obshaya chast) [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Moldova (general part)]. Kishinev, Kishineu, 2010, p. 227.
28. Criminal Code of Georgia. No. 2287 of 22 July 1999 (as amended 04/23/2021).
29. Germaniya Asosiy Qonuni, 95-modda, 1-va 3-qismlar [German Basic Law, Article 95, Parts 1 and 3].
30. Criminal code of the Republic of Albania Consolidated version as of October 13, 2021 Criminal Code of the Republic of Albania Law No. 7895, dated 27 January 1995.
31. The Criminal Code of the Republic of Hungary Act IV of 1978. Section 242/A, Section 249/B.
32. The Criminal Law of the Republic of Latvia. This Law has been adopted by the Saeima on 17 June 1998. This Law shall come into force on 1 July 2009. Section 294.1 Interference in the Pre-trial Criminal Proceedings.
33. The Criminal Law of the Republic of Latvia. This Law has been adopted by the Saeima on 17 June 1998. This Law shall come into force on 1 July 2009. Section 295. Interference in a Trial of a Matter.

UDC: 343.9

ORCID: 0000-0002-9758-5265

## IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI SOXTA XABARLAR VA ULARGA BELGILANGAN QONUNIIY CHORA YO'SINLARI

**Abrorov Javohir Ismatullayevich,**  
Qoraqalpoq davlat universiteti  
Yuridik fakulteti talabasi  
e-mail: yuristuz411@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada internet foydalanuvchilari tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oqibatlarini bayon etilgan. Maqolada yoritilgan muammo mazmunining nechog'lik dolzarbligi birgina jamiyat doirasi bilangina cheklanib qolmasdan, davlat siyosatiga molik masalalar ekanligi taqdim etilgan ma'lumotlarga tayanilganligi asoslab berilgan. Qonun buzilish holatlari dalillarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, muammoning ilmiy ishlab chiqish darajasi, bunga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmuni yoritilgan. Maqolada bunday holatlarni bartaraf etish xorij tajribasiga asoslangan holda o'rganilishi lozimligi, bu borada mutaxassislarining bergan ilmiy xulosa va takliflari bayon etilgan. Soxta xabarlarining tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qanday holatlarda yuzaga kelishi o'rganilgan. Bunday jinoyatlar sodir etilsa-da, qonunbuzarlarga qonuniy chora ko'rish yo'llari mavjud emasligi, hali hamon kamchiliklar mavjudligi dalilii isbotlar bilan yoritilgan. Xo'sh, O'zbekistonda bunga nisbatan qanday chora-tadbirlar ko'rilayotgani, qonunchilikning bunga fikri qandayligi atroflicha o'rganilgan. O'zbekiston uchun soxta xabarlar mavzusi nima uchun muhimligi analiz qilingan. Olingan ma'lumotlarga tayangan holda yakuniy yechim va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** feyk xabarlar, axborot erkinligi prinsipi, virtual resurslar, deep-fakes, kiberjinoyatchilik, kiberxavfsizlik tashkilotlari, media-savodxonlik dasturi.

### ПОДДЕЛЬНЫЕ СООБЩЕНИЯ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ И СПОСОБЫ СУДЕБНОГО ПРЕСЛЕДОВАНИЯ ПРОТИВ НИХ

**Аброров Джавахир Исматуллаевич,**  
студент юридического факультета  
Каракалпакского государственного университета

**Аннотация.** В этой статье описаны последствия преступлений, совершенных пользователями Интернета. Статья рассматривает актуальную проблему, на основании предоставленной информации сделан вывод о том, что данная проблема не ограничивается рамками общественных интересов, а является вопросом государственной политики. Освещается уровень научной разработки проблемы и содержание научных исследований по ней. Пути устранения проблемных вопросов изучены исходя из зарубежного опыта, описаны научные выводы и рекомендации специалистов по этому поводу. Проанализированы основные факторы, влияющие на распространение фейковых новостей, причины отсутствия правовых мер против правонарушителей, даже если доказано, что преступления совершены. Изучены меры, принимаемые в Узбекистане в этом направлении, и как это отражено в законодательстве. Выявлено, почему тема фейковых новостей актуальна для Узбекистана. На основании полученных результатов сделаны выводы и даны рекомендации.

**Ключевые слова:** фейковые сообщения, принцип свободы информации, виртуальные ресурсы, дипфейки, киберпреступность, организация кибербезопасности, программа медиаграмотности.

## FAKE MESSAGES ON SOCIAL NETWORKS AND WAYS TO TAKE LEGAL ACTION AGAINST THEM

**Abrorov Javohir Ismatullaevich,**

Student of the Faculty of Law of Karakalpak State University

**Abstract.** This article describes the consequences of crimes committed by internet users. The article is based on the relevance of the problem, based on the information provided that it is not limited to the scope of society, but is a matter of public policy. Violations have been analyzed based on evidence. At the same time, the level of scientific development of the problem, the content of scientific research on it are covered. The elimination of such cases should be studied on the basis of foreign experience, the scientific conclusions and recommendations of experts in this regard are described. The main factors influencing the spread of fake news have been studied. It has been discussed that there is no way to take legal action against offenders, there are still flaws highlighted by the evidence. The measures being taken in Uzbekistan in this regard, and what the legislation thinks about it and the question why the topic of fake news is important for Uzbekistan are analysed in this article. Based on the information received, the final solution and recommendations are provided.

**Keywords:** Fake messages, the principle of freedom of information, virtual resources, deep-fakes, cybercrime, cybersecurity organizations, media literacy program.

Fikr erkinligi – insonning asosiy huquqlaridan biri. O‘z nuqtayi nazarini ifoda etish va erkin gapirish jamiyatdagi o‘zgarishlar uchun muhimdir. So‘z erkinligisiz hech qanday huquqlarga erishish mumkin emas. Ammo bu kabi holatlar fikr erkinligiga kirmaydi, soxta va uydirma ma‘lumot to‘qib, o‘zgani haqoratlashdan boshqasi emas.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining xolis va adolatli, tezkor va aniq bo‘lishi uchun qat’iy qoidalar mavjud. Misol uchun, Konstitutsiyasida so‘z erkinligiga bo‘lgan huquqni quyidagi hollarda istisno qiladi: odobsizlik, ustidan kulish (bulling), tuhmat (uydirma, bo‘xton), bolalar pornografiyasi, yolg‘on guvohlik berish, shantaj, noqonuniy harakatlarga da‘vat qilish, haqiqiy tahdid va jinoyatlarga da‘vat qilish [1].

Ijtimoiy tarmoqlar asrida tarmoq foydalanuvchisi qarshisida haqqoniy axborotni yolg‘onidan ajratish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Gap faqat noaniq fakt va ma‘lumotlar to‘g‘risida emas, balki avval boshdan biron maqsadni ko‘zlab ataylab to‘qilgan yolg‘on xabarlar, ya‘ni feyklar haqida bormoqda.

Feyklar ichki va tashqi siyosatga ta’sir o‘tkazadi, xususan, mamlakatlararo ziddiyatlarni kuchaytiradi, saylovchilarni va davlat miqyosida muhim qarorlar qabul qiluvchi shaxslarni chalg‘itadi, oddiy insonlarning kundalik maishiy hayoti va ruhiy xotirjamligiga putur yetkazadi.

Fikrimiz isbotiga quyidagi ikki misolni keltiramiz:

1-keys. Vashingtonda otishma. 2016-yil Xillari Klinton xonimning yosh bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotga aloqadorligi haqidagi yolg‘on xabarga ishongan 28 yashar shaxs Comet Ping Pong pitsseriyasiga to‘pponcha bilan kirib keladi va muassasa sohibini ham shu tashkilotga a‘zo degan gumonda unga qarata o‘q uza boshlaydi. Yaxshiki, bunda hech kim jiddiy zararlanmadi [2].

2-keys. 2016-yilning dekabrda Pokiston mudofaa vaziri Xavoja Asif o‘zining Twitter sahifasida “Isroil Islomobodga yadro quroli bilan po‘pisa qildi, ammo Tel-Aviv Pokistonda ham yadro quroli borligini unutmasin” degan mazmunda tvit yozib qoldirdi. Vazir AWD News saytida e‘lon qilingan feyk xabarga ishonib bu tvitni yozgan edi. Isroil mazkur xabar yolg‘on ekanini isbotlash uchun ancha ovora bo‘ldi. Birgina yolg‘on xabar mamlakatlararo siyosiy inqirozga sabab bo‘layozdi [3].

Ko‘rinib turganidek, yolg‘on xabarlar haqida hokimiyatda katta vakolat va kuchga ega insonlar, saylovchilar, kasallarni davolovchi shifokorlar, umuman, muhim qarorlar qabul qiluvchi insonlar ishonib qo‘yishlari mumkin. Bu esa juda jiddiy oqibatlar olib kelishini taxmin qilish qiyin emas. Bugungi kunda feyklardan kelayotgan xavf ko‘lamini to‘g‘ri baholab, ularga qarshi davlat miqyosida kurashish tendensiyasi dunyo davlatlari orasida tobora rivojlanib borayotganini ko‘rish mumkin.

Ayniqsa, “deep-fakes” (sun‘iy aql ishtirokida soxta axborot, foto va videomateriallarni

tayyorlash) avj olib borayotgani kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan, yolg'on xabarlar mavzusi yirik muhokama maydonlarida tez-tez tilga olinmoqda. Jumladan, 2019-yil 21-22-fevralda Venada bo'lib o'tgan YEXHT Parlament assambleyasining qishki sessiyasida [4] bu mavzu diqqat e'tiborda turdi. Bundan tashqari, 2019-yilgi Xalqaro Peterburg yuridik forumi ham "Feyk-nyus borasidagi qonunchilikka OAVning munosabati: Rossiya va jahon tajribasi" mavzusida o'tkazildi [5]. Feyklarga qarshi kurash strategiyasini izlab topish hozirda qator Yevropa mamlakatlari va AQShning prioritetlari qatoridan joy olgan.

Fayk news o'zi nima?

Feyk – ingliz tilidagi "fake", ya'ni soxta, uydirma, yolg'on so'zidan olingan. Bu o'zbek tiliga, ayniqsa, ijtimoiy tarmoq tomonidan to'g'ridan to'g'ri kiritilmoqda. Umuman olganda feyk – asosan internet kanallari orqali tarqatilishi urf bo'layotgan soxta xabarlar yoki ma'lumotlardan iborat [6].

Soxta yangiliklar fenomeni qachon paydo bo'lganligini aniqlash qiyin, ammo yolg'on xabarlar doimo ziddiyatlar asosida yaratiladi. Jahonda sodir bo'layotgan urushlar, diniy va milliy ziddiyatlar, ichki siyosiy nizolarning barchasining asosida yolg'on xabarlar yotib, ularni kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Feyk xabarlarni tarqatishdan asosiy maqsad e'tiborni tortish, yolg'on xabarlariga foydalanuvchilarni ishontirish, jamiyatda amaldagi hukumatga nisbatan ishonchsizlikni hosil qilish. Bu biz ahamiyat bermayotgan mayda, ammo asorati katta bo'lgan muammolardan biridir. Sababi hozirgi kunda aholining 51 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi 2020-yil iyul oyidagi ma'lumotlariga ko'ra, 3,96 milliard kishi (dunyo aholisining 51%) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. O'zbekistonda 2020-yil yanvar oyida bu ko'rsatkich 3,2 million kishiga yetdi [7]. 2018-yil boshida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bergan ma'lumotiga binoan O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 20 milliondan oshgan. Ijtimoiy tarmoqlarning (Facebook, Instagram, Telegram) faol kundalik auditoriyasi 1,6 mln foydalanuvchini tashkil etadi [8].

Har qanday noto'g'ri xabar feyk bo'ladimi?

– Yo'q, har qanday noto'g'ri ma'lumot ham feyk bo'lavermaydi. Bunda ushbu ma'lumotning kelib chiqishi va uni tarqatishdan ko'zlangan

maqsad muhim rol o'ynaydi. Masalan, ob-havo ma'lumotlarini tarqatuvchi "bugun yomg'ir yog'maydi" desa, bunday deyishga ilmiy-tadqiqiy asoslari bo'lsa, ammo yomg'ir yog'sa, ushbu ma'lumot feyk hisoblanmaydi. Biroq bugun yomg'ir yog'ish-yog'masligi haqida umuman ma'lumotga ega bo'lmay, "yomg'ir yog'adi" deya ataydan yolg'on ma'lumot tarqatsa, feyk bo'ladi.

Feyklarning oddiy jurnalistlik xatolaridan farqi shuki, ular avval boshdanoq ma'lum manfaatlarni ko'zlab, ataydan to'qib chiqariladi va tarqatiladi. Shu sababli ham jahon tajribasida yolg'on axborot tarqatganlik uchun javobgarlik aynan "avvaldan bila turib ataydan tayyorlash va tarqatish" holatlariga nisbatan tatbiq etilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni axborot tarqatuvchining noto'g'ri ma'lumotni tarqatishda uning noto'g'ri ekanini bilishi va bundan biron manfaat-maqsad ko'zlagani isbotlanishi lozim. Olaylik, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi u yoki bu ma'lumotning rostligiga ishonib, uni o'z sahifasida ulashsa, bu huquqbuzarlik emas, biroq ma'lumotning yolg'onligini bilib turib uni yaratsa va/yoki uni tarqatishda ishtirok etsa, huquqbuzarlik deb qaraladi. Bunda tarqatilgan ma'lumotning feyk yoki xato deb tan olinishini mansabdor shaxs emas, sud hal qiladi [9].

Ba'zan odamlar yolg'onligi aniq bo'lib turgan axborotga ko'proq ishonishadi. Chunki inson tabiatida yolg'onga ishonish kuchliroq. Yolg'on xabarda kimningdir sha'niga nisbatan salbiy fikrlar bo'ladi, u, albatta, tanqidiy bo'ladi. Axborot oluvchilar odatda haqiqiy holat baribir yashiriladi, degan gumonda yolg'on mazmundagi axborotga ko'proq ishonadi. Shuning uchun yolg'on axborot qanday ko'rinishda bo'lmasin, unga ishonch kuchliroq va haqiqat yuzaga chiqquniga qadar odamlar orasida aylanib yuradi. Bu bir tomondan, axborotni o'z vaqtida oshkor qilmaslik bilan ham bog'liq. Shuning uchun feyk xabarlarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi oson. U yoki bu axborot rasmiy manbalarda chop etilmagach, turli kanallarda, bu sohada professional bo'lmagan insonlar tomonidan voqealarning noto'g'ri talqin qilingan holda tarqalishi mana shunday oqibatlarini ham keltirib chiqaradi.

Soxta yangiliklarning tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bu axborot mahsulotlarini ishlab chiqarishda media institutlari tomonidan monopoliyani yo'qotishdir. 50 yoki

70 yil oldin, ommaviy aloqani ilmiy asoslashga urinishlar yangi boshlanganda, yangiliklar mahsulotlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan asosiy ommaviy axborot vositalari institutlari, ya'ni yirik gazetalar, nashriyotlar, televizion studiyalar, media-konglomeratlar, davlat kanallari va boshqa yirik o'yinchilarning media bozori vakillari bo'lgan. Bu, birinchi navbatda, televizion eshittirish juda ko'p resurslarni talab qiluvchi jarayon bo'lganligi va gazetalarni ommaviy bosib chiqarish moddiy resurslarning katta xarajatlari va boshqa ko'plab muassasalar bilan aloqalarni o'rnatish zarurati bilan bog'liqligi bilan izohlana-di [10].

Muammoni ilmiy ishlab chiqish darajasi haqida gapiradigan bo'lsak. Axborot muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan soxta yangiliklar qator rus va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlari doirasidir. Soxta yangiliklarning taniqli yaratuvchisi Mil Grnkarov soxta ma'lumotni yaratish soddaligi va uni fosh etishning o'ta qiyinligi haqida shunday deydi: "Ko'pgina soxta yangiliklar oddiy odamlar tomonidan yoziladi. Bir narsa aniq: soxta yangiliklarni to'qish va tarqatish uni aniqlash va fosh etishdan ko'ra ancha osondir" [11]. Mil Grnkarov 13 yoshida soxta yangiliklardan foydalanishni boshladi. Makedoniyadan Siyosatshunoslik va biznesni boshqarish yo'nalishida tahsil olgan talaba sifatida Mil dunyo miqyosidagi muhim saylovlarda diqqat markazida bo'lgan. Mashxur prodyuser Gay Kampanelli o'z nutqida "Biz gaplashayotgan narsa – bu havodan to'qib chiqarilgan hikoyalar. Ko'pgina o'lchovlar bo'yicha, ataylab va har qanday ta'rifga ko'ra bu yolg'ondir" [12], deb ta'rif beradi.

Soxta yangiliklar: nega bu muammo va u bilan qanday kurashish mumkin?

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra dastlab alohida shaxslar yoki turli e'tiqotdagi kichik guruhlar tomonidan amalga oshirilib kelingan "badnom qilish" usuli keyinchalik tartibli usulda ma'lum mavqega ega jurnalistlar, siyosatchilar hamda mansabdor shaxslarga nisbatan keng qoralovchi usulga aylandi [13].

Soxta yangiliklar atamasiga 2015-yildan beri ko'proq e'tibor berilib kelinmoqda. Afsuski, dunyoda yagona qabul qilingan atama yo'q, ammo olimlar, jurnalistlar va siyosatchilar ushbu mavzuni faol muhokama qilishmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra, tekshirish ma'lumot bilan ish-

lash usullaridan biri, faktlarni tekshirish esa materiallarni tayyorlash formatidir [14].

Nima uchun soxta yangiliklar juda qiyin muammo?

Bu yerda ikkita omil muhim rol o'ynaydi.

Birinchi, psixologik omil. Soxta narsalar bizning e'tiborimizni bir zumda jalb qiladigan hissiyotlarga, rang-barang va ba'zan haqiqiy bo'lmagan sarlavhalarga asoslangan. Masalan, agar siz alkohol koronavirusni yengib o'tishga qodir deb hisoblasangiz, u holda alkoholning samaradorligini tasdiqlaydigan yangiliklarga duch kelsangiz, ehtimol siz uni "tibbiy maqsadlar" uchun ishlatgansiz.

Ikkinchi omil – bu insonning kundalik hayotida ijtimoiy sahifalar rolining tez o'sishi. Facebook, Twitter, YouTube va Google kabi texnik gigantlar muammoni tekshiruvchi kompaniyalarni yollash orqali muammoni hal qilishga urinmoqdalar, ammo bu ham epidemiyani to'xtata olmadi. Muammo, biz allaqachon ko'rib chiqqanimizdek, nafaqat tabiatan texnologik, balki psixologik hamdir.

Soxta yangiliklarni kim yaratadi

Kipr Texnologiya universiteti va Birmingemda-gi Alabama universiteti olimlari quyidagi bo'linishni taklif qilishadi:

- Terroristik tashkilotlar. Ijtimoiy sahifalar ular uchun yangi a'zolari jalb qilish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

- Trollar. Xuddi shu ro'yxatda olimlar trollarni kiritishni taklif qilmoqdalar, ular o'zlarining fikriga ko'ra Internetning boshqa foydalanuvchilarini bezovta qilish va ularga aralashish uchun ishlaydi. Bunga Aziza Umarovanning ishi kiradi, u 2019-yilda "O'zbekiston havo yo'llari"ni tanqid qilgandan so'ng trollarning faollashishini e'lon qildi [15]. Trolling ko'pincha satira bilan aralashadi, shuning uchun olimlar va jurnalistlar hali ham aniq chegaralarni aniqlay olmaydilar.

- Iqtisodiy foydadan manfaatdor odamlar. Soxta yangiliklar butun kompaniyalarni xarob bo'lishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun manfaatdor tomonlar raqobatchilarga qarshi mish-mishlar va yolg'on yangiliklarni tarqatishga kirishadilar.

- Jurnalistlar. Shuni esda tutish kerakki, ayrim hollarda jurnalistlar bosim ostida, ko'pincha – vaqt omili bosimi ostida, xabardorlik darajasi, manbalarning to'g'riligi, shuningdek davlat organlari tomonidan ma'lumotni yashirish yoki buzib ko'rsatishda ishlaydi.

Ko'sh, O'zbekistonda bunga nisbatan qanday chora-tadbirlar ko'rilyapti? O'zbekiston uchun soxta xabarlar mavzusi nima uchun muhim?

Butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlar allaqachon jamoatchilik fikrini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan virtual makonga aylandi.

Afsuski, bunda ta'sir usullari va vositalari doim ham qonuniy, to'g'ri va maqsadga muvofiq tanlanmayapti. Yuqorida biz feyklarining turli maqsadlar yo'lida qo'llaniladigan yuqori samarali, ammo oqibatlarini taxmin qilish mushkul bo'lgan vosita ekanini aytib o'tdik. Masalaga bugun ijtimoiy tarmoqlar o'zbek segmenti misolida qarasak, muammolarni yanada aniq ko'ramiz. Masalan, yerqalampirni koronavirusga davo degan feyk ortidan moddiy foyda ko'rishdan tortib, u yoki bu amaldorni "o'ldi-qamaldi"ga chiqarib, asossiz xavotir uyg'otish orqali omma ongini manipulyatsiya qilishga urinishgacha.

Fake xabarlarga qarshi kurashda aholining mediasavodxonligini oshirishdan tortib, ushbu masalani qonun orqali tartibga solishgacha bo'lgan qilinadigan qator masalalarga yechim topish lozim.

Xususan, Milliy qonunchiligimizda feyk xabarlarini tarqatganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Ma'muriy va Jinoyat kodekslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ijtimoiy muhim ahamiyatga molik masalalarda yolg'on ma'lumotlarni haqiqiy deb taqdim etishga javobgarlik belgilanmagan.

Ayrim faol internet foydalanuvchilarida axborot madaniyatining past darajadaligi hamda mas'uliyatsizlik va jazoga tortilmaslik tuyg'usi sabab aholi orasida sarosimaga va ijtimoiy munosabatlarning beqarorlashuviga olib keluvchi yolg'on axborotlar va uydirmalar faol tarqatilayotgani kuzatilmoqda.

Bu holat, o'z navbatida, mamlakat hayotidagi jarayonlar va voqealarga nisbatan jamoatchilikning asossiz salbiy fikri shakllanishi to'g'risidagi xavotirlarga sabab bo'lmoqda. Zero, ko'pchilik fuqarolar mazkur xabarlarini haqiqiy va to'g'ri deb qabul qiladi. Shu bois bugun ushbu harakatlar uchun javobgarlik masalasi kun tartibiga chiqdi.

Ayni masalaga yondashishda tartibga solishni senzura bilan adashtirmaslik, me'yor va mezonlarni aniq belgilab olish hamda qaror qabul

qilish vakolati sudlarda ekanini unutmaslik lozim.

Bu kabi holatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish va ma'lumotlarni uzatishdagi qonunga xilof harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarligi kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublika qonun-hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi 2007-yil 30-noyabr qonunida kompyuter tizimida noqonuniy foydalanish bilan bog'liq xavfli qilmishlar jinoyat deb belgilandi hamda jinoyat kodeksi "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" nomi bilan XX bob bilan toldirildi. Mazkur bob Jinoyat kodeksi maxsus qismining "Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan oltinchi bo'limga kiritildi [16]. Butun dunyodagi kabi O'zbekistonda ham mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qonunlar mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar", deb yozilgan. "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida "Axborot olish erkinligining asosiy prinsiplari axborotning oshkoraligi, hamma olishi mumkinligi, ochiqligi va haqqoniyligidan iboratdir" deyilgan. Bular tashqari, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga ko'ra: "Axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi".

Ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri ma'lumotlarni rad etish holatlari tez-tez uchrayotganiga e'tibor berganmisiz? Masalan, O'zbekistondagi blokirovka davomida karantin choralarining uzaytirilishi, Toshkentda ko'k rangdan foydalanishni taqiqlash va hattoki "monster"ning tommlarida uchib yurgani haqida rad etishlar bir necha bor e'lon qilingan.

O'zbekistonda AntiFake.Uz [17] soxta yangiliklarini rad etish uchun maxsus kanal ochildi. Shuningdek, 2020-yil dekabr oyida O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari yolg'on ma'lumotni, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va Internetda tarqatganlik uchun ma'muriy jazo choralari va jinoiy jazoni joriy etish to'g'risidagi qonun loyihasini ma'qulladilar.

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on ma'lumotlarga qarshi kurashish bo'yicha birorta qo'mita tashkil qilinmagan. To'g'ri diniy ekstremizm, terrorizm hamda davlatga qarshi qaratilgan ma'lumotlarni aniqlash-kurashish bo'yicha qo'mita tuzilgan, ammo bu qo'mita yolg'on ma'lumotlar bilan ish ko'rmaydi. Mart oyida O'zbekistonda Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritilib, karantin haqida yolg'on ma'lumotlarni tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan edi, deya xabar bergan o'sha paytda OAV. Yolg'on xabarlariga qarshi kurashish maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlarining va umuman aholi barcha qatlamining o'rni katta. Yolg'on axborot qancha tez tarqalsa, shuncha tez unga qarshi to'g'ri va xolis axborotni iste'molchilar e'tiboriga yetkazish talab qilinadi. 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi 400-I-son Qonunning 5-moddasida har kim axborot olishni so'rab bevosita o'zi yoxud qonuniy vakillari orqali murojaat etish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan [18].

Qonunning 121-moddasida hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni Internetda tarqatish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, qaysi turdagi axborot turlari Internetda tarqatilmaligi nomma-nom ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, moddada veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan blogger hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog'idagi o'z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni joylashtirishdan avval uning to'g'riligini tekshirishi, shuningdek joylashtirilgan axborotning noto'g'riligi aniqlangan taqdirda uni darhol o'chirib tashlashi shartligi ko'rsatilgan.

1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi 723-I-son Qonunda noto'g'ri va yashirin reklama tushunchalarining mavjudligi yolg'on reklamaga qarshi kurashish bo'yicha normativ asos borligini ko'rsatadi.

Shu sababli yolg'on axborotga qarshi kurashish bo'yicha alohida qonun hujjati ishlab chiqishning zarurati yo'q. Faqatgina ularga nisbatan kurashni kuchaytirish maqsadida qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi. Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasi 3-qismida belgilangan talablarga

amal qilinmagan taqdirda veb-saytdan va (yoki) veb-sayt sahifasidan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan cheklanishi mumkin.

Ammo amalda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanaqa tartib belgilanganligi va qanday organ maxsus vakolatli organ hisoblanishi to'g'risida amaldagi qonunchilikda biron-bir normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunda shaxslar qatori yolg'on ma'lumotlarni tarqatgan ommaviy axborot vositasiga ushbu fakt-ni OAVning o'zi aniqlagan hollarda o'z tashabbusiga ko'ra axborot bo'yicha raddiya berish huquqini berish kerak.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga belgilangan o'zgartirishlarni kiritgan holda yolg'on ma'lumotlarni bila turib tarqatganlik uchun javobgarlikni kiritish maqsadga muvofiq [19].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 237-moddasiga yolg'on xabar berganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida jinoyat to'g'risida berilgan yolg'on xabar aholi o'rtasida vahima yoki qo'rquv chiqargan holatlarni kiritish lozim bo'ladi [20].

Xorijiy davlatlar tajribasi nimalarga e'tibor qaratayotganini o'rganishimiz muhim. Jumladan, Malayziyada 2018-yil aprelda "Yolg'on xabarlariga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, ya'ni 2018-yilning avgust oyida mazkur qonun bekor qilindi. Bunga jamoatchilikning Qonunga e'tirozi, huquq himoyachilarining noroziligi sabab bo'ldi. Ularning fikricha, qonun fuqarolarning so'z erkinligiga bo'lgan huquqini cheklashni ko'zlagan. Qonun o'zi amalda bo'lgan davr mobaynida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan edi.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tomonidan yolg'on xabar tarqatayotgan ommaviy axborot vositalariga nisbatan ta'sir choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi qonun qabul qilinishi e'lon qilindi. Shunga qaramay Fransiya Milliy Majlisi quyi palatasi "Yolg'on xabarga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun loyihasini ma'qulladi. Agar mazkur qonun kuchga kirs, fransuz sudlari ommaviy axborot vositasini ularning ishonchligi bo'yicha kelib tushgan shikoyatga ko'ra bloklab

qo'yish vakolatiga ega bo'ladi va 48 soat ichida axborotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlaydi.

Rossiya Federatsiyasi Federatsiya Kengashi-ning quyi palatasi – Davlat Dumasi tomonidan ham 2019-yil yanvaridan boshlab yolg'on xabarga qarshi kurashish maqsadida "Axborot, axborot texnologiyalari va axborot himoyasi to'g'risida"gi va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi federal qonunlarga o'zgartirishlar kiritish ustida ishlanmoqda. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi ham. 2019-yil 13-mart kuni Rossiya Federatsiya Kengashi yolg'on xabarlar tarqatgan resurslarni bloklash va jazolash ko'zda tutilgan qonun loyihasini ma'qulladi.

Ukraina Oliy Radada yolg'on xabarlarga qarshi kurash maqsadida bir nechta variantlar ilgari surilgan. Ulardan biri yolg'on xabar tarqatgan jurnalistlarni sud qaroriga muvofiq ommaviy reyestriga kiritishdir. Shuningdek, yolg'on xabar tarqatganlik uchun katta miqdordagi jarimalar qo'llash ham taklif etilmoqda.

Fransiya, Rossiya va Ukrainada ilgari surilayotgan qonun loyihalarida asosiy urg'u yolg'on xabar tarqatgan jurnalistlar va ular faoliyat olib boradigan ommaviy axborot vositalariga nisbatan qaratilgan. Ulardan farqli ravishda Malayziya tomonidan qabul qilinib, bekor qilingan qonunda javobgarlik subyekti nafaqat jurnalist yoki ommaviy axborot vositasi, balki jismoniy hatto yuridik shaxslarning ham javobgarligi nazarda tutilgan.

Buyuk Britaniyada Internetdagi feyklar va manipulyatsiyalarga qarshi kurashish keng tus olgan. Hozirgi kunda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan internet tartibga solish prinsiplarini o'zida aks ettiruvchi Raqamli xartiyani qabul qilish ustida ish olib borilmoqda. Buning uchun ko'ngillilar, IT-kompaniyalar, ta'lim muassasalari, aholi va jamoatchilik tashkilotlari jalb qilingan.

Mediada savodxonlik kampaniyasi Kanadada ham keng qo'llanilmoqda. 2019-yilda Kanadadagi parlament saylovlari oldidan rasmiylar dezinformatsiya va saylovlarning aralashuviga qarshi kurashish uchun hukumatning maxsus guruhini tuzdilar. Singapurda media-savodxonlik dasturi ishga tushirildi. Internetda yolg'on ma'lumot tarqatadigan odamlar javobgarlikka tortiladilar. Ummonda hukumat davlat xizmatchilarining malakasini oshirmoqda, ammo mamlakatda qat'iy qonunlar ham mavjud.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti COVID-19 pandemiyasi paytida dezinformatsiya tarqalishiga qarshi kurashning beshta usulini taklif qildi. Bularga dalillarni yig'ish va ishonchli ma'lumotlarni tarqatish, yirik telekommunikatsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda kampaniyalarni boshlash, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqalar va fuqarolik jamiyati bilan ishlash kiradi. Shuningdek, BMT so'z erkinligi tamoyillariga rioya qilish zarurligini eslatdi.

Soxta yangiliklar muommosiga huquqiy yechim bormi?

Yolg'on ma'lumotlarni tarqatayotgan trollarni qay tarzda jazoga tortish mumkin?

Qisqa javob "ha", ammo bu unchalik oddiy emas. Mamlakatlar, jurnalistlar, akademiklar va siyosatchilar dezinformatsiya va yolg'on ma'lumotlarga qarshi kurashishning turli usullarini qo'llashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida Internetda tarqaluvchi yolg'on xabarlarga qarshi kurashuvchi alohida qonun hujjati mavjud emas. Lekin axborot, axborotlashtirish va reklama sohalarini, ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari mavjud. Shu sababli o'rganilgan xorij davlatlari tajribasidan kelib chiqqan holda mavjud qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan vujudga kelgan huquq bo'shliqlarini bartaraf etish mumkin.

Albatta, tanganing ikki tomonini ko'ra bilish lozim. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi do'stlar orttiriladi, mavjudlari bilan aloqalar mustahkamlab boriladi, uydan yoki ofisdan chiqmay turib xaridlar qilinadi, mahsulot narxlari haqida ma'lumotga ega bo'linadi va yangiliklardan soniyalar ichida xabardor bo'lish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining yarmi brend mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarining sahifalariga obuna bo'lishgan.

Tanganing ikkinchi tomoniga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularning ba'zilar bu orqali piar yaratish, ba'zilar kimlardir obro'sizlantirishni, aholi o'rtasida vahima uyg'otishni, turli bo'htonlar tarqatib, davlat hokimiyati organlari obro'sini to'kishni maqsad qilgan. Shu sababli dunyo davlatlari Internetda tarqatilayotgan yolg'on xabarlarga qarshi kurashish, ularning salbiy oqibatlari ni bartaraf etish bo'yicha fikr yuritmoqda.

Hodisa aybdorlari to'g'risida yolg'on faktorlarni ma'lum qilish, masalan, aslida umuman hodisaga aloqador bo'lmagan shaxslarni hodisa ishtirokchisi, hodisa aybdori sifatida ko'rsatganlik uchun javobgarlik masalalari qonunchilikda bayon etilmagan.

Amalda mamlakatimizda yolg'on axborotlarni tarqatishga qarshi quyidagicha holat mavjud:

O'zini bechorahol, og'ir bemor sifatida yoki shunday turdagi bemorlarni davolovchi, yaxshi odamlarning xayr-ehsoni hisobiga boyishni maqsad qilgan shaxslarni insonlarning ishonchini suiiste'mol qilib, boylik orttirishni maqsad qilganidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 168-moddasida belgilangan firibgarlik jinoyati bilan kvalifikatsiya qilish mumkin;

Kishilar o'rtasida vahima va qo'rquv kayfiyatini uyg'otish maqsadida terrorchilik akti sodir etilganligi to'g'risida noto'g'ri xabar berganlik Jinoyat kodeksi 237-moddasida belgilangan yolg'on xabar berish jinoyati bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Bundan tashqari Internet tarmog'ida kishilarni o'ziga jalb qilish, boylik orttirish maqsadida og'ir kasalliklarni davolovchi dorilarni ixtiro qilganligi yoki shunday kasalni davolashini aytib yolg'on axborot berishni JK 168-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish imkonini mavjud. Mobil aloqa vositasi orqali yolg'on xabar tarqatish holatlari uchrab turishini inobatga olib, buni ham ushbu modda bilan qamrab olish mumkin [21].

Shu bilan birga, bir qator holatlar bo'yicha qonunchilikda bo'shliqlar mavjud:

Aholi o'rtasida vahima, qo'rquv va davlatga qarshi norozilik kayfiyatini uyg'otish maqsadida halokatlar (tabiiy yoki boshqa turdagi) yolg'on axborot tarqatganlik;

Aholi o'rtasida vahima uyg'otish uchun aslida sodir bo'lgan fojialar to'g'risida noto'g'ri va tasdiqlanmagan axborot tarqatganlik;

Hodisa aybdorlari to'g'risida yolg'on faktorlarni ma'lum qilish, masalan, aslida umuman hodisaga aloqador bo'lmagan shaxslarni hodisa ishtirokchisi, hodisa aybdori sifatida ko'rsatganlik uchun javobgarlik masalalari qonunchilikda bayon etilmagan.

2007-yil 15-yanvardagi O'RQ-78-son Qonun bilan tasdiqlangan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasida Yuridik yoki jismoniy shaxs ommaviy axborot vositasida

e'lon qilingan, haqiqatga mos kelmaydigan hamda o'zining sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlovchi ma'lumotlar uchun raddiya berishni tahririyatdan talab qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Bu bilan shaxslarning raddiya berish va javob qaytarish huquqi mustahkamlangan. Shu sababli yolg'on axborotga qarshi kurashish bo'yicha alohida qonun hujjati ishlab chiqishning zarurati yo'q. Faqatgina ularga nisbatan kurashni kuchaytirish maqsadida qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi. Xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasi 3-qismida belgilangan talablarga amal qilinmagan taqdirda veb-saytdan va (yoki) veb-sayt sahifasidan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan cheklanishi mumkin [22].

Ammo amalda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qanaqa tartib belgilanganligi va qanday organ maxsus vakolatli organ hisoblanishi to'g'risida amaldagi qonunchilikda biron-bir normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga belgilangan o'zgartirishlarni kiritgan holda yolg'on ma'lumotlarni bila turib tarqatganlik uchun javobgarlikni kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 237-moddasiga yolg'on xabar berganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida jinoyat to'g'risida berilgan yolg'on xabar aholi o'rtasida vahima yoki qo'rquv chiqargan holatlarni kiritish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni aytish kerakki, soxta yangiliklar, so'nggi yillardagi raqamli asrning mahsuloti bo'lib, insoniyatning ikkinchi hayoti hisoblangan ijtimoiy tarmoqlarning buzg'unchisiga aylandi. Bunda oddiy axborot mahsulotlarini iste'molchisi nima haqiqat va nima yolg'on ekanligini aniqlay olmaydi (va ba'zan istamaydi).

Ayni paytda tadqiqotchilar savollar berishmoqda: soxta yangiliklarni rivojlantirish uchun qanday shart-sharoitlar mavjud va jurnalistikaga qanchalik katta tahdid – bu sifatsiz ma'lumotlarning katta oqimi.

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqqa bo'lgan ehtiyoj xorijiy davlatlar bilan taqqoslaganda tenglashib ulgurdi. Endilikda ijtimoiy tarmoqlardagi ji-

noyatchilikni ikkinchi o'ringa qo'yish katta xatolik. Sababi birgina yolg'on ma'lumotning shaxslarga ta'siri, keyinchalik butun bir jamiyatga zarar keltiradigan kuchga aylanmasligiga hech kim kafolat bermaydi

Bizningcha, eng ma'qul yechim xalqaro kiberxavfsizlik tashkilotlariga a'zo bo'lib, hamkorlikda ish yuritishdir. Sababi kiberjinoyatchilik haqida xorij tajribasining salmog'i oshiqroq. Hozirgi kunda kiberjinoyat deb nomlanagan jinoyat tez sur'atlar bilan oshib bormoqda va uning yangicha turi, shakli paydo bo'lmoqda. Jinoyatchi-

lar uchun axborot kommunikatsiya sohasidagi sodir etilayotgan jinoyatlar eng bexatar va tinch yo'ldir. Hech qanday daliliy ashyo qoldirmasdan masofadan turib jinoyatlarni amalga oshiradi. Bu esa Kriminalistik izlanish uchun qiyinchilik tug'diradi.

